




DINO BUTSSATI  
KATTALASHTIRILGAN  
SURAT

SAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|--|--|





JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

DINO BUTSSATI

# KATTALASHTIRILGAN SURAT

*Qissa va hikoyalar*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
2020

UO'K: 821.131.1-3

KBK 84(41ta)

B 96

Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabhorov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimon:

**Nazira JO'RAYEVA**

Butssati, Dino.

B 96

**Kattalashtirilgan surat.** [Matn]: qissa va hikoyalar / Dino Butssati;  
tarjimon: Nazira Jo'rayeva. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6340-0-8

Qo'lingizdagi kitobda mashhur italyan yozuvchisi Dino Butssatining qissa va hikoyalari jamlangan. „Kattalashtirilgan surat“ qissasida olimlar tomonidan yaratilgan „aqli mashina“ xususida so'z boradi. Juda qiziqarli kutilmagan voqealar o'quvchini befarq qoldirmaydi.

„Ikki haydovchi“ hikoyasida esa onasini qabristonga kuzalayotgan yolg'iz o'g'ilning iztiroblari bayon etilgan. Yozuvchi dunyodagi eng aziz va mehribon inson – onalarning hayotimizda tutgan o'mini mahorat bilan tasvirlab beradi.

UO'K: 821.131.1-3

KBK 84(41ta)



ISBN 978-9943-6340-0-8

© Nazira Jo'rayeva (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna-kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot turziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqi-shar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhiini, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalari-ga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehti-yojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dunder, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muayassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'g'irilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunolarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## KATTALASHTIRILGAN SURAT

### *Qissa*

#### I

N. shahri universitetida elektronika fanidan saboq beruvchi – past bo'yli, to'lagina, tabiatan xushchaqchaq, ammo nihoyatda tortinchoq qirq uch yoshli professor Ermann Ismani 1972-yilning aprel oyida mudofaa vazirligidan maktub oldi. Maktubda ilmiy izlanishlari bo'yicha boshqarma boshlig'i polkovnik Jakinto huzuriga zudlik bilan yetib kelishi yozilgan edi.

Gap nimadaligini tushunmasa-da, harbiy hokimiyat haqidagi ma'lumotdan mutlaqo xabari yo'q Ismani o'sha kuniyoq harbiy vazirlikka oshiqdi.

Avvallari u yerga hech bormagandi. Ismani jur'atsizlik bilan u yoq-bu yoqqa alang-jalang qararkan, botinmaygina qabulxonaga kirdi. Shu ondayoq uning qarshisida paydo bo'lgan harbiy kiyimdagi qo'riqchi undan nima maqsadda kelganligini so'radi. Ismani unga chaqiruv qog'ozini ko'rsatdi. Qo'riqchi, odatda, kelib-ketuvchilarga qo'pol muomalada bo'lardi. Tartibsiz kiyingan, beo'xshov professor Ismani uning ko'ziga arziyas, qo'lidan ish kelmaydigan epsiz odamga o'xshab ko'rindi. Qo'riqchi Ismanining qo'lidagi chaqiruv qog'oziga ko'z yugurtirgach, xuddi sehr-jodu qilingandek muloym bo'ldi-qoldi. U professordan qayta-qayta uzr so'rab, biroz kutib turishini so'radi-yu, tezda ichkariga kirib ketdi.

Ichkaridan kichik leytenant chiqib keldi-da, chaqiruv qog'oziga ko'z yugurtirar ekan, ma'nosiz kulimsirab qo'ydi, so'ng Ismanini ichkariga taklif qildi.

Bu qanday chaqiruv qog'ozini bo'ldi ekan, ichi qizib xayol sura ketdi Ismani. Nima uchun ular xuddi mo'tabar zotga qiziqqandek menga bu qadar qiziqib qoldilar? Aslida ushbu qog'oz oddiy ogohlantiruv qog'ozini edi.

Ismanini goh u kabinetdagi, goh bu kabinetdagi yuqori lavozimli ofitserlar huzuriga olib kirdilar. Ular Ismaniga hadiksiraganday nazar tashlar edilar. Bundan Ismani o'zini noqulay his eta boshladi, go'yo unga nobop, hatto xavfli odamga ehtiyotlik bilan muomala qilib, undan darhol qutulmoqchi bo'lgandek, chaqiruv qog'oziga ko'z yugurtirib, ishni o'zidan yuqori amaldorga uzatishga harakat qilayotgandek tuyulardi.

Polkovnik Jakinto katta haq-huquqqa ega amaldor ekan, chunki uning huzuriga yetib kelgunga qadar qancha to'siqlardan o'tishga to'g'ri keldi.

Egniga oddiy fuqaro kiyimi kiygan, ellik yoshlar chamasidagi Jakinto uni hurmat bilan kutib olar ekan, Ismaniga bu tashrif uncha shoshilinch emasligini aytib qo'ydi. „Zudlik bilan“ deb yozilgan maxsus yozuv unga qarashli bo'lgan idoraning barcha hujjatlariga bosiladigan tamg'a edi, xolos.

— Hurmatli professor, vaqtingizni olmaslik uchun maqsadga ko'cha qolay. Ochig'ini aytadigan bo'lsam, — u ma'noli kulib qo'yarkan, davom etdi: — aniqrog'i, vazirlik tomonidan sizga taklif etilmoqchi bo'lgan masalaning umumiy holatini tushuntirmoqchiman. Masalaning asl mazmun-mohiyati o'zimga ham qorong'u. Professor, ba'zi sohalarda ehtiyot choralari ko'rish zarur ekanligi o'zingizga yaxshi ma'lum. Ochig'ini aytadigan bo'lsam,

avvalo sizdan sir saqlash haqida tilxat olishim zarur edi, lekin professor, sizning nomingiz, xizmatlaringiz, harbiy o'tmishingiz va obro'yingiz...

„U gapni qayerga buryapti?“ deb o'ylab, Ismanining hadigi battar oshdi. Nihoyat, u tilga kirdi:

– Polkovnik, kechirasiz, men hech narsaga tushunmayapman.

Polkovnik Ismaniga kinoya aralash qarab qo'ydi-da, joyidan turib, cho'ntagidan kalitlar shodasini chiqardi va borib seyfnı ochdi, undan bir papkani olib, o'rniga kelib o'tirdi.

– Xo'sh-sh... – dedi u mashinkada yozilgan qog'ozlarnı birma-bir ko'zdan kechirar ekan, so'ng Ismaniga qarab dedi:

– Professor Ismani, siz Vataningizga yordam berishga tayyormisiz?

– Menmi? Qanday yordam? – so'radi Ismani talmovsirab.

– Professor, sizdan shubhamiz yo'q, – dedi Jakinto. – Sizning qarashlaringiz yuqori idoralarga ma'lum. Aynan shuning uchun ham umidimiz sizdan.

– Ammo, men... Bilsangiz... men gap nima haqida ketayotganini tushunmayapman...

– Professor, taxminan ikki yil bizning biron harbiy zonamizga ko'chib o'tib, mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim va katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan ishda ishtirok etishga rozimisiz? – dedi polkovnik ovozi biroz ko'tarib. – Universitetdagi maoshingiz saqlab qolinadi, yana qo'shimcha durustgina safar xarajatlari ham to'lanadi, o'zingiz esa rasmiy safarda hisoblanasiz. Aniq ayta olmayman-u, lekin kuniga taxminan yigirma-yigirma ikki ming olasiz.

– Kuniga-ya? – dovdirab so‘radi Ismani.

– Ustiga-ustak, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan uy-joy bilan ham ta‘minlanasiz. Hujjatda yozilishicha, siz borib ishlaydigan hududning tabiati nihoyatda so‘lim va go‘zal, sog‘liq uchun koni foyda. Sigaret chekasizmi?

– Yo‘q, chekmayman. Qanday ish ekan?

– Vazirlikning buyrug‘ida sizning ixtisosingizni alohida inobatga olish ta‘kidlangan. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, topshiriq bajarilgach, hukumat sizni rag‘batlantiradi... Ayniqsa, sizning uzoqda ishlaganingizni hisobga olib...

– Qanday qilib? Men u yerdan tashqariga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmaymanmi?

– Topshiriqning o‘ta maxfiyligini hisobga olsangiz...

– Ikki yil! Universitet-chi?.. Ma‘ruzalarim-chi?

– Sizga boya aytganimdek, tafsilotlardan xabarim yo‘q. Lekin siz nihoyatda qiziq izlanishlar bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘lishingizga shubham yo‘q. Ochig‘ini ayta qolay, siz rozi bo‘lishingizga hech kim shubha qilmayapti.

– Masalan, kimlar?

– Buni sizga ayta olmayman. Lekin bittasining nomini aytishim mumkin. Taniqli shaxs. Uning ismi Endriad.

– Endriad! U hozir Braziliyada-ku!

– To‘g‘ri, u hozir Braziliyada. Rasman... – deya polkovnik ko‘zini qisib qo‘ydi: – Eh, professor, hayajonlanishingizga hojat bormikin-a? Nima ishligini bilolmay, asabiylashyapsiz, shundaymi?

– Menmi?.. Bilmadim...

– Besamar kechirayotgan hayotimizda kimning asabi joyida deysiz. Ammo hozirgi vaziyatda asabiylashishingizga hech bir hojat yo‘q. Hozir esa – sizga aytishni o‘z vazifam deb bilaman – gap juda yaxshi taklif haqi-

da ketyapti. O'ylab ko'rishga vaqtingiz yetarli. Professor, hozir uyingizga boring-da, avval qanday xotirjam yashagan bo'lsangiz, shunday yashashda davom eting. — Polkovnik jilmayib qo'ydi-da, so'ng: — Go'yoramizda hech qanday suhbat bo'lmadi, deyavering... Meni tushundingiz-a? Go'yoki sizni bu yerga hech kim chaqirmagandek yuravering... Lekin yaxshilab o'ylab ko'ring... Ha, o'ylab ko'ring... Biror fikrga kelsangiz menga qo'ng'iroq qilarsiz.

— Xotinim-chi, u nima bo'ladi? Polkovnik, bu so'zim sizga g'alati tuyulsa kerak. Turmush qurganimizga bor-yo'g'i ikki yil bo'ldi...

– Professor, sizlarga baxt-saodat tilayman... – polkovnik go'yo chigal narsaning yechimini topayotgandek qovog'ini uyib oldi. – Shaxsan o'zingiz kafil bo'lsangiz, unda hech qanday muammo yo'q...

– Bilasizmi, xotinim juda sodda, bo'sh-bayovgina, undan xotirjam bo'lsangiz bo'ladi... U hech qachon mening ishimga qiziqmagan.

– Unday bo'lsa, juda yaxshi. – kulib yubordi polkovnik.

– Lekin undan avval...

– Qulog'im sizda...

– Men biron-bir qarorga kelishimdan avval, bir narsa soʻrasam boʻladimi?..

— Ish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishni nazarda tutyapsiz-da, a?

– To'g'ri, topdingiz. Hech narsani bilmay turib, ikki yilga hamma narsadan voz kechib ketish...

— Tushunarli. Biroz sabr qiling, professor. Xudo haqqi, o'zim ham aytganimday, ortig'ini bilmayman, xoh ishonig, xoh ishonmang, vazirlik xodimlarining biron-

tasi ham sizning vazifangiz nimadan iborat ekanligini aytib berolmaydi. Hatto, Bosh shtab boshlig'i ham... Siz haqsiz, professor. Bu hol g'alati, albatta. To'g'ri, aqlga sig'maydi. Harbiy sir bu, harbiy sir. Bizning burchimiz esa ana shu sirni saqlashdan iborat. Sizing ortida nima borligi bizni qiziqtirmasligi kerak. Tashvish tortmang, kezi kelganda hammasini bilib olasiz. Hali bunga vaqtingiz yetib ortadi. Ikki yilda, mening fikrimcha...

– Kechirasiz, bu ishga nima uchun aynan meni tanladinglar?

– Biz tanlaganimiz yo'q. Sizni u yoqdan tavsiya etishgan.

– Enriadmi?

Itimos, professor, men aytmagan narsani bo'ynimga qo'ymang. Balki, Enriaddir! Bunisi menga mavhum... Xotirjam bo'ling, professor. Hech gap bo'lmagandek, ishingizni davom ettiravering. Tashrifingiz uchun rahmat. Ortiq vaqtingizni olmayman. – Polkovnik Ismanini eshikkacha kuzatib qo'yish uchun o'rmidan turdi. – Qaytarib aytaman, shoshishga hojat yo'q... Lekin yaxshilab o'ylab ko'ring. Bir fikrga kelsangiz...

## II

Taklif professor Ismanini tashvishga solib qo'ydi... „Aql hilan ish tutishim kerak“, degan xayolga bordi u. Res sic stantes (obro'yim)ni saqlab, avvalgi ko'nikkan – xotirjam, o'troq hayotimga sodiq qolgan holda yashashda davom etishim, bir so'z bilan aytganda, „yo'q“ degan javobni berishim kerakka o'xshaydi. Lekin bir ko'ngli bu ishga rozi bo'lib qo'ya qolay derdi. Yana bir ko'ngli qandaydir sirli ishga rozi bo'lib, ikki yil o'ziga no-ma'lum bo'lgan joyda ishlashga yuragi betlamayotgan-

di, begona odamlar orasida xotirjam yashay olmasligiga, qisinib-qimtinib yurishga balki, ko'ngli chopmayotgandir. (Endriad fizika sohasida yorqin yulduz edi, uni bir-ikki bor kongressda ko'rib qolgandi.) Ustiga-ustak, kelajagidan cho'chiyotgandi, u kabi vijdonli hamda intizomli inson uchun o'zining fuqarolik va olimlik burchidan voz kechish ancha qiyin ish edi.

Ismani urushda mardonavor jang qilgandi, lekin xavf-xatardan qo'rqmaganligi uchun emas, aksincha... Aynan irodasizlik qilib qo'yish, buyruqni bajarmaslik, askar do'stlarining ishonchini oqlamaslikdan cho'chish uni yana bir qo'rquvni, ya'ni dushman hujumi ostida yarador bo'lish yoki halok bo'lish qo'rquvini yengishga yordam berardi. U hozir ana shunday holatga tushib qolgandi.

Ismani uyi tomon shoshildi, u o'zidan o'n besh yosh kichik bo'lsa-da, ammo hayotiy tajribasi professornikidan ortiq bo'lgan Elizaga bo'lgan voqeani ipidan ignasigacha aytib berishga oshiqmoqda edi.

Past bo'yli, to'ladan kelgan kulcha yuzli bu ayol har qanday sharoitda ham o'zini yo'qotmas, bu xususiyati boshqalarda unga nisbatan ishonch paydo qilardi. Eliza har qanday joyda: mehmonni yoqtirmaydigan, besaranjom bo'lib yotgan yerda ham o'zini xuddi o'z uyidagidek his etardi. U paydo bo'lgan joyda har qanday tartibsizlik, yuvuqsiz narsalar, notinchlik va noqulayliklar ko'zdan g'oyib bo'lgandek tuyulardi. Hayotga moslashmagan, har narsadan hadiksirayveradigan Ismani uchun bunday xotinning yo'liqishi Tangrining noyob bir sovg'asi. Ularning fe'l-atvorlari mos kelmasa-da, lekin bir-birlariga bo'lgan muhabbatlarining cheki yo'q. Elizaning o'ra maktab bilan chegaralanib qolishi va

erining qilayotgan ishlaridan tamoman bexabarligi ularning baxtli turmushlarining asosiy sabablaridan biri. Eliza Ismanini daho deb bilgani uchun ham erining ishlariga aralashavermasdi. Faqat u erining yarim tungacha ishlashiga qarshi edi, xolos.

Ismani dahlizga kirishi bilanoq beliga peshband taqqan Eliza qo'lida qoshiqni o'ynatgancha uning istiqboliga yugurib chiqdi-da: – Gapirma. Men hammasini bilaman. Senga yangi ish taklif etishgan, – dedi.

– Sen qayerdan bilasan? – hayron bo'lib so'radi Ismani.

– Azizim, chehrangga bir qarashning o'ziyoq kifoya. Xuddi Avliyo Yelena oroliga jo'nab ketayotgan Napoleonning o'zginasisan.

– Tavba, senga kim aytdi?

– Xo'sh, menga nimani aytishi kerak?

– Avliyo Yelena haqida?

– Tavba, seni haqiqatan ham Avliyo Yelena oroliga jo'natishyaptimi? – deya Eliza qoshini chimirib qo'ydi.

– Ha, shunga o'xshash... Iltimos, birovga og'zingdan gullab qo'yma. Mabodo, birov eshitgudek bo'lsa, ko'ngilsizlik ro'y berishi mumkin.

Shu gapdan so'ng Ismani shartta ortiga o'girildi-da, hozirgina o'zi yopgan eshikni qayta ochib, zinapoyaga chiqdi va hadiksirab pastga qarab qo'ydi.

– Senga nima bo'ldi?

– Nazarimda, qadam tovushi eshitilgandek bo'ldi.

– Eshitilsa nima bo'пти?

– Gapimizni boshqa birov eshitmasligi kerak.

– Ermann, meni qo'rqityapsan... Nahotki, gaplaring shu darajada jiddiy bo'lsa? – kulib dedi Eliza. – Qani,

yur oshxonaga. Hammasini bir boshdan gapirib berasan. U yerda bizni hech kim eshitmaydi, xotirjam bo'l.

Ismani fikrini bir joyga jamlab olgach, Jakinto bilan bo'lgan suhbatni xotiniga bir boshdan so'zlab berdi.

– Demak, sen rozi bo'lding, shundaymi?

– Bu gapni qayerdan olding?

– Hoy, azizim, sen rad javobini bera olarmiding, deyman-da!

– Nima, maoshga shama qilyapsanmi? – xafa bo'lib so'radi Ismani, chunki u o'zini har qanday puldan ustun qo'yardi.

– Maoshning nima aloqasi bor? Burch... Muhim topshiriq... Vatanga sodiqlik... Ular seni qay yo'l bilan ilintirishni yaxshi bilishadi. Senga ta'na qilmoqchi emasman. Xudo asrasin... – shunday deya xotini kulib yubordi. – Oyiga olti yuz mingdan ortiq va yana universitetdagi maoshning ham saqlanib qolishi!

– Tavba, hammasini hisoblab ham chiqdingmi? – chiroyi ochilibroq so'radi Ismani.

– Sen bunday pullarni tushingda ham ko'rmagansan. Hamkasblaringni ko'z oldimga keltiryapman, barchasi hasaddan kuyib o'ladi. Qiziq, bu qanday ish bo'ldi ekan-a?

– Bilmayman. Menga hech narsa demadilar.

– Agar shu darajada maxfiy bo'lsa, unda atom bombasi bilan bog'liq bo'lsa kerag-ov... Sen u haqda tushunchaga egamisan? Bilishimcha, bu sening sohang emas, to'g'rimi?

– Bilmayman... Hech narsani bilmayman.

Eliza o'yg'a toldi.

– Ha-a... Sen fizik emassan-ku. Agar ular seni tanlagan bo'lsalar...

– Bu hech narsani bildirmaydi. Atom qurilmasida ham, ayniqsa, loyihalash paytida ham mutaxassis kerak bo‘lib qolishi mumkin...

– Demak, atom stansiyasi ekan-da. Xo‘sh, qachon?

– Nima qachon?

– Ketishingni aytyapman?

– Bilmayman. Hali rozilik berganimcha yo‘q.

– Hozir rozilik bermagan bo‘lsang ham, baribir rozi bo‘lasan. Sen faqat bir sabab bilan rozi bo‘lmasliging mumkin.

– Qanday sabab bilan?

– Mensiz, bir o‘zing borishga to‘g‘ri kelganida, tushundingmi? – kulib qo‘ydi Eliza.

– U yerlarning tabiatini juda go‘zal deb ta‘riflashyapti, – dedi Ismani xotiniga.

### III

Iyun oyning boshlarida Ismani xotini bilan mudofaa vazirligi avtomashinasida „36-harbiy zona“ tomon yo‘lga tushdilar. Mashinani yosh askar boshqarib borardi. Ularga Bosh shtabdan kelgan o‘ttiz besh yoshlar chamasidagi sinchkov bit ko‘zi kulib boquvchi kapitan Vestro hamrohlik qilardi.

Yo‘lga chiqish oldidan er-xotin Ismanilar qachonlardir Eliza dam olgan mashhur kurort joylashgan Tekserud vodiysiga ketayotganlarini bilib qoldilar. Bundan o‘zga hech narsadan xabarlari yo‘q edi. Vodiyning shimoliy tarafida keng tizilgan tog‘lar yastanib yotardi. Hoynahoy, tog‘lar ortida yoki o‘rmon ichida yashovchi mahalliy aholini ko‘chirib, harbiy bazaga aylantirilgan biron obod qishloqqa yuborishgan bo‘lsa, ajab emas.

— Kapitan? Bizni qayerga olib ketyapsiz? — soʻradi Ismani xonim.

Vestro, goʻyo ortiqcha soʻz aytib yuborishdan choʻchigandek, ehtiyotkorlik bilan asta soʻzlay boshladi:

— Manavi yerga, Ismani xonim, — dedi qoʻlidagi mashinkada yozilgan qogʻozni koʻrsatib, lekin u qogʻozni ayolga tutqazmadi. — Bizning qayoqqa borishimiz shu yerda koʻrsatilgan. Bugun oqshom Kreaga qoʻnamiz. Ertaga sakkiz-u oʻttizda yoʻlga tushamiz. Avtostra boʻylab Sant-Agostinogacha boramiz. Undan soʻng harbiy chegara boʻylab yoʻlga tushamiz. Men sizlarni nazorat punktigacha kuzatib qoʻyaman. Bu esa menga huzur va sharaf bagʻishlaydi. Oʻsha yerga yetib borganimizda vazifam nihoyasiga yetadi. Sizlarni olib ketish uchun boshqa mashina keladi.

— Kapitan, siz u yerda avval boʻlganmisiz?

— Qayerda?

— 36-zonada.

— Yoʻq, boʻlmaganman.

— U yerda nima bor? Atom stansiyasimi?

— Atom stansiyasi... — tushunarsiz ohangda gapirdi haydovchi. — Professorga, hoynahoy, bu juda qiziq boʻlsa kerak...

— Men sizdan soʻrayapman, kapitan.

— Mendan? Kechirasiz, bundan mutlaqo bexabarman.

— Juda jumboq-da, Qiziq...

— Siz hech narsani bilmaysiz, erimning ham, vazirlikning ham hech narsadan xabari yoʻq. Vazirlikdagilar nima ishliligini aytishmagan, toʻgʻrimi, Ermann?

— Aytmadilar? Nega? — eʼtiroz bildirdi Ismani. — Ular men bilan iltifotli soʻzlashdilar.

Vestro sezilar-sezilmas miyigʻida kulib qoʻydi.

– Mana, ko'ryapsanmi, – dedi Eliza, – men haqman.

– Haqman deysanmi, azizam? Nimada haqsan?

– Seni atom bombasi yasashga taklif etmoqchi, de-yapman.

– Lekin kapitan bu haqda og'iz ochmagandi.

– Bo'lmasa 36-hududda nima bilan shug'ullanishadi, a? – o'jarlik bilan o'z so'zida davom etardi Eliza.

– Morra, ehtiyot bo'! – qichqirdi kapitan ehtiyotkorlikni unutgan haydovchiga. Chunki ular tor yo'lda katta yuk mashinasini quvib o'tayotgan edilar. Kapitan o'rinsiz xavfsiragan edi. Yo'l ravon, tekis edi. Qarshi tomonda mashina ko'zga tashlanmasdi.

– Men ham shuni aytyapman-da, – gapida davom etardi Eliza Ismani, – agar atom bombasi bo'lmasa unda nima bilan shug'ullanishadi? Nega bizdan buni sir tutishyapti? Mayli, harbiy sir bo'la qolsin, ammo bizlar, menimcha... Axir biz o'zimiz aytilgan hududga ketyapmiz-ku...

– Demak, sizning fikringizcha...

– Menimcha emas, men shunchaki so'radim-da.

– Ismani xonim, – o'ylab gapirishga harakat qilardi kapitan Vestro, – manzilga yetib borguningizga qadar sabr-toqat qilishingizga to'g'ri keladi. Ishoning, men sizga hech narsa deyolmayman.

– Lekin siz xabardorsiz, topdimmi?

– Hurmatli xonim, boya sizga aytganimdek, u yerda biron martayam bo'lmaganman.

– Ha. Lekin siz u yerda nima ish bajarilishini bilasiz, to'g'rimi?

Ismani yuragi g'amga to'lib, bo'layotgan gaplarga jim quloq solib borardi.

– Meni rasmiyatchi deb o'ylamang-u, bu yerda uch holatning biri bo'lishi ehtimol... balki, biz boradigan yer

maxfiy emasdir, ammo men mutlaqo tanish emasman, balki, tanishdirman ham, lekin u maxfiy yoki... obyekt maxfiydir, ustiga-ustak, men u bilan tanish emasman. O'zingiz tushunasiz, har qanday holatda ham...

– Ammo siz bizga bu uch holatdan – qaysi biri haqida gap ketayotganini tushuntirib berishingiz mumkin-ku.

– Barchasi maxfiylik darajasiga bog'liq, – dedi zo-bit. – Agar birinchi darajali maxfiylik bo'lsa, ko'pincha tezkorlik rejalari bilan bo'lib turadigan holat, rejim talablariga muvofiq maxfiylik, hatto obyektga qisman aloqasi bilvosita va manfiy shaklda bo'lsa ham maxfiylik tegishli bo'ladi. „Manfiy shakl“ deganda nima-ni tushunish kerak? Bu degani shuki, agar biror kimsa sirdan voqif bo'lsa-yu, lekin uning tafsilotlarini bilmasa, unda unga o'zining bexabarligini oshkor qilish ham man etiladi. Ismani xonim, e'tibor bering-a, bir qarashda bunday cheklash bema'ni bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin bunday qilishga jiddiy asoslar bor. Misol uchun bizning holatimizni va 36-harbiy zonani olib ko'raylik. Mana, men unga aloqam yo'qligini aytib o'tdim. Mening unvonim va lavozimlik vazifalarimga ko'ra, bunday axborot uncha arzimaydigan darajada bo'lsa ham bunga qiziquvchilar uchun ma'lum darajada asqatishi mumkin...

– Lekin sizga bizning kim ekanligimiz ma'lum-ku! – xitob qildi hafsalasi pir bo'lgan Ismani xonim. – Siz bizga hamrohlik qilayotganingizning o'zi shubhamizni yo'qqa chiqaradi.

– Menimcha, siz harbiy maktabda bo'lmagan-ga o'xshaysiz? U yerdagi katta xonada quyidagi shior osib qo'yilgan: „Siring na do'sti, na yaqini bo'ladi...“ To'g'ri, bunday ishonchsizlik haqoratdek tuyuladi, le-

kin... – Ortiq tushuntirishdan zobit charchadi, shekilli, oxiri butunlay jim bo'lib qoldi.

Ismani xonim xandon otib kulib yubordi:

– Boshqacha qilib aytganda, siz bu harbiy zona haqida bizga so'zlab bera olmasligingizni yoki buni istamayotganingizni odob bilan tushuntiryapsiz.

– Lekin, Ismani xonim, gapimning boshida men bilaman, deb aytganim yo'q, – odatdagi og'ir-vazminlik bilan dedi kapitan.

– Mayli-mayli, hechqisi yo'q. Azbaroyi qiziqqanimdan so'ragandim-da. Meni kechiring, kapitan.

Kapitan indamadi.

Oradan hesh daqíqa o'tgach, Ismani jur'atsizlik bilan:

– Ko'nglingizga olmang-u, kapitan, siz hozirgina uch holat haqida gapirdingiz, yanglishmasam, to'rtta, shekilli. Boradigan yerimiz maxfiy bo'lmasa, siz u yer bilan tanish bo'lishingiz mumkin-ku.

– Bu holatni men hisobga olganim yo'q, chunki uni eslashning o'zi ortiqcha.

– Ortiqcha deysizmi?

– Ha. Bunday holatda... agar boradigan yeringizni bilganimda allaqachon sizlarga gapirib bergan bo'lardim. Morra, ehtiyot bo'li!

Haydovchini ogohlantirishga hojat yo'q edi: ular yaqinlashib qolgan burilish juda keng bo'lib, mashina tezligi soatiga oltmish kilometrda ortiq emasdi.

#### IV

Ertasi kuni ular mashinada Tekserut vodiysi bo'ylab ko'tarila boshladilar.

Sayyohlarga tanish, atrofi o'rmon bilan qoplangan

Oltro darasigacha yo'l tekis, ravon edi. Asta-sekin yo'l torayib, ilonizi shakl oldi. Bu, tabiiyki, yurishni xiyla qiyinlashtiradi.

Yon-atrof chakalakzorga aylanib borar, uylar esa onda-sonda ko'zga tashlanardi. Mahalliy aholi kam uch-rardi. Vodiy uzra quyosh charaqlab turardi. Bu yerlarda shamol faqat bir tomonga esishi sababli daryo labida-gi daraxtlar o'sha tarafga qiyshayib o'sgandi. Oldinda tog'lar salobat-la qad rostlagan. Uch yo'lovchi yo'lda miq etmay ketib borardi. Kulrang pag'a-pag'a bulut-lar bir maromda ko'kda suzib ketmoqda. Pastdagi tog' tizmalari uzra muallaq osilgan bulutlar dara tomon cho'zilib ketgandi.

– Hali uzoq yuramizmi? – deb dam-badam savol be-rardi Ismani.

– Yo'q, ko'p yurmasak kerak, bu yerlarga mening ham birinchi kelishim, – javob berdi Vestro.

– Necha kilometr qoldi ekan?

– Yaqinlashib qoldig-ov.

Hamrohlar yo'lning ayrilish joyiga yetib keldilar. O'ng tarafga ketadigan yo'l dara tomon kirib borardi. Tarvaqaylab o'sgan archalar bilan qoplangan tik qoyalar orasidan Ismanining ko'zi oq toshlardan qad ko'targan kalla suyagi shaklidagi qo'rg'onga tushdi. Bu manzara Ismanining ruhini tushirib yubordi. Belgilangan manzil shu bo'lsa, hech qachon bu yerda qolmayman, degan fikr o'tdi uning xayolidan. Shundan so'ng: hozir o'ng-ga – dara tomonga burilamiz, deb o'yladi. Biroq ma-shina to'g'riga qarab yo'l soldi.

Oradan chamasi yarim soatlar o'tgach, tog'larning orasidagi yo'l biroz kengaydi. Bu yerlarda havo ochiq bo'lib, vodiy ham ularni kulib qarshi olganday yastanib

yotardi. Mashina mo'jazgina benzin quyish shoxobchasi oldida to'xtadi. Barchalari charchoqni yozish va bir finjondan qahva ichish maqsadida mashinadan tushdilar.

Kapitan biroz narida turganidan foydalanib, Ismani o'rta yashar, muloyim chehrali benzin quyuvchiga murojaat etarkan, tog' tomon ilonizi bo'lib chiqib ketgan yo'lni ko'rsatib:

– Atom stansiyasiga shu tomondan yuriladimi? – deb so'radi.

– Atom stansiyasi deysizmi? – benzin quyuvchi, go'yo najot so'rayotgandek, atrofga olazarak alanglab oldi-da:

– Bundan xabarim yo'q, – dedi.

– Lekin u haqda sen biron narsa eshitganmisan? – Ular tomon Vestro yaqinlashib kelmoqda edi.

– Har xil mish-mishlar yuradi. Ob-havoyam o'z-o'zidan... Ob-havo...

– Nima, ob-havo?

– Ob-havo o'zgardi, deyapman. Hozir yaxshi. Yomg'ir ham tindi.

U kulib yubordi.

Yorug' dunyoning bu xilvat puchmog'ida yashovchilarning tabiiy ehtiyoqkorliklarini hisobga olganda, bunday javobni kutish bor gap edi. Ismanini hayron qoldirgan narsa – bu tasdiqlovchi javob edi. Unga ishonssa bo'larmikan? Ismani ko'z qiri bilan ilg'ab oldimi yoki unga shunday tuyuldimi, har holda u kapitan bilan til biriktirgandek, tirjayib qo'ydi. Lekin Vestro bunga parvo ham qilmadi.

Ular yana mashinaga o'tirganlaridan so'ng, Vestro haydovchiga bir nima deb g'o'ldiradi. Haydovchi vodiy

bo'ylab yo'lda davom etish o'rniga mashinani burib, ortga qayta boshladi.

– Nima gap, tinchlikmi? – so'radi Ismani xonim.

Vestro dona-dona qilib tushuntirdi:

– Meni kechirasizlar. Bu yerga birinchi bor kelishim. Shuning uchun yo'lning ayrilish joyini ko'rmay, o'tib ketibman.

– Qanday ayrilish joyni? – bezovtalanib so'radi Ismani ko'ngliga o'tirmagan darani eslab.

– Uch-to'rt kilometr naridan burilib olishimiz kerak ekan.

Barchalari jim bo'lib qoldilar. „Hoynahoy, menga yoqmagan o'sha yer bo'lsa kerak“, o'yladi Ismani. „Men o'shandayoq tushungan edim, ko'nglim sezibdi. O'lib qolsam ham bu yerda qolmayman“.

– Kapitan, – dedi Ismani bir necha daqiqadan so'ng. – So'raganni aybi yo'q. Agar men...

– Xo'sh, xo'sh, qulog'im sizda, professor, – uning ikkilanayotganini sezib, hozirjavoblik bilan dedi u.

– Agar men... shunchaki taxmin qilib ko'rsak... agar, kutilmaganda fikrim o'zgarib, hoziroq kelishuvdan voz kechsam nima bo'ladi?

– Unday bo'lsa, – o'ziga xos sovuqqonlik bilan dona-dona qilib dedi Vestro, – men sizning ixtiyoringizdaman, xohlasangiz, uyingizga olib borib qo'yishim mumkin.

– Shunday hollar ham bo'lganmi?

– Bilmadim. Menga topshiriq berilgan. Siz, professor, to'satdan...

– Senga nima bo'ldi, Ermann, – kulib so'radi xotini. – Tag'in miyangga qanday fikr kelib qoldi, a?

Xotining gapi Ismanining qulog'iga kirmasdi. Kapitanning javobi uni sarosimaga solib qo'ydi.

– Demak, – dedi u, – so'nggi daqiqada ham bu taklifga rad javobini berishim mumkin ekan-da?

– Bunday holda, professor, sizning roziligingiz hisobga olinadi va vazirlik... Menimcha, sizning istagingiz ixtiyoriy, majburiy emas...

– Kapitan, to'g'risini aytsangiz, hamkasblarimdan birontasi bunday ishdan bo'yin tovlaganmi?

– Bilmadim. Bo'yin tovlagan deb aytolmayman. Bunaqasini eshitmaganman ham. Sizga aytyapman-ku, u yerga o'zimning ham birinchi marta borishim.

Ismani qanday qarorga kelishni bilmay, ikkilanib, jim bo'lib qoldi. Shuncha yo'l bosib kelib, endi ortga qaytish g'alati va kulgili hol bo'lur edi – axir u yosh bola emas-ku! Odamni yutaman deb savlat to'kib turgan sovuq qoyador darani yomon ko'rib qolgandi. Shunday bo'lsa-da, Ismani bir qarorga kelishga oshiqmadi. U taxmin qilganidek, mash'um dara boshlanadigan yerga kelganda mashina yurishini sekinlatdi.

– Biz shu yoqqa yurishimiz kerakmi?

– Yo'g'-e, – javob qildi Vestro, – mutlaqo boshqa tomonga yuramiz, – shunday deya Vestro qarama-qarshi tomonda joylashgan qiyalikni ko'rsatdi.

Er-xotin Ismanilar o'ng tomonga nigohlarini tikdilar. U yerda asosiy yo'l bilan yonma-yon boshlangan vodiydagi daryo va ko'priknı ko'rdilar (aniqrog'i, bu yerda toshlarga to'lib ketgan keng daryo sayozlanib oqmoqda edi).

Qarama-qarshi tarafdagi daraga nisbatan bu vodi y keng, yam-yashil bo'lib, ko'zni quvnatardi. Tartibsiz holatda bir-biriga tutashgan o'rmon va yaylovlar pastqam

tepaliklargacha borib taqaladi. Bu go'zal vodiyning ichkarisiga kirib borishar ekan, uzuq-yuluq tog' tizmalari ko'zga tashlana boshladi. Bu yerdagi tog'lar ko'rkamroq ekanmi, yo oftob bu yerda boshqacha nur sochar ekanmi, har holda, Ismanining ko'nglidagi g'ashlikdan asar ham qolmadi.

## V

Ortidan yassi tepalik ko'rinish turgan yo'l birdan kengaya boshladi; ana shu yerda nazorat punkti joylashgan edi: shuningdek, uncha katta bo'lmagan kazarma ham bo'lib, antenna va bayroq ham ko'zga tashlanardi. Kazarma oddiy yog'och to'siq devor bilan o'rab olingandi, sal narida bir stol va tashlandiq it katagi bor edi.

Bu yerning tabiati nihoyatda go'zal va so'lim. Tekserut vodiysi tomon cho'zilgan o'rmonlar, vodiylar nihoyasida yaraqlab oqayotgan daryo, ajoyib sohil, katta yo'l, u yer-bu yerda qad ko'targan uychalar, havoda muallaq osilib turgan g'ubor, xullas, tog' joylarga xos va mos bo'lgan sokinlik va shinamlik mujassam.

Orqa tomondagi manzara butunlay buning aksi. O'rmon o'rmini betartib sochilib yotgan qoyalar egalladi, ularning usti yovvoyi o'tlar va butalar bilan qoplangan edi; undan u yog'i – bo'shliq joylar. Atrofdagi qiya tog' devorlari umumiy go'zal manzarani buzib turardi, bu holat kishiga ma'yuslik bag'ishlardi.

Er-xotin Ismanilarni navbatchi leytenant Trotsdem kutib oldi. Bularning kelishidan avvaldan xabardor bo'lganligi uchun u mehmonlarga tushlik tayyorlash haqida buyruq bergandi.

Nazorat punktida biroz ushlanib qolishlariga to'g'ri keldi. Kapitan Vestroning yopiq harbiy zonaga kirishi

uchun ruxsatnomasi yo'q edi. Ismanilar ketayotgan Markazdan ularni olib ketish uchun boshqa mashina kelishi kerak ekan. Leytenantning gapiga qaraganda, mashina tayyor ekan-u, lekin yana bir odamning – muhandis Strobele ayolining kelishini kutib turishlari va ular birgalikda Ismanilar bilan so'nggi yo'lni bosib o'tishlari lozim edi.

Qanaqa Strobele? Leytenantning mujmal tushuntirishidan Ismani hoynahoy Strobele yuqorida ishlaydigan katta amaldorlardan biri bo'lsa kerak, degan xayolga bordi. Uning ayoli bilan Ismanilarning kelishi bir vaqtga to'g'ri kelishi shunchaki benzinni tejash maqsadida emas, balki qattiq qo'riqlanayotgan zona chegarasidan o'tishlarini imkon qadar kamaytirish zarurati yuzasidan qilingan edi. Er-xotin Ismanilarni oshxona vazifasini o'taydigan torgina kazarmaga joylashtirdilar. Bu yerda boshqa harbiylar ham xizmat qilardi. Ular kichik leytenant Pikko, katta serjant Ambrozini, katta serjant Introtssilardan iborat.

Xizmat yuzasidan zudlik bilan ortiga qaytishi kerakligini aytib, kapitan Vestro ular bilan xayrlashdi. Uning bu yerlardan tezroq ketishga oshiqayotganligi shundoqqina sezilib turardi.

Vestroning jo'nab ketishi Ismanining oddiy hayot bilan bog'lab turgan so'nggi rishtalarini uzib yubordi. Endi yangi sarguzashtlar boshlanayotgan edi. Atrofida bo'layotgan gaplardan Ismanining bezovtaligi yanada oshib borardi.

Shu ondayoq Ismani na leytenant Trotsdeam, na Pikko va boshqalar bu tepalikda nima bo'layotganidan mutlaqo hexabar ekanliklarini tushunib yetdi. Son jihatdan uncha katta bo'lmagan harbiy garnizon 36-zo-

na atrofida joylashgan boshqa nazorat punktlari bilan birgalikda faqat qo'riqlash vazifasini hajarar ekan. Bu yer tashqi to'siq hisoblanib, uning vazifasi zonaga begonalarni kirishiga yo'l qo'ymaslik va atrof-hududni nazorat qilishdan iborat. Garnizon zobitlari va askarlari markazga bo'ysunmas, zonaga kirish huquqiga ega emasdilar, shu bilan birga u yerda bo'layotgan ishlardan ham bexabar bo'lgan.

Ularga qattiq qo'riqlash tayinlangandi. Ammo bu hududning maxfiyligi va unda qanday sir yashirinligidan o'zlari ham bexabar edilar. Qiziq, atom stansiyasi qurilayotganmikan?

— Professor, Xudo xayringizni bersin, mendan hech narsani so'ramang, — dedi leytenant Trotsdem. — Agar sizgaki noma'lum bo'lsa... Men bu yerda besh oydan buyon ishlayapman. Kelgan kunim nimani ko'rgan bo'l-sam, bundan ortig'ini bilmayman. Ular nimani maxfiy tutishyapti o'zi, hayronman. Sir... sir... atrofimiz sir-sinoatga to'la... Bu qandaydir shaytonning vasvasasiga o'xshaydi. O'z-o'zidan ma'lumki, har birimiz nimadan-dir gumon qilamiz. Bema'ni o'y-xayollarga berilamiz... Bir narsani aytishim mumkin: menga omad kulib boqdi, deb hisoblang, professor. Bir necha soatdan so'ng manzilga yetib borgach, hamma narsadan xabardor bo'lasizlar. Hech narsa aytmayotganingiz bizni qiziqtirmaydi. Bizning vazifamiz qo'riqlash va nokerak joyga humimizni tiqmaslikdan iborat. Shundaylikka shunday-ku, faqat ikki qadam narida turib, hech narsadan xabarimiz yo'q-da. Manavi qoyalarni ko'ryapsizmi? O'sha yerga chiqsangiz, dovon ham baland emas, bor-yo'g'i yuz metrlik chamasi. Tepadan turib ko'rish mumkin. Ammo bu man etilgan, bizlarga — harbiylarga bunday qiziqish

qimmatga tushishi mumkin... – deya u miyig'ida kulib qo'ydi. – Va shunga qaramasdan... Bir so'z bilan aytganda, qo'l ostimda qirqqa yaqin askar bor, qo'shimcha kuchlar yo'q. Bu yerda ayol zoti yo'q. Buning ustiga harbiy sir. Turli xil taxminlar... Hech bo'lmaganda nimaning qo'riqlayotganimizni bilsak ham mayli edi. Surguning o'zginasi... Shunday bo'lsa-da... Bilasizmi, bu yerdan hech kimning ketgisi yo'q. O'lgudek zerikarli, kunning bir xil kechadi, qizlarning ko'rinishi qanday ekanligini ham unutib yuborganmiz... Eliza xonim, hozir siz, – murojaat etdi u Eliza Ismaniga qarab, – siz men uchun, bilmayman, nima bilan qiyoslash mumkin, go'yo osmondan tushgan... Ammo bu yer bizga juda yoqadi. Kayfiyatimiz a'lo, ishtahamiz joyida. Siz bu holatni tushuntirib bera olasizmi?.. Xonim, men oddiy odamman... ammo sizga aytsam... agar bu yerda atom stansiyasi bo'lsa, unda bu juda g'alati.

– G'alati?

– Bu yerda sodir bo'layotgan ishlar juda ham g'alati...

– Tavba, nimalar bo'lyapti-a? Nimalar? – hayajonlanib so'radi Ismani.

– Bu qanaqasi, leytenant, – qo'rquvga tushgan erini ko'rib, gapga aralashdi Eliza, – leytenant, axir harbiy sirni saqlashingiz kerak emasmi? Nega siz bularning barchasini xotirjam so'zlab beryapsiz? Lekin, biz ikkimiz josus emasligimizga kim kafolat bera oladi?

Trotsdem kulib yubordi.

– Yo'q, baxtimizga, bunga bizning hech qanday aloqamiz yo'q... Sir anavi kazarma ortidan boshlanadi. Biz bo'lsak undan chetdamiz... Bizga ana shu sir yetishmay turgandi. Agar biz hech narsadan voqif bo'lmasak,

ana shu hech narsa haqida istagancha fikr bildirishimiz mumkin.

Eliza Ismani uni javrashdan to'xtatib bo'lmasligini tushundi. Leytenant tinmay javragani-javragan. Va nihoyat, besh oy mobaynida to'yib gapirib olayotganiga o'zi ham ishonmayotgandi, chog'i. Uning gaplari uzuq-yuluq, aqlga to'g'ri kelmaydigan – ehtimoldan uzoq gaplar edi.

## VI

– Markazning qurilishi, – leytenant o'z hikoyasini shunday boshladi, – bundan o'n yil avval boshlangan edi. Zona atrofi o'rab olindi. U yerga yuzlab, balki, minglab ishchilar va mutaxassislarni olib keldilar, ularni baraklarga joylashtirdilar. Poydevor uchun chuqur qazish ishlari boshlanib ketdi, avvaliga hamma u yerda gidroelektrostansiya to'g'oni qurilsa kerak, deb o'yladi. Haqiqatan ham elektrostansiya bilan to'g'on qurildi, shu bilan bir vaqtda, qandaydir korxonaning, hatto bir necha korxonalarning devorlari qad ko'tara boshladi. Qattiq nazorat o'rnatildi. Mehnat staji besh yildan kam bo'lmagan ishchilar zavod va to'pxonalardan olib kelindi. Qurilish maydonlari bir-biridan ajratilgan holda qurildi, ularning har birida ishlar alohida olib borilardi. Bunga sabab, hech kim umumiy rejani payqab qolmasligi uchun qattiq nazorat qilishardi.

Sakkiz yil davom etgan qurilishdan so'ng, deyarli barcha ishchilarni bu yerdan olib ketdilar. Ulardan o'zginasi shu yerda qoldi. Agar bu atom zavodi bo'lsa, u avtomatik ravishda ishlagan bo'lar, ishchilari ham o'zgina bo'lardi. Unda bu zavodmikan-a? Trotsdemning fikricha, yuqoriga katta miqdorda elektr uskunalari kel-

tirilgan ekan, lekin ular qanday uskunalar, nimalarga ishlatilishidan uning xabari yo'q edi.

Qurilish bitgach, hamma yoqda osoyishtalik hukm sura boshladi. Korxona qurilib bitgan, deb aytish mumkin edi.

Lekin zavod ishga tushdimi? Bu jumboq: korxonaga tushib-chiqadigan yuk mashinalari barmoq bilan sanarli, bu esa chiqarilayotgan mahsulot nihoyatda oz yoki umuman yo'qligidan dalolat berardi. Aslida xomashyoni o'sha yerning o'zidan olishlari, chiqarilayotgan mahsulotlarni o'sha yerda saqlashlari mumkin. Boshqa taxminga ko'ra, bu korxona hech qanday mahsulot chiqarmay, balki faraz qilish qiyin bo'lgan boshqa bir faoliyat bilan shug'ullansa kerak.

Trotsdem turli sabablar bilan tepalikka dam ko'tarilib, dam qaytib tushayotgan ishchilar bilan tez-tez gaplashib turardi. Ammo bu suhbatlardan biron narsa bilib olish amrimahol. Odamlar qat'iy ogoh qilingani sabab tillariga ehtiyot bo'lardilar, lekin qancha sir saqlamasinlar, bu yerdagi ishlar haqida aniq tushunchaga ega emasdilar.

Trotsdem faqat bir muhim ma'lumotni bilishga muvaffaq bo'lgandi. Aynan rahbariyat va bosh texnik mutaxassislardan tashqari qolgan ishchilar bu yerdagi olib borilgan ishlarning boshidan oxirigacha ishtirok etishmagan. Ko'pi bilan ikki yil o'tgandan so'ng barcha ishchilar almashtirib turilardi, shuning uchun ham ulardan birontasi bu yerda olib borilayotgan ishlar haqida to'la ma'lumotga ega emasdi.

Leytenant Trotsdemning fikricha, 36-zonaning tashqi chegarasida joylashgan garnizondagi ba'zi bir hollar va olib borilayotgan ishlarni tushunmasalar-da, ularni ku-

zatish qiziq ko'ringan edi; qiziqligining asosiy sababi tirik guvoh bo'lganligida. U yana quyidagilarni hikoya qilib berdi:

Garnizon zobitlari va soldatlari tik qoyalar bo'ylab tortilgan tikanli sim to'sig'idan 36-zona hududiga o'tishlari qat'iyan man etilgandi. Har qanday shubhali odam yoki kichik bir hodisa haqida ham radiouzatgich yoki telefon orqali Markaz qo'mondonligiga zudlik bilan xabar berish ularning vazifasiga kirardi. Buni qarang-a! Oxirgi vaqtlarda ogohlikni oshirish to'g'risidagi yuqoridan kelayotgan talablar shunday ko'payib ketdiki, go'yo har daqiqa dushman hujum qilib qolishi mumkindek edi. Mana bu ish juda g'alati tuyulardi. Har safar patrul yoki joylardagi nazoratchilar ko'pincha o'rmonchilar yoki ovchilarni payqab qolgudek bo'lsalar, bu haqda radio orqali va ketma-ket uch marotaba hushtak chalib xabar berganlarida, kimdir bu haqda avval xabar berilganligini bilib olardilar. Markazdan Rio-Sprea vodiysidagi yetmish sakkizinchi kvadratning o'ng sektori ustidan nazorat kuchaytirilsin (hududning topografik xaritasi raqamlangan kvadratlarga bo'lib chiqilgan edi) degan buyruq kelgan edi. Aynan shu yer hozirgina askarlar noma'lum kimsani payqab qolgan yer bo'lib chiqqan.

Ba'zi holatlarda: „Ikki noma'lum kimsa o'ninchi kvadratdagi qoyalar ostidan ketib bormoqda. Inobatga olinsin“, degan ma'lumot olinardi.

Soqchilar o'tib borayotganlarni payqamagan hollar ham bo'lardi. Trotsdem o'z-o'ziga bu nimani anglatadi, degan savolni berardi. Nahotki, ko'zga ko'rinmas kimsa ham ular bilan birgalikda garnizonni qo'riqlasa va ulardan avval axborotni tezkorlik bilan aniq yetkazsa? U kim o'zi? Qayerdan kuzatadilar? Axir garnizon atrofida

shubhali hech kimni ko'rmagan edi-ku? Qiya qoyalar yon-verida ham soqchilar ko'rinmasdi. Markazda sehr-garlar o'tiribdimi ekan-a?

– Leytenant, lekin siz o'zingiz, – bo'sh kelmas-di Ismani, – tepadagi qurilmani o'z ko'zingiz bilan ko'rganmidingiz?

– Biron martayam ko'rgan emasman. Aytdim-ku, bi-zni u yerga yaqinlashtirmaganlar deb, biz faqat tog' va o'rmonlarni ko'ramiz. Bir kilometr uzoqlikda joylash-gan farishtalar vodiysida u-bu narsani ko'rsa bo'lardi, xolos.

– Aynan nimani?

– Kim biladi deysiz..., Devorning bir qismini – na oyna, na teshik bor. Devor ortida radionikiga o'xshash baland antenna bo'y cho'zib turibdi, uning uchida esa qandaydir dumaloq narsa bor.

– Dumaloq narsa?

– Ha, shunday. Uni qimirlaydi, deb aytgandilar.

– Qanday qimirlaydi?

– O'z o'qi atrofida aylanarmish.

– Nima uchun?

– Mendan so'rayapsizmi?

– Bu jumboq. Bu yerdagi hamma narsa tilsim qilin-gan kabi jumboq.

– Siz u yerda atom qurilmasi bor deb o'ylamaysizmi?

– Aytadiganimni aytdim sizga. Mendek omi bir odam nimani ham tushunardi deysiz... agar bu atom qurilmasi bo'lganida edi, biz orqali turli xil yuklarni olib o'tgan bo'lardilar. So'ngra...

– U yerga faqat shu yo'ldan boriladimi? – so'radi Ismani.

– Yuklar olib o'tish uchun osma ko'prik ham bor.

Ammo undan vagonchalar o'tib turadi, yuklar to'liq ketyaptimi yoki bo'shmi, bizga noma'lum... — deya gapga aralashdi qo'shni stolida jim quloq solib o'tirgan kichik leytenant Pikko. — Siz, yaxshisi, ovoz haqida hikoya qilib bering...

Trotsdem yelkasini qisib qo'ydi.

— Unga quloq solmang, professor, men bunga ishonmayman. Bu ertak bo'lsa kerak. Ko'pgina askarlarimiz qandaydir ovoz eshitilayotganini aytgandilar. Bu ovoz erkaklar ovoziga o'xshamas emish.

— O'sha ovoz tepalikdan eshitiladimi?

— Ha, o'sha tepalikdan.

— Nimalarni gapiradi?

— Hech kim tushunmaydi.

Ba'zilar uni xorijiy tilda gapiradi, shuning uchun tushunib bo'lmaydi deydi. Boshqalar ovoz uzoqdan kelayotgani uchun tushunib bo'lmaydi deyishadi. Shaxsan men uni biron martayam eshitmaganman.

Ismani kichik leytenant Pikko tomon o'girildi.

— Siz-chi, eshitganmisiz?

— Men... menga bir necha bor eshitilgandek tuyuldi... Ammo to'g'risini aytsam, eshitdim deb aytolmayman ham...

— Ana ko'ryapsizmi? — dedi Trotsdem. — Rostiga kelinganda, so'zidan qaytishadi. Har xil mish-mishlar juda ko'p, bu bor gap deb hamma ont ichadi, faqat hech kim ovozni falon kuni, falon soatda eshitdim, deb aytolmaydi. Barchasi uydirma, buning ajablanadigan joyi yo'q: har qanday sir atrofida turli xil ishonib bo'lmaydigan mish-mishlar yuradi.

— Xo'sh, nega itlar haqida so'zlab bermayapsan? — dedi Pikko. — Axir ularni o'zing ko'rgansan-ku.

– Itlar haqida? – qiziqib so‘radi Ismani.

– Ha. Buni gapirmasayam bo‘ladi. Nima desam ekan?.. – dedi Trotsdem.

– Sizlar shu yerda boqadigan itlar haqidami?

– Boqqan edik. Ikkalasi ham bo‘ridek keladigan itlar edi. Lekin ular xizmatga yaramadilar. Ularni bu yerga olib kelishgach, qattiq bezovtalana boshladilar.

– Nima, ular qattiq akillarmidi?

– Yo‘q, qizig‘i shundaki, ular akillamasdi. Uvullardi. Jon-jahdi bilan tepalik tomon talpinardilar.

– Qaysi tepalik tomon?

– Shu yoqqa, qoyalarga qarab. Xullas, ularni kelgan joyiga qaytarib yuborishga majbur bo‘ldik.

– Faqat ularnini yo boshqalarini hammi?

– Bu yerga kelgan itlarning bari shu holatga tusha boshladi. Hatto serjant Introtssi olib kelgan tulki bolasi ham qoyalar tomonga qarab holdan toyguncha uvullay boshladi...

Shu payt motorning guvullagan ovozi quloqqa chalingdi. Mashina tepalik tomon ko‘tarilayotgandi. Strobele xonimni olib kelayotgan mashina kazarma tomon yaqinlashib kelmoqda edi.

## VII

Olga Strobele o‘zi bilan birga bu yerga bir dunyo quvonch olib keldi. U oppoqqina, sepkildor, bodomqovoq, g‘uncha labli, malla soch, qadi-qomati kelishgan yigirma sakkiz yoshdagi ayol edi. Ochiq chehrali, bu ayolning kulib turishi o‘ziga yarashib turardi. Beli ingichka bo‘lib, oyoqlari g‘oyatda kelishgan edi. U nihoyatda latofatli, shu bilan birga qaysargina ham. O‘tib ketayotganlar unga albatta bir o‘girilib qarab qo‘yardilar.

Ayol Ismanini ko'rib, darhol so'roqqa tuta ketdi:

– Ayting-chi, siz Tommazeo litseyida dars berganmisiz? Bundan o'n bir yil avval.

– Ha, topdingiz. Siz buni qayerdan bilasiz? Men to'rt yil o'sha litseyda algebradan dars berganman.

– Voy, siz-ey! Qani, menga bir yaxshilab qarang-chi! Mening chehram sizga tanish ko'rinmayaptimi?

– Balki... Eslash qobiliyatim sustroq... Ustiga-ustak siz ayollar...

Olga Kottiniman. Esladingizmi? Iks barobar kvadratdagi ildizdan ikkiga... Siz meni imtihondan yiqitgandingiz. Hozir eslolmayapsiz. Hali ko'rasiz, men sizdan o'chimni olmay qo'ymayman.

– Agar bilganimda edi... agar men oldindan ko'ra bilganimda edi, – dedi Ismani ayolning hazilidan qizarib-bo'zarib.

– Yaxshi-yaxshi, sizni kechirdim. – Ayol Ismanini quchib, ikki yuzidan o'pib ham qo'ydi. So'ng o'girilib, Ismani xonimga yuzlandi-da: – Kechirasiz, – dedi. – Jankarlo meni doimo yovvoyisan deydi... qarang-a, meni imtihondan yiqitgan o'qituvchimni shu yerda ko'rib tursam-a! Yana qayerda deng, kimsasiz joylarda... eringizni ko'rgani ko'zim yo'q edi! Uni qarg'agan ham edim! Hurmatli professor, imtihonni juda qattiq olardingiz o'ziyam. Men qattiq iztirob chekkanman... Lekin sizdan o'chimni olmasammi, janob Ismani, ha, so'z beraman bunga.

Olganing bu hazilidan Ismani xonimning jahli chiqqani yo'q. Qaytanga o'zlari bilan bunday ochiq, quvnoq ayolning hamroh bo'lganidan suyundi. Uning bu yerdaligi erini turli xil vahimalardan xalos bo'lishiga yordam beradi ham. Olga Strobele barcha erkaklarga

yoqsa-da, unga nisbatan erini sirayam rashk qilmadi. U eri Ermanga juda ishonadi. Eliza Olgani so'roqqa tutdi:

– Turmushga chiqqaningizga ancha bo'ldimi?

– Yaqinda uch oy bo'ladi.

– Yuqorida yashaysizlarmi?

– Yo'q, bu yerga birinchi bor kelishim. Bilasizmi, turmushga chiqib, hali ro'shnolik ko'rganim yo'q. To'y qilib, o'n kungina asal oyiga borib keldik, xolos. Ma'lumotnoma erjonim esa meni beva qilib tashlab ketdi.

– Ma'lumotnoma?

– Bunga e'tibor bermang. Hazillashib shunday deb atayman. Undan biron narsani so'rasangiz, zumda tushuntirib berishga suyagi yo'q. Shuning uchun ham ma'lumotnoma deyman. Xullas, bir haftadan so'ng u meni tashlab ketdi. Shoshilinch, mutlaqo maxfiy ish chiqib qoldi, dedi. O'n yildan buyon yuqorida – Markazda ishlasa ham, hech ishga to'ymaydi. Mana, endi men ham uning ortidan yugurib yurishga majburman.

– Qaytanga, endi diydor ko'rishasizlar.

– Men bu yerda yigirma kunlar, ko'pi bilan bir oy bo'laman. So'ng ikkimiz birgalikda uyga qaytamiz. Uning aytishicha, bu yerdagi ishini deyarli tugatibdi.

– Qanday ish ekan? – jur'at qilib so'radi Ismani.

– Kechirasiz, mutlaqo bexabarman, xabarim yo'q.

– Korxona juda katta bo'lsa kerak?

– Qanday korxona?

– Anavi yuqoridagi-da.

– Nima? Professor, hali siz u yerda bo'lganingiz yo'qmi? – go'yo qandaydir shubhani sezgandek, boshini biroz engashtirib unga qaradi Olga. – Siz u yerda biron martayam bo'lmaganmisiz?

– Yo'q, biron martayam bo'lmaganman!

Ismani barcha tafsilotlarni ikir-chikirigacha bilishga oshiqardi. Ammo, ehtiyotkorlik yuzasidan Trotsdem va Pikko huzurida bunday beadab savollarni berishdan o'zini to'xtatib qoldi.

Er-xotin Ismanilar va Strobele xonim Markazdan ularni olib ketishga kelgan mashinaga o'tirayotganlarida qosh qorayib qolgan edi. Mashinani harbiy kishi boshqarib borardi. Ular Trotsdemga eng katta jomadonlarini qoldirib (u ularni boshqa mashinada yetkazishga va'da bergan edi), xayrlashdilar va tepalik tomon yo'l oldilar.

Nazorat punktidan so'ng ilonizi yo'l to'g'rilanib, tepalik tomon chiqa boshladi. Qorong'ulik yon-atrofga o'z chodirini yoygan, ustiga-ustak, quyuq tushgan tuman o'rmonni ko'rishga xalaqit berardi. Kutilmaganda sarg'ish tik qoyaga yetganda mashina to'xtab qoldi.

G'ira-shirada tosh devorga o'rnatilgan katta temir darvozani Ismani hadeganda payqamadi. So'ng turgan joylaridan o'ng va chap tarafga uch-to'rt qator qilib tortilgan tikanli sim ko'rindi. Va qandaydir dumaloq shaklda turtib chiqib turgan narsalar – hoynahoy, yuqori kuchlanishli izolyatorlar bo'lsa kerak, ularning diqqatini o'ziga tortdi.

Bu yerda biron jonzot ko'rinmasdi. Yon-atrof sovuq va zax bo'lganidan kishi ko'ziga xunuk ko'rinardi. Haydovchi:

– Bir necha daqiqa kutib turishimizga to'g'ri keladi, – dedi. – Men sizlarni olib kelish uchun ketayotganimda, tunnelni tozalashayotgan edi. Yuqoridan ko'chki tushibdi.

– Bizning bu yerga kelganimizni ularga aytdingizmi? – so'radi Eliza Ismani.

– Aytishimning hojati yo‘q. Ular kelishingizdan xabardor, – dedi soldat.

– Qanaqasiga?

Haydovchi bu ayolning savoliga javob berish kerakmi yoki yo‘qmi deganday unga tikilib qarab qoldi. Ayolga ishonch bildirdi, shekilli, barmog‘i bilan elas-elas ko‘zga tashlanib turgan chorsi darvozani ko‘rsatdi.

Eliza tilini tishlab qoldi. Bu yerda qandaydir suratga oluvchi telekamera yo bo‘lmasa yana biron narsa bo‘lsa kerak, degan xayolga bordi u.

– Men mashinadan tushib, biroz yurmasam bo‘lmaydi, oyog‘im shishib qolibdi, – dedi Olga Strobele.

– Men ham tushaman, – dedi Ismani ham o‘sha o‘sha qiziquvchanlik bilan.

Ular jarlik tepasidagi yo‘l bo‘ylab bir necha metr pastlikka tushdilar. Tuman quyuq bo‘lganidan jarlik tubini ko‘rib bo‘lmasdi. Ko‘zga faqat toshlarning tur-tib chiqqan joylari-yu aql bovar qilmaydigan yerlarda o‘sgan archalarning uchigina ko‘rinardi, xolos. Olga Ismanini qo‘ltiqlab olgandi, Ismani shu damgacha his etmagan huzurni tuya boshladi. Olga har qanday erkakning his-tuyg‘usini uyg‘otishga qodir ayol edi. Ismani tuman va rutubat, daraxtlardan chiqqan yelimlar hidiga omuxta bo‘lib ketgan atir-upalarning yoqimli isini hidlab borardi.

Olga ataylab qilayotgandek indamay borar, u Ismanining birinchi bo‘lib gap boshlashini kutar, uning sarosimaga tushib qolganidan rohatlanardi. Ismani ortiga qarab qo‘ydi: quyuq tumanda mashina deyarli ko‘rinmasdi.

– Olga xonim, – dedi Ismani nihoyat, – bu yerda gapimizni hech kim eshitmaydi. Kechirasiz, tepada –

Markazda nima bilan shug'ullanishlarini bilsam bo'ladimi?

– Professor, – javob qildi hamrohi sho'xchan. – Bir gal meni imtihondan yiqitganingiz yetmaganday, endi ustimdan kulmoqchimisiz?

– Azizam, eringiz qanday ish bilan shug'ullanishi sizga ma'lum-ku, axir.

Ayol xandon otib kulib yubordi.

– Erimmi? Bu sizga ham ma'lum-ku! Professor, agar sizni Markazga yuborishgan bo'lsa, menimcha, siz hamma narsadan xabardor bo'lishingiz kerak, shunday emasmi?

– Albatta, yo'q. Hech narsadan xabarim yo'q, barchasi menga qorong'u.

– Nega endi? So'ramadingizmi?

– Vazirlikda aytmadilar.

– Iya, shunga qaramay, bu yerlarga kelishga rozi bo'ldingizmi?

– Ko'rib turganingizdek. Men bunday sir saqlashlarni yoqtirmayman. Istardimki...

– Men bo'lsam, sizdan kam narsani bilaman.

– Nahotki sizga eringiz hech narsani tushuntirmagan bo'lsa? Mana bu maxfiy Markaz haqida gapirib bermaganmi? Axir biron narsa aytgandir? Hech bo'lmaganda, deylik...

Ismanining qalbida xavotirlik va g'ulg'ula tobora ortib borardi. U go'yo bir bahaybat va dahshatli narsa oldida o'zini ojiz his etayotgandek edi. Urush vaqtida ham xuddi shunga o'xshash holatga tushib qolgandi.

– Eh, nimasini aytasiz, men bir ojiz bandaman, ha, ojiz bandaman! Savolingizga javob berolmaganligim uchun yana imtihondan o'ta olmadim.

– Tavba, bu nima o'zi? Zavodmi?

– Mutlaqo bexabarman. Jankarlo qandaydir bir laboratoriya haqida gapirgan edi.

– Qanday laboratoriya haqida? Kimyoviymi?

Shu top mashina signali eshitildi.

– Professor, bizni chaqirishyapti. Sim-sim ochil, tog'lar keng ochilsin... albatta, bu so'zim ma'qul bo'lsa. Qani, ketdikmi, professor?

Olga qo'lidagi papirosini otib yubordi. Papirosning qizil cho'g'i jarlik tomon uchib, so'ng ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Ular mashina tomon yo'l oldilar. Ayol deyarli yugurgilab borardi.

– Xo'sh, shunday qilib siz menga hech narsa ayt-maysizmi? – so'radi Ismani ayoldan ortda qolmaslikka harakat qilib.

Olga go'yo Ismanining gapini eshitmagandek, jim ketib borardi.

## VIII

Ular manzilga yetay deganda atrofni qorong'ulik bosib, yomg'ir shivalay boshladi. Mashina tog' ichidan o'tkazilgan tunnel yo'ldan ketib bormoqda.

Tunnelning ichi maydon kabi kengayib borardi. Bir vaqt zich yopilgan temir to'siqli to'rtta eshik ko'rindi. Kutilmaganda atrofni zim-ziyo qorong'ulik chulg'adi: shiftdagi lampalar va mashina faralari ham o'chdi.

– Nima bo'lyapti? – sarosimaga tushib so'radi Ismani.

– Qo'rqmang, professor, chiroq bir necha soniyaga o'chdi, xolos, – javob berdi haydovchi.

Qorong'ulikda temir to'siqlarning ko'tarilayotgani eshitildi. To'rt eshikdan bittasi – temir eshik ko'ta-

rilayotgandi chog'i. Shundan so'ng mashina ichidagi asbob-uskunalar ustidagi taxtada yonib turgan qizil yog'duda haydovchi mashinani asta joyidan jildirdi.

Mashina ichkariga kirgach, yopilayotgan temir to'siqning g'ichirlagani eshitildi. Birdan chiroq charaqlab yondi.

Ular tik ko'tarilib borar edilar; endi tunnel aylana shaklda uch darvozali yerosti maydonigacha davom etardi. Bu yerda ham chiroqlar bir zumga o'chib, so'ng yana yondi. Yon-atrofda biron jonzot ko'rinmasdi.

Ismanining taxmini bo'yicha yana to'rt yuz metr yo'l bosdilar. Nihoyat, yop-yorug' yalanglikka chiqib keldilar.

Derazasidan chiroq yog'dusi tushib turgan mo'jazzgina uy ko'rindi. Ismani mashinadan tushishi bilan biron odamni ko'rish maqsadida atrofga alangladi. Biroq nazorat maskaniga olib boradigan yerdan boshqa joy zimistonlik og'ushida edi, shunday bo'lsa-da, qorong'ulik ichidagi bu uyning ikki tomonida balandligi to'rt metr-lar keladigan devorga ko'zi tushdi. Hoynaboy, bu to'siq bo'lsa kerak. Shu tobda ochiq chehra bilan qo'lini sil-kitgancha qirq yoshlar chamasidagi muhandis Jankarlo Strobelening qorasi ko'rindi.

Strobele qaddi-basti kelishgan, aqlli, o'ziga ishongan erkakka o'xshardi. Jankarloning kibr-havo bilan kelishi uni yaqindan tanimagan Ismaniga yoqmadi.

Jankarlo xotini Olgani quchoqlab oldi, so'ng er-xotin Ismanilar bilan ochiq chehrada so'rashdi. So'ngra barchalari sanoat korxonasining dahliziga o'xshash xonaga kirdilar.

Qisqa yo'lakdan o'tishdi. Strobele ularga yo'l ko'rsatib hormoqda edi. Ular yana ko'chaga chiqishdi. Bu yerda ularni uyni aylanib o'tib, yon darvozadan kirib kel-

gan mashina kutib turardi. Bir necha yuz metr uzoqlikda miltillagan chiroqlar yog'dusi ko'zga tashlanar, bu esa o'sha joylarda uylar borligidan dalolat berardi. Yomg'ir tinay demasdi. Qiyalik bo'ylab ko'tarilib borayotgan mashina chiroqlari qorong'ulikda dam qoya toshlarni, dam archalarni, quyuq igna bargli daraxtlarni yoritgancha lampalari yonib turgan uyga yaqinlashib borardi.

– Mana, yetib keldik, – dedi Strobele ko'rinishdan qishloq uyiga o'xshab ketadigan shinam, mo'jazzgina uy oldiga yetib kelganlarida. – Mana shu yerda yashaysizlar. Men anavi yerda yashayman, – dedi u biroz pastda joylashgan uyni ko'rsatib. – Yuqoridagi anavi uyda boshlig'imiz Endriad turadi. Uyning ikkinchi qavatini esa harbiy vazirlikdan kelgan inspektor mayor Mirti egallagan. Marhamat, joylashib olinglar. Biroz sovuqroq. Menimcha, kaminga o't yoqilgan bo'lsa kerak... Ismani xonimga uy ishlarida avval shu yerda Aloizining uy xizmatchisi bo'lgan ajoyib bir qiz qarashadi. Ismani, sen uni taniysan? To'g'rimi?

– Kimni? Aloizinimi?

– Axir uni kim tanimaydi deysan!.. Aloizi bu yerda chamasi o'n yilcha yashadi. Buyuk inson edi u. Uning ixtirolari odamlar qulog'iga hali yetib bormagan, lekin shunday kun keladiki... bechora bundan ikki oy muqaddam vafot etdi.

– Shu yerda vafot etdimi?

– Aloizi ov qilishni xush ko'rardi. Bir o'zi tog'lar-da yolg'iz kezardi. Bir kuni u qaytib kelmadi. Biz uni uch kundan so'ng topdik. Qoyadan qulab tushibdi. Biz uchun bu har tomonlama katta yo'qotish bo'ldi. Bu yerda – Markazda yaratilgan narsalar uchun... – Strobele ma'nodor kulib qo'ydi. – Biz Aloizi oldida qarzdormiz, kamida qilingan ishlarning ellik foizi uchun. Agar bu

ko'ngilsiz voqea to'rt-besh yil avval sodir bo'lganda edi, biz Endriad bilan balki, ishni oxirigacha... balki, uni amalga oshirarmidik...

– Demak, men... – dovdirab dedi Ismani, – demak, men... Meni bu yerga yuborishdan maqsad... Xullas, men uning ishini davom ettirar ekanman-da?

– Yo'q, yo'q. Bunday bo'lmasa kerak. Hech bo'lmaganda siz boshqa odam o'rniga, ya'ni mening o'rnimga...

– Sizning? Nima uchun? Nima, siz ketyapsizmi?

– Hozir emas. Bir yarim, ikki oylardan keyin. Xudoga shukurki, shunday deb atash lozim bo'lsa, menga bog'liq ish nihoyasiga yetdi... U yerda mehmonxona, anavi yerda kichikroq ishlash xonasi, u tomonda yana shunday xona, uning orqasida oshxona joylashgan. Yotoqlar ikkinchi qavatda. Umuman olganda, gapimga ishoninglar, bu uylar yashash uchun qulay qurilgan. Menga yoqmaydigan bir joyi bor, xolos. U ham bo'lsa mehmonxona o'rtasidagi ingliz uslubida yasalgan zina. Ba'zilarining fikricha, yotoqlar qulay qurilmaganmish. To'g'ri, hamma tovush yuqoriga yaxshi eshitiladi. Eshiklar zalvorli. Ular zich yopilsa-da, pastda radio qo'yiladigan bo'lsa, hammasi tepaga eshitiladi. O'ylashimcha, sizlar bir-biringizga xalaqit bermasangiz kerak. Justina ham sizlarni bezovta qilavermaydi. Sizlar uning borligini sezmaydiz ham. U uyda mushuk kabi pusib yuradi... Ana, o'zi ham kelib qoldi.

## IX

Ismani Enriad va uning rafiqasi Strobelening uyida kechki ovqat paytida uchrashdilar.

Ismani qandaydir kongressda u bilan birrov uchrashganini zo'rg'a esladi. Endi esa u mutlaqo boshqa odam-

ga aylangan edi. Basavlat, ko'rkam ko'rinishdagi bu Nobel mukofoti sovrindori o'zini tutib o'tirishidan boshqalardan ustunligi ko'rinib turar, go'yo bashorat-chiga o'xshab ketardi. U palapartish kiyingandi, oq sochlari hurpayib ketgan, burni tanqaygan edi. Ammo nutqi jo'shqin va jonli chiqardi. Ko'rinishdan ellik besh yoshlarda edi. Uning ayoli ham, taxminan, shu yoshlarda bo'lib, kamtar va biroz ma'yus o'tirardi. U erining tamoman aksi edi.

Bunday yorqin va hukmron shaxs oldida Ismani o'zini ojiz his etdi. U biron narsani bilish maqsadida, biroz jur'atliroq bo'lishga qaror qildi. Vazirlikdagi Jakinto, kapitan Vestro, leytenant Trotsdem va nihoyat, Strobele uning bu yerga kelishiga sababchi bo'lgan maxfiy ish haqida birinchi uchrashuvdayoq biron-bir gap aytmaganliklari uning nazdida go'yo unga qarshi qandaydir fitna uyushtirilayotgandek tuyulgan edi.

– Balki, ustimdan kulishingiz mumkindir, – dedi asabiylashgan Ismani hamma stol atrofiga yig'ilgach, garchi u o'zini hamkasblari oldida noqulay his etsa-da: – Men bu yerga go'yo noqonuniy kelib qolgandekman, – dedi.

Strobele. Noqonuniy deyapsizmi? Nima, hujjatlarinigizda muammo bormi?

Ismani. Noqonuniy... Men begonaman... Hali-hanuzgacha hech narsadan xabarim yo'qligini aytmoqchiman. Ha, hech narsadan xabarim yo'q.

Strobele. Siz nimani bilishingiz kerak?

Ismani. Men bu yerda nima ish qilaman? Sizlar nima bilan shug'ullanayotganingizni bilishni xohlardim.

Strobele. Iya, vazirlikda sizga aytishmadimi?

Ismani. Yo'q. Hech narsani aytishmadi.

Strobele. Qiziq bo'ldi-ku! Aql bovar qilmaydi. Axir Jakinto va kompaniya tomonidan ko'rilayotgan bu choralar bema'nilikning o'zginasi emasmi? Tushunaman. Maxfiy ish bo'lsa-da, har bir ishning o'z qonun-qoidasi bor-ku! Ismani, bizga ayting-chi, siz o'zingiz nimani tasavvur qilgansiz? Axir biron-bir narsani taxmin qilgandirsiz. Shunchaki, qiziqish yuzasidan-da?

Ismani. Men dastlab atom bomba haqida o'ylagan edim. Biroq ba'zi bir belgilar...

Endriad. Xudoga shukurki, bu yerda hech qanday atom bomba yo'q. Bu yer xiyla tinchroq, lekin xiyla xavfliroq ham, shunday emasmi, Strobele.

Strobele. Xavfliroq deysizmi? Gapingizga qo'shilmayman.

Eliza Ismani. Ishingizni ochiqchasiga aytmayapsizlar. Balki, biz ayollar sizlarga xalaqit berayotgandirmiz?

Endriad (jonlanib). Ismani xonim, bu holni o'zingizcha qanday tasavvur etyapsiz?

Eliza Ismani. Menmi? Bilmadim. Menda tasavvur ham yo'q.

Endriad. Siz-chi, Strobele xonim?

Olga tortinmay yubkasidagi katta ochilgan qiyiq bo'ylab barmog'ini yurgizarkan, dedi:

– Sizning gapingizdan, aniqrog'i, mavhum gap qilyotganingizdan hech narsani tushunib bo'lmayapti...

Strobele. Olga!

Olga. Nima, men noo'rin gapirdimmi? Axir sizlar bu yerdagi ishga shunday maxfiy tus berayotgan bo'lsangiz, demak, bu jiddiy ish ekan. Dunyoda jiddiy ishdan zarikarli narsaning o'zi yo'q. Ulardan nariroq yursak, yaxshi bo'larmidi? To'g'ri, sizlar aqlli olimlarsiz, ammo

biron-bir jiddiy ishga qo'l ursangiz, juda mijg'ov bo'lib ketasizlar...

Endriad. Siz haqsiz. Lekin umid bor. Biz uning hali qanchalik jiddiyligini bilmaymiz.

U biroz sergak tortdi, ovozi o'zgartirib dedi:

– Yo tavhangdan ketay, bu qanday sel bo'ldi o'zi!

Darhaqiqat, chaqmoq chaqib, to's-to'polon bilan jala yog'ayotgani shundoq eshitilib turardi. Endriad g'ujanak bo'lib oldi.

Olga. Professor, qo'rqmayapsizmi?

Endriad. Ochig'ini aytsam, o'zim ham bilmayman.

Eliza. Siz, to'g'ri javobdan o'zingizni olib qochar ekan siz.

Endriad. Azizam, bu yerda o'ziga xos eksperimental laboratoriya bor. To'g'ri aytyapmanmi, Strobele?

Strobele. Ha, gapingiz to'g'ri.

Endriad. Shu bilan birga bu tepalikda bir narsa... Aqliy qobiliyatlarni ishga soladigan poligonga o'xshash bir narsa... Eng zamonaviy apparaturaga ega bo'lgan o'ziga xos stadion... Strobele, meningcha, aniq ifodaladim, shekilli?

– Bundan anig'i bo'lmaydi.

– Ismani, javobdan qoniqdingizmi?

Hayajonlanganidan bu hazilni tushunmagan Ismani qiziqqonlik bilan:

– Yo'q, men, baribir hech narsani tushunmayapman, – dedi.

Endriad qah-qah urib kulib yubordi.

– Ismani, siz mutlaqo haqsiz. Kechirasiz-u, men hazillashishni yoqtiraman. Ba'zi-ba'zida. Kechiring. Strobele, ularga kerakli narsalarni tushuntirib ber. Axir sen pedagogsan-ku.

Strobele mamnunlik bilan yo'talib qo'ydi.

– Azizim Ismani, siz 36-harbiy zonaning eksperimental sektorida turibsiz, garchi aniq bo'lmasa-da, uning nomi shunday...

Olga pichoq bilan finjon chetiga uch marotaba urib qo'ydi. U asabiylashgan ko'rinardi (balki, bu uning navbatdagi qilg'idan biridir). Oraga jimlik cho'kdi.

– Kechirasizlar, – dedi Olga ensasi qotibroq. – Odobsizlik bo'lsa-da, lekin men uy bekasi ekanligimni sizlarga eslatib qo'ymoqchiman.

– Nimani eslatmoqchisan? – uyalib so'radi eri.

– Sizlardan iltimos qilaman...

– Nahotki, – uning gapini bo'ldi go'yo biron narsa qidirayotgandek o'z kastumini ko'zdan kechiraturib Endriad, – nahotki, men biron-bir nojo'ya gap aytgan yoki nojo'ya ish qilgan bo'lsam?

– Men faqat sizlardan bir narsani iltimos qilmoqchiman: gap mavzusini o'zgartirsangiz.

– Lekin nima uchun? – dedi Strobele ma'ruza o'qib rohatlanish imkoniyati qo'ldan chiqayotganidan norozi bo'lib.

– Nimaga deyapsanmi? Buni senga keyinroq tushuntiraman.

– Juda g'alati gapni aytding-da...

– Hechqisi yo'q. Aftingni burishtirma.

– Strobele xonim! – dedi Ismani xuddi igna ustida o'tirgandek. – Yashirmayman, men juda istardimki...

– Bu yerdagi Markazda nima bilan shug'ullanishimiz va shu bilan bog'liq boshqa narsalarni bilmoqchi edingiz-a, hurmatli professor? Nimaga hayajonlanasiz? Axir siz do'stlaringiz orasidasiz-ku!

– Men shuning uchun ham...

– Demak, siz uchun men yon berishim kerak, shundaymi? Aynan sizga-ya? Nima, esingizdan chiqdimi, qarz oldingizmi, vaqtida to'lamoq lozim. Men ham nihoyat, qarzni to'lashingizni talab qilishga haqqim bor.

– Yo xudoyim, men o'ylagan edimki, shuncha yildan keyin, – hazilni unutgan Ismani g'o'ldirab qo'ydi. Kutilmaganda ziyrak tortib: – Bu nima? Eshityapsizlarmi? – dedi vahimaga tushib.

– Yomg'ir yog'yapti. O'shaning ovozi.

– Nazarimda, jom chalinayotgandek tuyuldi.

– Jom deysizmi? – dedi Endriad kinoya bilan. – Bu yerda chalinadigan jomlar yo'q.

Bu go'yo uzoqdagi g'or ichida kattagina yupqa tunukaning daranglaganiga o'xshash ovoz edi.

– Men ham eshityapman, – dedi Eliza Ismani.

Ular bu ovozga bir necha soniya diqqat bilan quloq solgancha jim o'tirdilar. Ovoz tindi.

– Qiziq! – dedi Strobele. – Men hech qanday ovozni eshitmadim.

Endriad Ismanidan so'radi:

– Siz Aloizini tanirmidingiz?

– Yo'q.

– Uning aytishi bo'yicha tunlarda... – Endriad ziyrak tortib jim bo'lib qoldi, so'ng yengil tortgandek Ismani xonim tomonga o'girildi-da, jilmayib, hamma eshitadigan ovozda uning qulog'iga shivirladi:

– U ham daho edi.

– U ham daho edimi? – masxaraomuz so'radi Olga.

– Albatta, – javob qildi Endriad go'yo gap mutlaqo tabiiy bir narsa haqida ketayotgandek. – U ham tunlari qulog'iga g'alati tovushlar eshivilishi haqida gapirgandi. Uning gapiga ishonmasdim, men hech qachon miyaga

o'tirib qolgan g'oyalarga ishonmayman. Mana, hozir sizlar ham qandaydir tovushni eshityapsizlar, ammo bunga ishonmayman. Bu yerda hech qanday jom yo'q. Hoynahoy, bu balandlikda ob-havoning keskin o'zgarishidan quloqqa chalinadigan ovoz bo'lsa kerak, Ismani... Shunga qaramay, – uning ovozi kutilmaganda keskinlashdi, – shunga qaramay biz hushyor bo'lishga majburmiz. Avvallari men uncha tashvishlanmas edim; qo'riqchilar bor, nazorat kuchli, kuzatish apparatlari-ning eng zamonaviysi shu yerga o'rnatilgan derdim, lekin ular qayerdadir, yon-atrofimizda kecha-yu kunduzi xuddi sichqon kabi yerga solingan paloslarni kemirayotgandek bo'ladilar. Hamma ham vazirliklardagidek o'ylamaydi-ku, ularning fikricha, biz bu yerda go'yo o'yinchoq o'ynayotgan tekintomoqlarmiz. Ba'zilar esa endi-endi tushunib yetgandeklar. Mana endi hamma narsaga jon deb rozi bo'lishyapti. Faqat yo'qqa chiqar-masalar bas, bizning...

– Bizning qurilmamizni, – gapga aralashdi Strobele.

– Biz yaratgan qurilma faqat biz uchchovimizga, ertaga siz bilan birga to'rttovimizga ma'lum bo'ladi, hali dunyoda hech kim bu haqda hech narsa bilmaydi, lekin ular ba'zi bir narsalarni fahmlagan bo'lishlari mumkin, hozir ular bosh qotirib o'tiribdilar. Bishimni garovga qo'yib aytamanki, dahshatli haqiqatni umumiy ko'rinishda bo'lsa ham tushunib yetganlar: agar biz bu yerda o'ylagan ishimizni amalga oshira olsak, unda biz... – u shunday deya stolni zarb bilan urgan edi, stol ustidagi likopchalar zirillab ketdi.

– Endriad! – dedi Strobele uni tartibga chaqirib.

– Ko'rasizlar, biz albatta dunyoga hukmron bo'lamiz!

## X

Tun yarimlaganda holdan toygan Ermann va Eliza Ismanilar Strobele bilan xayrlashib, jala ostida uylari tomon yayov yo'lga tushdilar. Ularni biroz narida istiqomat qiluvchi Endriad rafiqasi bilan kuzatib bordi.

Justina uy ishlarini saranjomlagach, uyquga yotdi. Uzoq yo'l charchatgan bo'lsa-da, negadir Ermanning uyqusi qochib ketdi. G'alati joy, bu yerdagi yangi oshnalar va hamma narsadan tezroq xabardor bo'lish istagi, hamda siyraklashgan tog' havosi uning yuragiga g'ulg'ula solib qo'ygandi. Yurakni zirqiratuvcchi dilxiralik o'rniga tanasiga quvonch bag'ishlovchi yengillikni his eta boshladi, qiziq, bunday holatga u kamdan kam hollarda tushardi. Ismanida shu tobda qayergadir borish, kim bilandir ko'ngil yozish istagi tug'ildi.

— Eliza, kechki payt chamamda kayfiyating ko'tarildi-yov, — so'radi u xotinidan.

— To'g'ri aytasan, Ermann, kayfiyatim chog'. Bu tog' havosining ta'siri bo'lsa, ajab emas. Tavba, o'zimni xuddi yosh qizaloqlardek his etyapman-a.

Qishloq uslubida qurilgan uy shinam va ozoda edi. Aftidan, bu yerda hech kimsa yashamagandi. Ismani xonani sinchkovlik bilan ko'zdan kechira boshladi, bu yerda Aloizi yashaganidan nishona berguvchi bironta ham belgini topolmadi. Javonni to'ldirib turgan kitoblar ham hech kim qo'l tekkizmagandek bir tekisda turardi. Ushbu kitoblar, asosan, elektrofizikaga oid turli tillarda chop etilgan ilmiy asarlar edi. Aftidan, ular bu yerga tasodifan keltirilgan edi. Sarguzasht asarlar, sevgi-muhabbat haqidagi hamda tarixiy romanlar va tarjimai hol-lar aralash-quralash qilib terilib qo'yilgan edi; bu yerda

hatto oshpazlikka oid kitob ham bor ekan. Kitoblarning bu taxlit taxlanishi hech bir dahoning kutubxonasida bo'lmasa kerak.

Aloiziga taalluqli barcha anjomlar bu xonadan olib chiqib ketilgandi. Bu uyda marhumni eslatuvchi na biron bir qog'oz, na mayda-chuyda buyum, na surat, na sigaret qutichasi – xullas, hech narsa ko'zga tashlanmasdi.

Qorong'ulikda mijja qoqmaydigan Ismani nihoyat xobgohiga ko'tarilgach, derazalarning tabaqalarini ko'zdan kechira boshladi. Xuddi bilganday derazaning bir tabaqasi zich yopilmagan ekan. U ana shu deraza tabaqasini ochib yubordi.

Ismani hayratdan dong qotib qoldi. Bir necha daqiqa o'tar-o'tmas osmondagi bulutlar asta-sekin tarqay boshladi. To'lin oy jamoli ko'rindi-yu, yon-atrofni o'z yog'dusi ila nurafshon eta boshladi.

– Eliza, bu yoqqa qaragin-a! Mo'jiza!

Ular sukut saqlagancha qimir etmay deraza oldida turib qoldilar. Qarshilarida sehrli yog'du taralib turgan tepalik namoyon edi. U yerda do'ngliklar, o'ydinchuqur yerlar bo'lib, uning ustini yam-yashil o'tlar qoplab olgandi, to'q rangdagi archalar qora dog' kabi ko'zga tashlanardi. Ammo besh yuz metrlik uzoqlikdagi daraxtlar orasidan oqish tusli inshoot yaqqol ko'rinib turardi. Tashqaridan qaraganda, bu oddiy devormi yoki biron-bir binomi, bilib bo'lmardi.

– Manavi buyuk sirli inshoot, – dedi Eliza. – Ko'rinishi oddiygina.

– Yur, borib ko'ramiz?

– Yarim tunda-ya!

– Tunning go'zalligini qaragin-a!

– O't-o'lanlar hali selgimagandir.

– Bu tufligingda oyog'ingdan suv o'tib, shamollab qolasan.

– Axboroting uchun – tufligimdan suv o'tmaydi.

– Hech bo'lmasa yetkangga yomg'irpo'shingni tashlab ol.

Er-xotin Ismanilar oyning munavvar yog'dusi ostida tashqariga chiqishdi. Yomg'ir chinnidek qilib yuvgan narsalar ko'zga tashlanardi. Har qadam tashlaganlarida, ufq tobora kengayib bormoqda edi. Uzoqda keng yaylov yastanib yotar, o'rmon esa shundoq yonlarida shovullab turardi.

Uning ortida esa yaltiroq tog' tizmalari ko'kka bo'y cho'zgan. Butun borliqda osudalik, go'zallik, sirli tun hukmron.

Nihoyat, oq inshoot yaqqol ko'zga tashlandi. Bir qarashda u uzun mudofaa inshootiga o'xshab ketardi, joylashuvidagi kirdi-chiqdi joylarini inobatga olmaganda, buning nihoyasi yo'qdek ko'rinardi. Bir necha pastakkina uy qator saf tortgan, ular go'yo tekis yerga moslab tiklanganday. Uzoqdan bir-birining ustidan garchi oyning yorqin shu'lasini tushib turgan bo'lsa-da, bu qurilmalar orasida biron yoriq joy ko'rinmasdi. Ular qadimgi – harbiy muhandislik istehkomlarini eslatuvchi uzluksiz bir devorni hosil qilgan.

Er-xotin Ismanilar oy shu'lasini yoritib turgan devor tagiga borgach, yuqoriga qaradilar. Devorning balandligi yetti-sakkiz metrlik chamasi bo'lib, hech qanday deraza yoki ayvon ko'rinmasdi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda hech kim yashamas, hatto ishlamasdi ham. Bu yerda havo va yorug'likka muhtoj bo'lmagan narsa, masalan, mashina tursa kerak. Yoki bu qandaydir muhim istehkom bo'lishi ham mumkin.

Biroq bu uzundan uzun mudofaa inshootini yoki sa-royni eslatuvchi g'alati joy qandaydir jonsiz buyumlar turadigan joyga o'xshamasdi.

Ermann va Eliza Ismanilar bir qarashdayoq qurilmada daf'atan ko'zga tashlanmaydigan yumaloq, to'rt-burchak yoki ingichka tirqish shakldagi xilma-xil tuyenuklar borligini fahmlashdi. Ba'zi joylarida dumaloq, qabariq linza yoki ko'z gavhariga o'xshash shishalar ham bor edi. Ular oy nuridan yalt-yult qilardi. Ular devor tepasiga qaragan edilar, devorning bir chekkasida o'rnatilgan qator antennalar, ekranlar, botiq panjaralar, shuningdek, ustiga qalpoqcha kiygizilgan ingichka naychalar ko'rindi. Chang tozalagich cho'tkani eslatuvchi yol ham bor edi. Ular havo rang – jilosiz bo'lgani uchun ham qorong'ulikda darhol ko'zga tashlanmasdi.

Er-xotin Ismanilar tun og'ushida miq etmay uylardan ko'z uzmay turishardi. Nimadir quloqqa chalingandek bo'ldi.

– Eshityapsanmi? – so'radi Ermann.

– Ha, eshityapman. – javob qaytardi Ismani xonim.

Oq devor ortidan juda ham past shitirlash ovozi kelardi, bu go'yo buzilgan inidan qochib, turli tomonga tarqab ketayotgan chumolilardan chiqqan ovozga o'xshab ketardi. Bunga uzuq-yuluq qisqa shovqinlar, kuchli hosimda otilgan suyuqlikning shovullagan ovozi, chekka tomirning bir maromdagi lo'qillashiga o'xshash yana bir ovoz qo'shilib ketmoqda edi. Demak, bu sirli qo'rg'on ostida qandaydir hayot qaynamoqda. Yuqoridagi katta-kichik qator antennalar bekor turgani yo'q. Diqqat bilan qaralsa, antennalarning bilinar-bilinmas tebranishlaridan ovoz chiqayotganini bemalol payqash mumkin edi.

– Bu nima ekan? – asta so‘radi Eliza Ismani.

Eri unga „jim bo‘t“ degan ishorani qildi. Shu payt devordan ellik metrlar narida nimadir yilt etgandek bo‘ldi. Endriadning xayolidan: „Biz butun dunyoni zabt etamiz“, degan bema‘ni o‘y kechdi.

Birdan Ismanining ko‘zi Endriadga tushdi. Tepalikdagi o‘t bosgan qiyalikdan devor yoqalab go‘yo aqldan ozgandek o‘zi bilan o‘zi gaplashib olim kelayotgandi. U yolg‘iz edi. Keng gardishli shlapada u kulguli holatda, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib kelardi.

Devor ortidan eshitilayotgan elas-elas shovqinni inobatga olmaganda, yon-atrofda sirli sukunat hukmron edi. Er-xotin Ismanilarning qulog‘iga Endriadning o‘zi bilan o‘zi so‘zlashayotgan bir necha so‘zlari eshitila boshladi.

– Mumkin, mumkin, – derdi o‘ziga o‘zi Endriad. – Ammo bizlarni bu...

So‘ng Ismanilar qiziq voqeaga guvoh bo‘ldilar. Endriad yurishdan to‘xtab, devor tomon o‘girildi. Ismani, u hoynahoy „yozilib olsa kerak“, degan xayolga bordi. Lekin Endriad o‘sha-o‘sha so‘zlagancha, farzandiga nasihat qilayotgan otadek hassasini devorga asta urib-urib qo‘yardi. Uning uzuq-yuluq gaplari quloqqa chalindi. Endriad „tushunmayman“, deb uch-to‘rt marotaba takrorladi.

Ismani yashirincha gapiga quloq solish odobdan emas, degan o‘yda o‘zining shu yerda ekanini bildirish uchun yo‘talib qo‘ydi.

Endriadni go‘yo bir narsa chaqib olgandek, keskin ortiga burilib: „Kim bor bu yerda? – dedi qo‘rqqanidan qichqirib. Muyulishdan Ismaniga qarab hassasini o‘qtal-di, oy shu‘lasida uning qo‘lidagi hassa emas, miltiq ekanini ma‘lum bo‘ldi.

– Professor, bu men, Ismaniman... Ayolim bilan sayrga chiqqandik...

Endriad qo'lidagi qurolini tushirib, ularning yoniga kela boshladi.

– Bilasizmi, har oqshom uyquga yotish oldidan bu yerlarni tekshirib chiqaman... Albatta, yonimda qurol bo'ladi. Bu ajoyib qurolni menga mayor Mirti taqdim etgan. Amerikaniki. Aniq nishonga oladi.

– Noxush holatlar ham bo'lganmi?

– Xudoga shukur, hozircha bo'lgani yo'q. Atrofni aylanaman, nazorat qilaman, xayol suraman, o'zim bilan o'zim gaplashaman... – u qadam bosishga hozirlanayotgandek biroz so'zlashdan to'xtadi. – Ha, o'zim bilan o'zim gaplashaman... rejalar tuzaman. Rostini aytsam, sizlar meni qo'rqitib yubordinglar... – deya xoxolab kulib qo'ydi u. So'ngra mudofaa inshootini ko'rsatib, dedi: – Bu haqda esa ertaga gaplashamiz. Men sizlarni uning ichkarisiga olib kirib, hammasini ko'rsataman. Bu ishni kunduz kuni qilganimiz ma'qul. Chunki tunda... Tunda bunaqa tog'li joylarda o'zimizni tiyganimiz durust.

– Nima, tunda bu yerlar sovuq bo'ladimi? – so'radi Ismani.

– Sovuq ham bo'ladi, keyin boshqa narsalar ham...

Er-xotin Ismanilar Endriad bilan birgalikda uylariga yetib kelgach, u bilan xayrlashdilar. Ular ostonada turgancha Endriadning maysazordan shaxdam qadamlar tashlab ketayotganini tomosha qilib turardilar.

– Ermann, – dedi Eliza. – U kim bilan gaplashdi ekan-a?

– Hech kim bilan. O'zi bilan o'zi gaplashdi. Ko'plar o'zi bilan o'zi gaplashadi.

– U yerda kimdir bor edi. Ha, rost aytyapman, u yerda kimdir bor edi.

– Agar u yerda biron kimsa bo'lganida, biz uni ko'rgan bo'lardik.

– Men bilaman, u yerda kimdir bor edi. Kimningdir ovozi eshitgandek bo'ldim.

– Ovozini? Ammo men eshitganim yo'q.

– Ha, ovoz eshitildi. Faqat u g'alati ovoz edi. Siz shunchaki e'tibor bermagansiz-da.

– Eh, Eliza, tilim bor deb gapiravermasang-chi.

## XI

Endriad, Strobele va Ismani xotini bilan qurilmani ko'rishga ketayotganlarida quyosh tikkaga kelib qolgandi. Havo ochiq, har tomondan ko'zga tashlanib turgan viqorli tog'larni qoplagan oppoq qor oftobda ya-raqlardi.

Ular yaylovdan o'tib, hududning tevaragi pastak devor bilan qurshalgan joyiga yaqinlasha boshladilar. Temir eshik oldida ularni katta texnik Manunta kutib oldi.

Manunta eshikni ochgach, hammalari tor va xira yoritilgan yo'lak bo'ylab yurib ketdilar. Manunta boshqa eshikni ochgan edi, ular ochiq ayvonga – yorug'likka chiqishdi.

Er-xotin Ismanilar va Olga hayratdan tillari kalimaga kelmay bir necha daqiqa so'zsiz turib qolishdi.

Qarshilarida tik, tubi ko'rinmaydigan darasimon chuqurlik paydo bo'lgandi.

Hoynahoy, bir vaqtlar uning tubidan suvlar to'lib oqqandir, endilikda esa devorning yuqorisigacha bir-

birining ustiga mindirib terib chiqilgan g'alati qurilmalar tagida chuqurlik devorlari ko'rinmay ketgandi.

Minoralarga o'xshab qurib tashlangan inshootlarning ba'zilari Misr ehromlarini esga solardi. Ba'zilari ko'priikka, yana birlari mudofaa inshootiga yoki kichik ko'prikkalarga o'xshab ketardi. Go'yo butun bir shahar shu chuqurlikka qulab tushgandek. Inshootlar chindan kishi aqlini lol qoldirardi. Ularning birontasida ham deraza bo'lmay, eshiklar zich holatda yopilgandi.

Ular yana g'aroyib bir ko'rinishning guvohi bo'ldilar. Eng ajablanarlisi, bu yerda tirik jondan nom-nishon ko'rinmasdi.

Shunga qaramay, bu joylar negadir tashlandiqqa ham o'xshamasdi. Aksincha, tashqaridan qaraganda hayot asari qurigan bu joyda pinhoniylar hayot jo'sh urib turganligi sezilardi. Bu yerda nimalardir sodir bo'layotgandek edi. Buni qay yo'sinda bilib olish mumkin deysizmi? Balki, turli shakldagi temir uzatgichlarning harakatga kelib turganidandir. Yoki uzuq-yuluq eshitilayotgan shitirlash, guvullash, gumburlash kabi ovozlarning o'sha hayotdan dalolat berar. Balki, dara chetidagi panjara uzra qad ko'targan temir antenaning tebranib turishidir.

Ustiga-ustak, hularning barchasi kamdan kam uchraydigan manzarani ko'z oldingizda namoyon etadi. Bu manzaraning go'zalligini ta'riflashga til ojiz. Aksincha, bular ehromlarga, harbiy istehkomlarga, neft haydash qurilmalariga, bino isitgichlariga, qorong'u qamoqxonalarga sira o'xshamasdi. Tartibsiz holatda qurib tashlangan bu minoralar, saroylar negadir inson qalbiga farah bag'ishlardir, unda go'yo dengiz bo'yidagi sharq shaharlariga xos dilga rohat bag'ishlovchi bir tuyg'u va yengillik mujassam edi. Bular nimani eslatadi dey-

sizmi? Ismanining ko'z o'ngida tanish manzara namoyon bo'ldi go'yo. Uning xayolidan bog'lar-u daryolar, hatto tabiat manzarasi tikilgan kashtalar ham, hattoki dengiz va o'rmonlar birin-sirin o'ta boshladi. Ismanining ko'nglida ham unga tinchlik bermayotgan qandaydir xavotirlik bor edi.

Sukunatni Olga Strobele buzdi:

– Xo'sh, – dedi u quvnoq ohangda. – Bu nima ekan? Elektrostansiyami?

– Balli, – dedi eri Olgani uning ishiga qiziqishidan mamnun bo'lib. Olga erining ishiga sira qiziqmasdi. Shu gapni xotiniga aytdi-yu, so'ng Ismani tomon o'girilib:

– Endi tushungandirsiz, – dedi.

– Balki, balki... – javob berdi ikkilanib Ismani.

U hayajonda edi. Xotini miq etmay turardi. Biroz narida esa tutqichga suyangan holda bor boyligini tomosha qilayotgandek Endriad qimir etmay turardi; u go'yo tush ko'rayotganga o'xshardi.

Olga Strobele. Xo'sh. Bu nima ekan o'zi? Bilsa bo'ladimi?

Olganing jozibador va shu bilan birga kishi g'ashiga teguvchi oq shoyi ko'ylagi butun qomatini ko'z-ko'z qilib turardi. Ko'ylagining o'mizi har qanday erkakning e'tiborini tortar, o'miz odatdagidan chuqur bo'lganidan, u har bir harakatida ehtiyot bo'lishi taqozo etilardi.

– Olga, – deb nasihatomuz gap boshladi eri, – sen ko'rib turgan qo'ng'iroqli qo'rg'on yoki minora, – u o'ng qo'li bilan antennani ko'rsatdi, – bu dunyodan ajrab qolgan kichik yopiq saltanatdir.

Uning gapi og'zida qoldi. Bir gala qushlar chug'ur-lashgancha antenna tepasidagi temir shar atrofida ucha boshladilar; qushlar shar ustiga qo'nmoqchi bo'lgan edi.

biroq qandaydir xavf borligini sezib, boshqa tomonga uchib ketdilar.

– Bir soʻz bilan aytganda, – tabassum bilan javob qildi Strobele. – Bizning oʻn yillik mehnatimizdan soʻng qad koʻtargan bu inshoot, aslida bizning qarindoshimiz, joni-jahonimiz boʻladi, u – tirik odam.

– Qani oʻsha tirik odam? – soʻradi Olga.

– Mana shu – tirik odam-da. Bu mashina bizga oʻxshab yaratilgan mashina.

– Xoʻsh, uning boshi qani? Qoʻli? Oyogʻi-chi?

– Uning hech qanaqa qoʻl yoki oyogʻi yoʻq, – dedi Strobele afti bujmayib.

– Uning tashqi koʻrinishi ahamiyatli emas. Gap boshqa yoqda. Axir harakatlanib „dada, oyi“ deb ayta oladigan qoʻgʻirchoqni, oddiy robotni har qanday qoʻgʻirchoq ustasi yasashi mumkin edi, ammo bizga kerak boʻlgani, tushunasanmi... bizga mana bu yerda sodir boʻladigan jarayonlarni qayta aks ettira oladigan qurilma kerak edi, – deya u koʻrsatkich barmogʻi bilan peshonasini koʻrsatdi.

– E, ha... Elektron miya! Men gazetada oʻqigan edim.

– Yaxshilab qaragin-a! – qizishib dedi eri. – Bu shunchaki elektron miya yoki hisoblash mashinasi emas. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, u hisoblashni biladi, bu u qodir boʻlgan ishlardan bittasi, xolos. Biz yanayam, koʻproq maqsadimizga erishdik. Biz bu ajoyibotni fikrlashga, fikrlaganda ham bizdan yaxshiroq fikrlashga oʻrgatdik.

– Bizlar kabi yashashga ham oʻrgatdik, – dedi shu paytgacha indamay turgan Endriad.

– Yashashga deysizmi? Axir u qimirlamaydi-ku? Qoqqan qoziqday bir joydan qoʻzgʻalmay turibdi.

– Azizam, – dedi Strobele. – Xo'sh, qimirlamay turgan bo'lsa, nima qilibdi? Insonni ham qimirlay olmaydigan darajada yerga parchinlab qo'ysang, u inson bo'lmay qoladimi?

– Nega bunchalar bahaybat qilib qurmasangiz buni? Bu odam emas, balki butun bir shahar-ku.

– Tag'inam mo'ljal qilganimizdan ancha kichik. Dastlabki loyiha bo'yicha asbob-uskunalar majmuasi Parijga teng ketadigan maydonda qurilishi mo'ljallangan edi. Ammo biz mo'jiza yaratdik. Qarang-a, ko'z o'ngimizda uning arzimasi qismi ko'rinib turibdi, qolgan asosiy qismi yer tagida. Bu juda bahaybat qurilma. Yaratilgan bu „odam“ haddan tashqari semiz bo'lib chiqdi...

Olga. U bilan gaplashsa bo'ladimi?

Olga g'alati kulib qo'ydi.

– Sinab ko'rishimiz mumkin. Buning ahamiyati yo'q bizga. Biz, masalan, yorug'likka, tovushga, rangga, harakatga javob beradigan va o'zlarini aqlli tuta oladigan robotlarga o'rganib qolganmiz. Bu yerda biz undan ham ko'ra ortiqroq bir narsa yaratdik. Avvalo bu besh hissiyotdir. Bizning robot sening tiling bilan aytganda, ko'ra oladi, eshita oladi va tashqi taassurotni sezadi ham.

– Ta'mni-chi, ta'mni ham sezadimi? – so'radi Ismani.

– Ha, sezadi.

– His qila oladi hammi?

– His qila oladi ham. Manavi yollarni ko'ryapsanmi? Antennalarni-chi? Ular narsani teginish orqali sezadi.

Ismani. Agar men to'g'ri tushungan bo'lsam, sizlar bu mahsulotga, qurilmaga yoki uni qanday deb atash mumkinligini bilmadim... shaxsning ayrim fazilatlarini berishga harakat qilganga o'xshaysizlar.

– Ba’zi bir o’ziga xosliklarni desak, to’g’ri bo’lar-  
di, – dedi Strobele.

– U ayolmi yoki erkakmi? – so’radi Olga. – Garov  
o’ynayman, bu...

Strobele yosh boladek qizarib ketdi.

– Bu unchalik muhim emas. E-e-e. Qaysi jinsga  
mansubligi biz uchun...

Ismani. Sizlar bu yerda nimadandir andoza olding-  
larmi? Insonga o’xshatishga harakat qildinglarmi?

Mayda pag’a-pag’a oq bulutlar shimol tomon suz-  
moqda edi. Ana shu bulutlar soyasi chuqurlikdagi ba-  
haybat qurilma ustiga tushib borar va bu qandaydir bir  
ajoyib ko’rinish kasb etgandi.

– Ochig’ini aytsam, – dedi Strobele, – men nima de-  
sam ekan-a...

– Hoynahoy, o’zlaringizga o’xshatib qurgan bo’lsan-  
giz kerak, – dedi Olga. – Siz olimlar doim o’zingizni  
daho deb hisoblaysizlar-ku.

– Bizmi? Bunga javobni Endriad beradi.

Shu paytgacha zina tutqichidan ushlab turgan Endri-  
ad bu gapni eshitib, cho’chib tushdi.

– Menmi? – dedi to’satdan uyqudan uyg’ongan odam-  
dek. – Kechirasizlar. Men borib ko’rib kelishim kerak...

U jarlik ustida osilib turgan tor shiypon bo’ylab yu-  
rib ketdi-da, so’ng ko’zdan g’oyib bo’ldi.

– Unga nima bo’ldi? Kayfiyati buzildimi? – so’radi  
Olga nim tabassum qilib turgan Manuntadan.

– Yo’q, yo’q, – dedi quvnoqlik bilan to’ladan kelgan  
xushchaqchaq katta texnik, – u o’zini doimo shunday  
g’alati tutadi. U katta olim-da...

– U istarasi issiq odam ekan, – go’yo Olganing iqro-  
rini kutgandek dedi Eliza Ismani.

– Nimasini aytasiz, – dedi Olga. – Ko‘rar ko‘zga shunaqa, aslida uchraganni dog‘da qoldirib, yanchib ketadi.

## XII

Strobele barchaning diqqatini o‘ziga tortish uchun yo‘talib qo‘ydi.

– Endi qurilma idrokini tekshirish uchun kichik sensor tajriba o‘tkazish mumkin.

– Uni chaqirsak, eshitadimi? Javob berarmikan?

– Olga, sen yana o‘z bilganingdan qolmay, qayoqdagi bema‘ni savollarni beryapsan-a, – dedi Strobele. – Bizdan farqli o‘laroq, muammoga sen butunlay boshqa tarafdin yondashyapsan! Javob beradimi, bermaydimi, buning bizga farqi yo‘q. Uning vazifasi harakat qilish emas, balki o‘ylashdan iborat.

– Lekin u bizning gapimizni tushunadimi, deb so‘rayapman.

– To‘g‘risini aytadigan bo‘lsam, bu savolingga javob bera olmayman. Texnik nuqtayi nazardan u tushunmasligi mumkin. Biroq... biroq biz bu mashinada bizning aqlimiz yetmagan joylar ham mavjudligini aytgan edik... Men ajablanmayman, agar...

– Unga nima deb ism qo‘ygansizlar?

– Istagan nom bilan atasa bo‘ladi. Hujjatda uning nomi Birinchi Raqam. Men uni „Do‘stim“ deb atayman. Manunta esa „Oyimgiz“ deydi. Endriad esa oddiygina qilib uni mashina deb ataydi.

– Mashina?

– Ha, mashina. Kayfiyatimiz chog‘ bo‘lgan vaqtda esa qizlarning nomi bilan chaqiradi.

– Qizlarning nomi? Qaysi nom bilan?

– Har xil nomlar bilan. Hozir yodimda yo‘q.

Hamma bir tomonga o'girildi. Shiypon muyulishi-da g'oyib bo'lgan Endriad oradan ancha vaqt o'tgach, qo'rg'onning bir qanotini egallab turgan uzun shiypon tepasida paydo bo'ldi. U to'xtadi-da, temir tutqichni ushlab, biroz engashgancha kim bilandir gaplashgandek bo'ldi.

– U kim bilan gaplashyapti?

Strobele, Hoynahoy, o'zi bilan o'zi gaplashayotgan bo'lsa kerak. Bu uning eski odati.

– E-ha, o'zi bilan o'zi gaplashishi rost ekan-da, – dedi Eliza Ismani, – Biz bunday holatga kecha oqshom guvoh bo'lgandik. To'tin oy yog'dusida sayrga chiqib, uni uchratib qoldik. Avvaliga biz biroz cho'chidik ham. U gapirib kelardi, gapirgandayam baland ovozda gapirardi.

– Kechirasiz, – uning gapini bo'ldi Olga. – Jankarlo, bu mashina gapiradimi?

– Oddiygina qilib aytganda, yo'q, u gapira olmaydi. U til bilmaydi. Bunga ishonchimiz komil.

– Unga til o'rgatish mutlaqo mumkin emas. Til – teran aqlning ashaddiy dushmani. O'z fikrini nima bo'lsa ham til orqali ifoda etishga intilgan insonning boshiga juda ko'p kulfat tushgan...

– Bundan chiqdi, „do'stingiz“ soqov ekan-da?

– Manunta, sen tushuntirgin, – deya Strobele katta texnikdan iltimos qildi. – Xo'sh, ayt-chi, bizning „do'stimiz“ soqovmi?

– E-e, professor, – Manunta muloyimlik bilan barmog'ini nuqib po'pisa qilib qo'ydi. – Siz ustimizdan kulyapsiz-ku, barchasini bizdan yaxshi tushunib turib-siz... Mana hozir ham... – u barmog'ini labiga bosib, jim bo'linglar, degandek ishora qildi. Hamma jim bo'ldi.

---

Shu tob suvning shildirashiga yo mungli g'ichirlashga yoki bo'g'iq nolaga o'xshash g'ayritabiiy bir tovush eshitildi. U dam kuchayib, dam pasaygan yig'i ovozi-ga o'xshab ketardi. Borgan sari turli tovushlar bir-bi-riga qo'shilib, kishi g'ashini keltiradigan g'ijirlashga aylandi. Bu nima o'zi? Ovozmi? Yoki apparatlarning yoqimsiz shovqinimi? Yoki qandaydir xabar kelyapti-mikin-a? Yoki qurilma fikrlay boshladimi? Balki, bu kulgu ovozidir?

– Shunaqami? – so'radi Strobele katta texnikdan.

Manunta bosh chayqadi.

– Sen hammasini bilasan-a? Eshitishimcha, sen bu tilni ona tilingdek bilarmishsan. Qani, tarjima qilib ber-chi! U nima deyapti?

Manunta o'zini oqlay boshladi.

– Men kim bo'pman? Men nimaniyam tushunardim? Axir men o'shanda hazillashgan edim... Mana, profes-sor Endriaddan so'rasangiz, bu boshqa gap...

Manuntaning bu gapidan Strobelening ensasi qotib, afti burishdi.

– Sizlar!.. Sizlar tentaksizlar! Sen va sening noyob Endriading ham. Sizlarning gapingizni eshitgan odam... – deb Strobele xotini tomon o'girildi: – O'ylaymanki, sen buning gapiga ishonmaysan. Bular ashob-uskunalar: klapanlar, selektorlar, orqaga qaytarguvchi mexanizmlar. O'z-o'zidan ma'lumki, ular ishlaganda shovqin chiqa-radi, xolos.

– Kechirasiz, bu-chi? – so'radi Eliza Ismani.

– Nimani aytyapsiz? – so'radi Strobele.

– Siz eshityapsizmi?

Ingichka ovoz birdan tinchib qoldi.

Bahaybat qurilma joylashgan chuqurlik ustida yana

sokinlik hukm sura boshladi. Ammo buni sokinlik deb bo'larmikan?

E'tibor qilmasangiz, haqiqatan ham, buni sokinlik desa bo'ladi. So'ng asta-sekin mana shu sokinlik ichra bilinar-bilinmas aks sado eshitila boshladi. Go'yo mashinalar majmuasidan, dahshatli daradan hayot sadolari, g'alati tebranish, anglab bo'lmas nurlanish taralayotgandek edi. Bu aralash-quralash tovushni eshitib o'rganmagan quloq darhol ilg'ab ololmasdi va uning aslida mavjudligiga ham ishonib bo'lmasdi. Tovush dengizdagi suvlarning to'lqinlanishiga ham o'xshab ketardi. Uni shamolning guvullashi deysizmi, atmosfera harakati deysizmi, baribir. Chunki dunyoda hali shu vaqtgacha tog'-toshlar, istehkomlar, labirintlar, qal'a va o'rmonlar qo'shilib ketib, son-sanoqsiz shakldagi aralash-quralash bu tovushlarni bosib ketolmagandi.

Bu qorishiq tovushlar shovqin yoki nafas olishdan farqli o'laroq ko'zga ko'rinmas butun vaqt oqimi davomida sezilib turar edi, u go'yo barcha inshootlar iskanjasida o'z vaqti-soatini kutib yotgan son-sanoqsiz qo'shin kabi pinhona yovvoyi kuchga ega edi. Bu kuch egasi allaqanday dahshatli maxluq emasdi, yo'q: u yoqimli kuydan so'ng tug'ilgan holat bo'lib, kishiga hayotbaxsh orzu hadya qilardi.

– O, Bibi Maryam, nimalar bo'lyapti o'zi? – dedi Olga Strobele. – Bunday ovozni umrimda eshitmaganman. Juda qo'rqinchli ovoz ekan.

– Nimasi qo'rqinchli? – e'tiroz bildirdi Eliza Ismani. – Yoqimli-ku. Men... Nima desam ekan... Menga bu ovoz shuni eslatadiki... Hoynahoy, kulgilidir bu, menga bu ovoz... aniq bir narsa deyolmayman... g'alati...

– To‘xtang-to‘xtang, – so‘z qotdi Strobele uning gaplariga e‘tibor bermay. – Kichik tajriba. Ismani, siz joyingizdan qimirlamay turing.

Strobele yoki Manunta qandaydir sirli tugmachani bosishdimi yoki fotoelementni ishga solishdimi yo qandaydir mexanizmni harakatga keltiruvchi formulani aytishdimi, Ismani tushunmay qoldi.

– Ko‘rish xotirasi bilan bog‘liq bo‘lgan kichik bir tajriba o‘tkazamiz, – dedi Strobele. – Qani-qani...

Strobele gapirayotganida ayvonni to‘sib turgan ko‘pgina shiyponlarning yoki kommutatorning, yo bo‘lmasa mudofaa inshootining devoridanmi, och sariq tusli nursiz temir antenna egilgancha to‘planganlarga yaqinlasha boshladi. Uning uchida yumshoq mo‘yqalam tukiga o‘xshash bir tutam narsa osilib turardi.

Pantograf yordamida antenna hech qanday ovoz chiqarmay, Ismaniga yaqinlashib keldi-da, uning uchidagi bir tutam narsa asta u tomon chiqa boshladi. Shunda u son-sanoqsiz yumshoq simlardan iborat ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

– Ismani, sen haddan tashqari uzoqda turibsan. U sening oldingga bora olmaydi. Yaqinroq kel.

Antenna go‘yo bir narsani qidirayotgandek, tepaga va pastga harakat qilardi.

Ismani ikkilangancha kulib qo‘ydi.

– Kelinglar, men bora qolay, – dedi Olga kutilmagan, so‘ng shundoqqina sim bog‘lami yoniga kelib turdi.

Temirdan yasalgan qo‘l asta pastlab, bir tutam sim Olganing boshi ustiga kelib to‘xtadi; so‘ngra yanada pastlab, ayolni beligacha simlar bilan chirmab tashladi.

– Voy, qitig'im kelyapti! Voy-voy, buncha yoqimsiz-a!

– Bo'ldi, xonim, yetarli, bu yoqqa keling, – sarosimaga tushib dedi Manunta.

Antenna Strobele xonimni o'z holiga qo'yib, yuqoriga ko'tarildi. Olga go'yo jirkangandek, keskin harakat qilib, nari ketdi.

Olga sochlarini tartibga soldi. U kulsa-da, lekin qo'rqqanidan rangi oqarib ketgandi.

Shu tob atrofga taralgan g'alati sado bilan birgalikda avval ham eshitilgan g'ijillash ovozi quloqqa chalindi. Bu ovoz yanada ko'tarilib, atrofga aks sado tarata boshladi, so'ng yana asta-sekin pastlab, oxiri butunlay tinib qoldi. Bu mashinalarning guvullashimi? Avval kuchayib, so'ng pasaygan ovoz nimaningdir tebranishidan hosil bo'ldimikan? Ha, shunday.

Hammalari jim bo'lib qoldilar.

Strobele. Manunta, nazarimda siz nimanidir tushunib turibsiz. Bu nima o'zi?

Manunta. (uning kesatib kulishiga e'tibor bermay) Kim biladi deysiz? Aytish qiyin... Nazarimda... Yo'q, men hech narsani tushunmadim... – So'ng o'ylab, qo'shimcha qildi: – Menimcha, u kulayotgan edi.

– Men sovgotdim, – dedi Olga Strobele.

– Sovgotdim deysanmi? Shunday issiq havoda-ya?

– Ha, sovgotyapman. Men uyga ketaman.

– Nahotki qo'rqqan bo'lsang? Axir bu o'yin-ku, – dedi Strobele go'yo Ismani oldida o'zini oqlayotgandek bo'lib. – Ochig'ini aytganda, bu borib turgan ahmoqlik! Bu bizning uskunalar bilan o'tkazgan birinchi tajribamiz. Olga, xohlasang, uyga ketaver. Biz Ismani bilan suhbatlashamiz.

Ikki ayol uylari tomon ketdilar. Manunta ularni kuzatib qo'ydi.

Ayvondan o'tib ketayotganilarida, ulardan yigirma metr chamasi uzoqlikdagi yem-xashak omboriga o'xshash inshoot tomondan temirning g'iytillagan ovozi eshitildi. Hamma ovoz kelgan tomonga o'girildi. Lekin atrofda e'tiborni tortuvchi harakat ko'zga tashlanmasdi. Hatto mo'yqalamli antenna ham qilt etmay turardi.

### XIII

– Azizim Ismani, bundan ko'p yillar avval, – hikoya qila boshladi Endriad, – hali diplom himoya qilmasimdan avval, yoshlik chog'imdayoq meni doim bir muammo qiynab kelardi: aql bilan qilingan ishning qanday samara berishi faqat insonga bog'liqmikan? Nahotki, bizdan tashqarida hamma yoq zimiston bo'lsa? Yoki bizdagi mavjud hamma narsa boshqa yerda ham bor bo'lishi mumkinmi?

– Siz robotni nazarda tutyapsizmi? – so'radi Ismani.

– Shoshmang. Siz hech qachon ko'p yillardan beri davom etib kelayotgan g'alati hayot oqimi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Avvallari biz kim edik? Sodda-bayov odamlar edik. His-tuyg'ularimiz bo'lsa-da, lekin uncha taraqqiy etmagandik. Biz aql bilan tushunadigan narsa hali paydo bo'lmagan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, u hali kichkina, mitillagan shu'laga o'xshab, uning o'simlik dunyosidan farqi arang sezilardi. Hurmatli Ismani, meni to'g'ri tushunishingizni so'rayman, gaplarimda ilmiy so'zlardan unchayam foydalanayotganim yo'q. Siz mana bu xo'jalik haqida o'zingiz to'g'ri tasavvur hosil qilishingiz uchun men ayrim mulohazalarimni aytmoqchiman. Sizning ahvoli ruhiyatingizni,

sarosimaga tushayotganingizni tushunmayapti, deb o'ylayapsizmi meni? Hisob-kitoblarga, taassurotlarni qayd etish va eslab qolishga, kulish hamda yig'lashga, aksirish, masalalarni yechishga qodir bo'lgan robot yaratilgan, aql ustidan masxaralash maqsadida shunday ishlar qilingan bo'lsa, unda bu g'iri tentaklik, jinoyatkorona ahmoqlik bo'lur edi. Xo'sh, unda nima bo'lardi? Unda ming yillar davomida evolutsiya sodir bo'lib, fikrlash qobiliyati rivojlanar yoki hech bo'lmaganda shartli reflekslar, his-tuyg'ular taraqqiy etib borardi... Gaplarimni tushunyapsizmi? Bu cheki-chegarasi yo'q taraqqiyotning qandaydir bir nuqtasiga yetib kelinganda – to'satdan olam taraqqiyotida o'zining g'aroyibotligi bilan insonni lol qoldiruvchi hodisa ro'y berdi. – Ismani kulib yubordi-da:

– Insonmi? – deb so'radi.

– Ha, inson, – tasdiqladi Endriad – Unda bor-yo'g'i bir necha million yillar davomida katta tezlik bilan ma'lum darajada o'zgarishlar sodir bo'ldi. Notabiiy rivojlanish yuzaga keldi va u avvalgi loyihalarda nazarda tutilganligiga men shubha qilaman, u qolgan narsalar bilan umuman bog'lanmagan.

– O'zgarishlarni aytyapsizmi?

– Ha, aql tobora to'lisha bordi. Kalla kattalashdi, asab tolalari haddan tashqari murakkablashib ketdi. Bir so'z bilan aytganda, inson aql-zakovati borgan sari boshqa mavjudotlar aql-zakovatidan o'zib ketdi. Hurmatli Ismani, siz buni Xudoning ishi deb aytarsiz. Mayli, shunday deb o'ylay qoling. Bu holatni ob'ektiv ko'rib chiqishdan uning mohiyati o'zgarmaydi.

– Lekin men ularning orasida qanday aloqa borligini ko'rmayapman. Shoshmang... Yana bir narsa bor.

Bu mutlaqo barchaga ayon narsa. Buni men o'zim sizga tushuntirib bermog'im lozim. Shunday qilib... Inson miyasi haddan tashqari rivojlanib, uning asab tizimi va his-tuyg'ularining murakkab apparati bir soniyada.. Hurmatli hamkasb, qandaydir bir soniyada ko'z o'ngimizda tutqich bermas element paydo bo'ladi, u tananing samarasiz rivojlanishi bo'lib, ko'zga ko'rinmas, ammo yangi hosila beradi, uning na og'irligi, na shakli bor, buni biz ilmiy til bilan aytadigan bo'lsak, uning mavjudligiga o'zimiz ham ishona olmaymiz, ammo u bizni ko'p iztiroblarga soladi: bu qalbmizdir.

– Demak, bu Birinchi Raqam?

– Yana biroz sabr qiling. Asosiy masalaga yaqinlashyapman. Xo'sh, deganday, agar biz qaysi tilga mansubligidan qat'i nazar, bizning fikrlash faoliyatimizni aks ettira oladigan, o'z oldiga masalalar qo'yib, ularni kam xatoga yo'l qo'yib, insonga qaraganda ancha tezroq hal eta oladigan mashina yarata olsak, shunda ham aql-zakovat haqida gapirishimiz to'g'ri bo'larmikan?

Yo'q. Aql-zakovatning mavjudligi uchun ozgina bo'lsa-da, erkinlik va mustaqillik talab etiladi. Ammo, biz...

– Agar biz Birinchi Raqamni qursak demoqchimisiz?

– Ha, topdingiz. Agar biz uni qursak... biz uning udasidan chiqdik, deb aytayotganimiz yo'q... agar bizning his-tuyg'ularimizga ega bo'lgan mashinani qursak, buning nimasi yomon? Bu masala mablag', vaqt va mehnatni talab qiladigan masala. Agar biz uni qura olsak, biz ko'klarga ko'targan bu mahsulot, sezilmas mohiyat bo'lardi men fikrni, hatto tushlarimda ham tinchlik bermaydigan g'oyalarni nazarda tutyapman. Ustiga-ustak, nafaqat fikr, balki uning individualligi, ya'ni yo'q narsa-

dan bor bo'lib, vaqti-vaqti bilan qo'rg'oshin kabi bizni ezadigan qalb paydo bo'ladi. Siz, balki, bu qalb biznikiga o'xshamas dersiz? Xo'sh, nima uchun? Uning tana qobig'i etdanmi yoki temirdanmi, nima farqi bor? Tosh ham o'z hayotiga ega emasmi?

Ismani bosh chayqab qo'ydi.

– Bizning suhbatimizni janob Ritseri eshitsa bormidi.

– Eshitsa nima bo'пти? – dedi kulib Endriad. – Bu yerda hech qanday ilohiyotga oid muammo yo'q. Nahotki Xudoga bu ishimiz yoqmasa? Axir barchasi uning xohishi bilan sodir bo'lmaydimi? Materializm ham? Determinizm ham? Bu yerda boshqa muammo bor. Dinga hech qanday shak keltirilmaydi. Aksincha. Bu tabiatning insonga bergan jazosi, deydilar ular.

– Bu tabiatning qarg'ishiga qolish, deydilar ular. Takabburlik – bu katta gunoh.

– Tabiatning qarg'ishimi? Lekin bu uning to'la g'alabasi bo'ladi-ku.

– Xo'sh, undan keyin-chi. Bu mushkul ish nima berishi mumkin?

– Azizim Ismani, maqsad inson qachonlardir jur'at etgan eng oliy orzularidan ham ustun turadi. U shu darajada ulkan, shu darajada ko'rkamki, so'nggi nafasing qolguncha o'zingni unga bag'ishlaging keladi. Ko'z oldingizga keltiring-a, bu miya biznikiga nisbatan durustroq, qobiliyatliroq, mukammalroq, aqlliroq bo'lgan kunni bir tasavvur qiling-a... O'sha kuni sodir bo'lmas-mikan... Buni nima deb atasak bo'larkin? Xullas, aql bovar qilmaydigan his-tuyg'ular va aql kuchiga yarasha mislsiz ruhiyat ham bo'ladi. Bu kun tarixiy kun bo'lib qolmaydimi? Mashina o'zidan dunyo hali ko'rmagan mislsiz ruhiy kuch yog'dirib turadi. Mashina bizning

fikrimizni o'qiy boshlaydigan mo'jizalar yaratadi, u qalbimiz tubidagi sirlarni ocha boshlaydi.

– Bir kun kelib, robotning fikrlash tarzi sizning nazoratingizdan chiqib ketib, mustaqillikka erishsa-chi?

– Men ana shunga intilyapman-da. Bu g'alaba degan so'z. Ozodliksiz ruh qanday ruh bo'ldi?

– Agar u biz kabi qalb egasi bo'lib, bizlarday aynib ketsa-chi? Uni bu yo'ldan qaytarish maqsadida aralashishning iloji bo'ladimi? Va u o'ta aqliligi tufayli bizni aldamaydimi?

– Axir u bekam-u ko'st yaratilgan bo'ladi-ku. Xuddi Odam Atodek. Ana shunda-da, uning bizdan ustunligi! U avval-boshdanoq gunohdan xolidir.

Endriad jim bo'lib qoldi. Ismani sarosimaga tushgancha iyagini qashlardi.

– Demak, sizning Birinchi Raqamli uskunangiz aslida...

– Xuddi shunday. Urinib ko'rish... Bunga to'liq asosimiz bor...

– U xuddi biz kabi fikrlashini nazarda tutyapsizmi?

– Shunday.

– U qanday qilib tushuntiradi? Qaysi tilda?

– Hech qanday tilda emas. Har qanday til bu – fikr uchun qopqon. Biz asosiy elementlardan kelib chiqqan holda inson aqliy funksiyasini yaratdik. So'z bilan belgilangan predmet o'rtasidagi aloqa modelini bevosita faoliyat modeli bilan almashtirdik. Bu o'sha Chekatevning eski dohiyona tizimidir. Har qanday fikrlash doirasi chizma ko'rinishiga o'tkaziladi. Bu esa uning taraqqiyotining boshidan oxirigacha va shu bilan birga uni yaxlitligicha ko'rish imkoniyatini beradi. Ya'ni, biz tildan foydalanmay, fikrning tamg'a shakliga ega bo'lamiz.

– Bunda siz nimadan foydalanasiz?

– Ohanrabo simidan foydalanamiz. Uning yordamida biz ko'rgazmali chizmaga ega bo'lamiz.

– Uni qanday tushunsa bo'ladi?

– Buning uchun tajriba bo'lmog'i lozim. Masalan, men ularni ravon o'qiy olaman. To'g'ri, uni o'rganib olish oson emas. Avvalo tovush yordam beradi. Ohanrabo simlaridan faqat jadval emas, balki tovushlar ham keladi. Katta tajriba orttirilsa, uni tushunish oson.

– Endriad, siz o'zingiz uni tushunasizmi? Aytaylik, qandaydir hushtak chalish, uvullash ovozlari nazarida tutyapman.

– Ha. Ba'zan men buning uddasidan chiqaman. Bu fikrning sadosidir. Hayajonga soluvchi g'alati tuyg'u, garchi hamma narsa idrokka bog'liq bo'lsa ham.

– Masalan, yangi odam bilan Birinchi Raqam qanday muloqot qilishi mumkin?

– Azizim Ismani, aynan shu narsa sizning vazifangizdan biri hisoblanadi. Iloji boricha fikrlash operatsiyasi lug'atiga o'xshash bir narsa tuzish kerak. Har bir belgi kombinatsiyasiga mos keladigan so'z topish kerak.

– Endriad, siz mashina bilan qanday gaplashasiz? Nima, u bizning tilimizni tushunadimi?

– Buyruqlar va boshqa axborotlar unga teshik tushirilgan kartalar orqali kiritiladi. Ammo u qisman bo'lsa-da, nutqni idrok etishi ehtimoldan xoli emas.

– Bu dahshat-ku.

– Azizim Ismani, tushunib turibman. Siz ishonmayapsiz. Qisman siz haqsiz. Zarari yo'q. O'z ko'zingiz bilan ko'rasiz hali. Biz ancha ilgarilab ketganmiz. Ishonamanki, biz maqsadimizga yetdik. Qiyinchiliklar ortda qoldi. Bu yog'i yengil kechadi. Ha, biz o'ta qudrat-

li odam yaratamiz. Ilohiy kuch darajasida. Aynan shu yo'ldan borib, o'zimizning g'arib va yolg'izligimizni yengamiz.

– Siz bu yo'ldan borishdan qo'rqmaysizmi? Axir ertami-kechmi bu miyada sodir bo'layotgan barcha narsani nazorat qilishning sira iloji bo'lmay qoladigan fursat keladi-ku.

– To'g'ri. Biz bunga duch keldik. Ammo xavotirga o'rin qolmadi. Bizning ma'lumotlarimiz qoniqarli. Tinch uxlasak bo'ladi.

– U-chi?

– Nima, u-chi?

– U kechalari uxlaydimi? Yoki mutlaqo uxlamaydimi?

– Uxlaydi, deb aytolmayman. Ochig'i, mudraydi, tunlari uning faoliyati susaygandek bo'ladi.

– Siz elektr quvvatini pasaytirasizmi?

– Yo'q, yo'q. U go'yo charchagandek o'zi tinchlanib qoladi.

– Tushlar ham ko'radimi?

## XIV

Iyun oyining ajoyib tongi. Soat o'nlar chamasi Ismani Strobele va Manunta bilan Birinchi Raqamning sir-asrorlari haqida suhbatlashayotganlarida nima bilan mashg'ul bo'lishini bilmay turgan Eliza Ismani Endriadning rafiqasi bilan uchrashishga ahd qildi.

– Bu yerlar juda go'zal, zerikmaysan kishi, – degan edi Endriadning xotini ular birinchi bor tanishganlarida. – Lekin biz ayollar ba'zan nima qilarimizni bilmay, zerikib qolamiz. Zerikib, yolg'izlanib qolganingizda biznikiga kelavering, degandi u. Istagan vaqtingizda eshi-

gim ochiq. Hatto ertalab ham. Erta tongda gullarimni sug'oraman, kelsangiz, gulzorimni sayr qildiraman.

U bu gaplarni samimiy va chin dildan aytganligi uchun Eliza Ismani kelgan kunlarining ertasigayoq Endriadlarnikiga yo'l oldi. Erta tong. Ajoyib iyul tongi edi.

Endriadning uyi yam-yashil o'tloqzor qoplagan tepalikning yuqorirog'ida joylashgan. O'ng tarafda yuz metrlik narida maxfiy inshoot chegarasi ko'zga tashlanib turardi.

Uy eshigi qiya ochiq edi. Eliza eshik qo'ng'irog'ining tugmasini topolmay, biroz turib qoldi. Aftidan, uyda hech kim yo'qqa o'xshardi.

– Mumkinmi? Kim bor? – baland ovozda so'radi Eliza.

– Kiring! – ichkaridan erkak kishining xushlamayroq qilgan javobi eshitildi.

Eliza eshikni ochib, ortiqcha jihozlar bo'lmagan keng mehmonxonaga kirib bordi. Bu yerda ikkita divan, bir necha mo'jazgina to'qima oromkursi, yozuv stoli, ko'zgu va devorga osig'lik qadimgi suratlar – xona ana shunday oddiy qilib bezatilgandi, bu yer shinam va osoyishta edi.

– Mumkinmi? – qayta so'radi hech kimni uchratmagan Eliza.

Boshqa eshik ochilib, ichkaridan Endriad chiqib keldi. U bo'yinbog'siz, egniga eski sviter kiyib olgandi.

– E-ha, yaxshimisiz? Siz Luchananing oldiga kelganmidingiz? U bog'da bo'lsa kerak. Hozir uni chaqiraman.

Endriadning qiyofasidan mehmonni xushlamayotgani shundoqqina sezilib turardi. Unga xalaqit berib, muhim ishidan chalg'itganlari yoqmasdi. Uning nigo-hida, gap ohangida, xatti-harakatida kecha kechqurun

tanishgan paytlaridagidek besaranjomlik yaqqol ko'zga tashlanardi.

– Marhamat, – dedi Endriad Elizaga.

Divanga yaqinlasharkan, Elizaning nigohi yozuv stoli ustidagi jurnal va kitoblar orasidagi kumush gardishga solingan kichik suratga tushdi.

U hayratdan dong qotib qoldi. Suratni durustroq ko'rish maqsadida biroz engashdi ham.

– Kechirasiz, – dedi Eliza. – Lekin men ont ichib aytishim mumkin, bu... Axir bu o'sha-ku! Ko'zlarimga ishonmayman, bu o'shaning o'zi!

– Kim? – qiziqib so'radi Endriad.

– Mening qadrdon dugonam. Laura... Laura De Marki.

Sarosimaga tushgan Endriad Eliza tomon qadam tashlarkan:

– Siz uni tanirmidingiz? – deb so'radi.

– Juda yaxshi taniyman. Biz deyarli o'n yil birga yashagan edik. Ajralmas maktabdosh dugonalar edik. Keyin ularning oilasi Shveysariyaga ko'chib ketgandi. O'shandan buyon ko'rishmadik. Lekin qanday qilib...

Endriad hayrat to'la ko'zini Elizadan uzolmay qoldi.

– Bu mening birinchi xotinim, – g'o'ldiradi Endriad.

– Yo'g'-e?

Eliza Ismani buni endi eshitishi edi.

– Demak, siz uni juda yaxshi bilar ekansiz-da? – tasmollab so'radi Endriad.

– U menga singlimdan ortiq edi. Biroq hozir... Oradan o'n besh yillar chamasi o'tdi. Undan hech qanday xabar yo'q. Aloqamiz uzilgan...

Endriad, go'yo xotiralar girdobida suzayotgandek, jim bo'lib qoldi. So'ng asta kulib qo'ydi.

– Lauretta, – dedi u ohista. – Laurettaning oramizdan ketganiga o'n bir yil bo'ldi.

– Oramizdan ketganiga?

– U halok bo'ldi. Avtomobil halokatiga uchradi.

Eliza biroz sukut saqlab, so'radi:

– Siz rulda edingizmi?

– Yo'q, men emas, boshqa odam... Men uni tun bo'yi kutdim. Turgan-bitgani dahshat. Erta tongda politsiya bu haqda xabar berdi. Ikkovlari ham bir zunda u dunyoga ravona bo'libdilar. Lauretta va haydovchi, – dedi u so'nggi so'zga alohida urg'u berib.

Eliza ruhan tushkunlikka tushib qolsam kerak, deb o'ylagan edi. Ammo bunday bo'lmadi. Lauretta. Bu uzoqda qolgan bir siymo. Ertak. Balki, u bu dunyoda bo'lmagandir? Axir oradan shuncha yil o'tib ketdi-ku.

Uning qarshisida turgan inson shak-shubhasiz iztirob chekmoqda edi. Endriadning chehrasi tundlashdi.

– O'sha, – asta takrorladi Endriad. – Sizning ko'zingizga qarab nimani o'ylayotganingizni fahmlayapman. O'sha. Balki, meni hech narsadan xabari yo'q, deb o'ylarsiz? Ochig'ini aytganda, bilmagan deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak? Axir siz uning dugonasisiz-ku, ayting-chi menga, uni ayblash mumkinmidi? – dedi Endriad Elizaning bilagidan mahkam ushlab. – Hoyna-hoy, hamma mening ustimdan kulgan bo'lsa kerak. Bu galvars Endriad ko'klarga parvoz etib, xotining qilayotgan ishlaridan bexabar bo'lsa kerak... Qanday qilib ko'rmaslik, bilmaslik mumkin edi! To'ydan so'ng oradan bir yil ham o'tmagandi. Qochirimli so'zlar, sha'malar, berkitiqcha gaplar... So'ngra isbotlar... Tushunyapsizmi, dalillar ko'p edi. Shunday isbotlar bo'ldiki, ko'rib ko'rmaslikka olishim mumkin emasdi. Yana

nima desam ekan? Lekin men... Men ayanchli va nochor ahvolga tushib qoldim. Usiz yashay olmasdim! Undan ajralib qolish... Oh, men qanday baxtiyor edim-a! Lekin buni keyinchalik tushunib yetdim.

Buyuk Endriad, daho divanga cho'kdi-da, ikki qo'li bilan yuzini berkitib oldi. Ovoz chiqarmay yig'layotganidan yelkalari titray boshladi.

Eliza hayron bo'lib qoldi: dugonasining qilmishidan xijolat ham tortmadi. O'ziga-o'zi hayron qoldi. Bu voqea Laura uchun mutlaqo tabiiydek tuyuldi.

— Janob Endriad, oldingizda xijolatdaman... mening aybim bilan...

— Ismani xonim, siz meni to'g'ri tushunyapsiz-a? Laura, Lauretta ismli tentak ayolni eslayapsizmi? Axir u g'irt ahmoq edi. — Endriad jilmayib qo'ydi. — Kechqurun uyga qaytib kelganimda, unga bir qarashdayoq hammasini sezardim. Ha, u menga doimo xiyonat qilib kelayotganini juda yaxshi bilardim. U meni aldardi. Yolg'iz Xudoga ayon u meni qanchalar aldagan. Ammo baribir... Uning bir qur qarashidan, gapining ohangidan hamma narsani tushunib olardim. Uning bolalarcha kuli-shi, axir siz uning tabassumini eslasangiz kerak? Uning xatti-harakati, qadam tashlashi, o'tirishi-yu uxlashi va yuvinishi qanday ajoyib edi... Hatto uning yo'talib, ak-sirishi ham kishini maftun etardi. Lekin yolg'on gapi-rishi... Buni yolg'on deb atab bo'larmikan? Laura shun-day edi. Kulganida, menga suykalganida biram yoqimli bo'lardi!.. Nima deyayotganimni tushunyapsizmi?

— Ha, men uni ko'z oldimga keltiryapman.

— G'o'r. Hayvon. Yog'du edi. U navnihol, misoli gul edi. — Endriad endi o'zi bilan o'zi so'zlashardi. — Men bilardim, agar uni yo'qotsam, holim voy bo'lishini yax-

shi bilardim... Notavon... Nahotki, men shunchalik galvars bo'lsam? Atrofdagi odamlar-chi, ular telbamidilar? Xo'sh, ayting, men nima qilishim kerak edi? Ikki baxtli insonni birvarakayiga bebaxt qilishim kerakmidi? Nima uchun? Yaxshi odamlarning xursandchiligini debmi? Yaramaslar!..

Endriad seskanib, Eliza Ismaniga g'alati qarab qo'ydi. So'ng Elizaning qo'lini ohista ushlab qo'ydi.

– Yuring, – dedi u o'rnidan turarkan. – Kechirasiz, ismingiz nima?

– Eliza.

– Yuring, Eliza. Biz do'st tutunishimiz kerak. Va'da berasizmi?

– Albatta, so'z beraman.

– Ont iching. Shunday do'st bo'laylikki, oramizda sir bo'lmasin. Tushundingizmi? Ochiq-oydin gaplashamiz.

Eliza kulib yubordi.

– Bu fitnami? Endriad, siz meni qo'rqitib yubor-yapsiz.

– Ha, fitna. Yuring, Eliza. Men sizga ko'rsatishim kerak...

– Nimani ko'rsatasiz?

– Bir sirni... – dedi Endriad. Uning ichi o't olib yonayotgan edi. – Bir mash'um sirni ochaman. Ammo-lekin, juda antiqa.

– Jiddiy gapiryapsizmi?

– Yuring. – Endriad biroz yurgach, derazalardan biriga qaradi. – Luchana bog'da ekan. U sizning bu yerda ekanligingizni bilmaydi. Hali vaqtimiz bor. Yuring.

Endriad eshikni ochdi. Ular tashqariga chiqdilar. To'siqli beton ayvon tomon yurdilar. Bu ayvon qoya

bo'ylab davom etdi, ellik metrardan so'ng butun majmuani o'rab turgan devor bilan birlashib ketardi.

Endriad oldinda odim otib ketmoqda edi. Ayvon o'rtasiga yetgach, o'girilib Elizaga qaradi.

– Ayting-chi, – dedi Endriad jiddiy, – agar u bilan uchrashib qolgudek bo'lsak, siz uni tanirmidingiz?

– Kimni?

– Laurettani.

– O'z og'zingiz bilan aytdingiz-ku...

– Halok bo'lganinimi? Ha, u halok bo'lgan va dafn etilgan. Bundan o'n bir yil muqaddam. Lekin siz uni tanirmidingiz?

– Endriad, menga qarang. Nima deyishimni ham bilmay qoldim.

Endriad bir og'iz ham so'z aytmay, yo'lida davom etdi. Eliza esa uning ortidan borardi. Shu yo'sinda ular ayvonning oxiriga yetib keldilar. Shu yerda – oqlangan devorga temir eshik qurilgan edi. Endriad cho'ntagidan bir shoda kalit chiqarib, eshikni ochdi va qandaydir tugmani bosdi. Ular tor yo'lak bo'ylab yurib ketdilar. Yo'lakning ichkarisida yana bir temir eshik ko'zga tashlandi. Endriad boshqa kalit bilan eshikni ochdi. Ular uncha katta bo'lmagan ayvonga chiqdilar.

Oftobning charog'on nuridan Elizaning ko'zlari qamashib ketdi. Pastlikda Birinchi Raqamning ulkan, bo'm-bo'sh kosasi ko'zga tashlandi.

Endriad qimir etmay turdi. U go'yo sehrlangandek, o'zi yaratgan ardoqli inshootdan ko'z uzmay turardi. Uning lablarida asta-sekin tabassum paydo bo'ldi va shivirlab dedi:

– Lauretta!

Ular bu manzara oldida biroz sukut saqlab turib

qoldilar. Endriad bexosdan boshini silkitib, Elizaga nigohini tikkancha qat'iylik bilan buyruqnamo so'z qotdi:

– Siz uni tanirmidingiz?!

– Ha, tanisam kerak.

– Eliza, tanimayapsizmi?

Elizaning miyasidan bema'ni taxmin lip etib o'tdi. So'ngra Endriad aqlidan ozgan, degan xavotirli shubha paydo bo'ldi.

– Qani, gapiring. Siz uni tanimayapsizmi?

– Qayerda u? – so'radi Eliza.

Endriad g'ujanak bo'lib oldi.

– Yo'q. Yaxshilab qarang. Agar siz qo'rqqan bo'lsangiz, unda bir-birimizni tushunmayapmiz. Meni aqlidan ozgan deb o'ylamang. Siz uni taniyapsizmi?

– Men... Men... Lekin qani u?

– Ana u, ana! – Endriad qulochini keng yozib, sirli inshootni ko'rsatdi; qayoqqa qaramang, hamma joyda – turli past-balandliklarda bo'rtiqlar, minoralar, antennalar, baquvvat geometrik shakllar ko'zga tashlanardi.

– Men... tu... tushunmayapman, – dedi Eliza tutilib, chunki u g'ira-shirada nimanidir payqay boshlagandi.

– Ovozi-chi? – uni tinmay savolga tutardi Endriad. – Quloq soling-a, bu ovozni tanimayapsizmi?

Eliza diqqat bilan quloq sola boshladi. Qurilmani birinchi bor ko'rgan kunidagidek chuqurlikdan elas-elas ovoz eshitila boshladi. Bu ovoz bir manbadanmi yoki bir necha manbadan kelayotibdimi, buni ajratib bo'lmasdi. G'alati ovozlar, uzuq-yuluq kelayotgan tovushlar, aql bovar qilmaydigan darajadagi xilma-xil tembrlarda taralar va go'yo azza-bazza odam kabi gapirib ketadi-

gandek tuyulmoqda edi, ammo har safar ovoz yuqori nuqtaga yetganda, chuqur tin olib qo'yardi.

– Siz uni eshityapsizmi? Eshityapsizmi? Bu o'shami? – toqatsizlanib savoliga javob kutardi Endriad.

Shu top Eliza Ismani hammasini tushunib yetdi. U bu dahshatli haqiqatning tagiga yetdi-yu, yuragi shuv etdi.

– Voy Xudoyim! – tisarilib qichqirib yubordi Eliza.

– Bu o'shami? – so'radi Endriad Elizaning yelkasi-dan ushlab silkitar ekan. – Bu o'shami? Ayta qolsangiz-chi! Siz uni tanidingizmi?

– Ha, tanidim. – O'tmishdagi yosh, sog'lom, yengil-tak, xursandchilikni, ko'ngilxushlikni yoqtiruvchi guldek dugonasi endi bahaybat qurilma timsolida ro'parasida qimir etmay turardi. Bahaybat sun'iy miya, robot – o'ta qudratli odam, aql bilan to'ldirilgan ulkan qo'rg'on – bularning barchasi Endriad tomonidan u sevgan ayol timsoliga o'xshatib yaratilgan edi. Bu sirli xilqatda chehrasiz, oyoq-qo'lsiz, dudoqsiz Laura sehtgar mo'jiza kabi bu dunyoga qaytib kelgan edi. Bu ayvonlar, bu devoru qoziqlar, mudofaa inshootlar uning tanasi tasavvurida yaratilgan edi. Eliza Ismani o'zi istamagan holda ularning orasidagi g'alati o'xshashlikni ko'ra boshladi. Bu holatda inson shakliga kirishni aql bovar qilmasdi, ammo Eliza ko'zini yumishi bilan bu qurilmalarda undan turtib chiqib turgan bo'rtiqlarda, chuqurliklarda unutilgan xotiralarning kuchli sadosi namoyon bo'lardi – inson borlig'i, yoqimli nafosati sezilib turardi.

Ustiga-ustak, tashqaridan qaraganda, palapartish joylashgan bu devorlar, qoziqlar, handasaviy shakllarda qandaydir bir kimsaning o'ziga xos quvnoq, nafis, yengil tabiatli qiyofasi namoyon bo'lardi; bu endi qurilma ham,

qo'rg'on ham, elektrostansiya ham emas, oddiy ayolga o'xshab ketardi. U yosh, sho'x, ishvali, mastunkor edi, ammo uning tanasi etdan emas, balki beton va metall-dan edi. Tavba, aql bovar qilmaydi, lekin u ayol edi. Ha, bu o'sha, Laura edi. Avvalgidek go'zal, g'amzali, balki hayotlik davridagi ko'ra ofatijon edi.

Endriad bezgak tutgandek qaltirab, Elizaning javobi-ni kutib turardi.

– Eliza, siz ko'rdingizmi? Uni tanidingizmi? Ovozi-ni-chi? Nahotki, bu tovush unikiga o'xshamasa?

Eliza boshini silkib qo'ydi. Elektron qurilmalar, sun'iy tebranishlar, sovuq materiyadan hosil bo'lgan ovoz – uning ovozi edi. Faqat u so'zlamas, balki tu-shunib bo'lmas tovush chiqarardi, xolos. Go'yo Lau-raning tomog'iga bir narsa tiqib qo'yilgani sabab, u g'o'ldirayotgandek yoki kaptar kabi g'u-g'ulayotgandek edi. Bu go'zal va shu bilan birga qo'rqinchli ham.

– Eliza, siz tushunyapsizmi?

– Nimani?

– Siz uning so'zlarini tushuna oldingizmi?

Eliza Ismani kabi irodali va qat'iyatli ayolga ushbu taassurotlar haddan tashqari kuchli ta'sir etgan edi. U bunga dosh berolmadi. Biron narsaga suyangisi keldi.

– Yo'q, yo'q, – dedi xuddi bo'g'ilayotgandek, nafasi tiqilib va yig'lab yubordi: – Bo'lishi mumkin emas. Be-chora Laura!

## XV

– G'oya bunday yuzaga kelgandi. Oradan o'n bir yil o'tdi. Men arosatda qolgan edim. Kecha-yu kunduz ajriq-da yotgandek ag'darilib chiqardim. Hayotim zulmatga aylangan edi, Sevgilim meni tashlab ketdi. Tushunyap-

sizmi, Eliza? Shundan so'ng qanday hayot kechirishim, qanday yashashim mumkin edi? Mening quyoshim botgan edi. Sarson-sargardon bo'lib qoldim. Tunlari kezib yuradigan odat chiqardim. Musibatda qoldim. Nazarimda, men uchun hayot tugagandek edi. Ha, ha, shunday bo'lgandi. Aslida, hech narsa miyamga kirmas, hech narsaning farqiga bormasdim. Asl musibat boshqa yoqda edi. Bu bizning ichimizdan kemirayotgan ruhiy tushkunlik ekan. Men tamom bo'ldim, ortiq yashay olmasam kerak, deb o'ylagandim.

Inson iztirob chekishga mahkum etilgan, atrofida qanchadan qancha tasalli berguvchi narsalar ko'pligini sezmaydi – buning uchun qo'lini uzatsa bas va u o'ziga yangi tashvishlar orttirib oladi. Har holda mening hayotimda shunday bo'ldi. Ammo hozir hayot men uchun tugagan o'sha davrlarni qo'insayotganimni siz tushunmaysiz. Laura halok bo'ldi. Men yolg'iz qoldim... Ammo... qolganini sizga hikoya qilib, tushuntirib bera-man. Men yer yuzida eng baxtsiz odamdek his qilardim o'zimni. Bundan qutulish uchun bir ovunchoq topishim zarur edi.

Ish topishim darkor edi. Ilmiy ishga sho'ng'ib ketdim. Kecha-yu kunduzning farqiga bormay qoldim. Ishga butun vujudim bilan kirishib ketganimdan men galvars Laura bilan bog'liq iztiroblardan qutulganimni ham sezmay qolibman. Axir men yana avvalgidek ishchan holatimga qaytgandim.

Aynan o'sha kunlarda vazirlikka maxfiy suhbatga taklif qildilar. Mavzu – ma'lum reja edi. Yoki loyiha... Aytaylik, Birinchi Raqam xususida. Bu loyiha yetti yil mobaynida tashlab qo'yilib, qayerdadir chang bosib yotgandi.

Meni chaqirib, vaqti yetdi, deb aytishdi. Vazirlikda ishlaydiganlardan minnatdor bo'lishimiz kerak. Ular bu masalaga juda katta e'tibor qaratdilar. Xarajat borasida hech qanday uzilish bo'lmadi, Milliardlab mablag' ajratildi. Keragicha sarfla, deyishdi. Bu azaliy orzu edi. Ammo bu vaqtga kelib... ishga ishtiyoqim so'ngan edi, hammamiz ham odammiz, hammamiz ham insonmiz, xatodan xoli emasmiz.

Endriad va Eliza robotli qurilmani tark etib, yaylov orqali o'rmon ichidan chiqib keldilar. Daraxtlar soyasi ostida suhbatlashib ketmoqda edilar.

Men bilan olim Aloizi ishlardi. U mendan biroz yosh edi. Aloizi mendan ham o'tadigan daho va romantik inson bo'lgan. U Laurani bilardi. Ha, juda yaxshi bilardi, tushunyapsizmi? Kelishgan yigit, yaxshi fazilatli inson bo'lgan. Sezishimcha, Laura bilan uning o'rtasida... Xullas, bundan qochib qutulishning iloji yo'q. Bunday holatlarda og'zimdan biron-bir so'z chiqmasdi. U ham indamasdi. So'ngra Laura halok bo'ldi. Men uni yomon ko'rib qolishim mumkinmidi? – Endriad ho'rsinib qo'ydi. – O'sha qudratli odamni qanday qilib yaratish mumkin? O'zimizga o'xshagan, lekin bizdan ko'ra mukammalrog'ini. Juda katta hajmdagi ishni qunt bilan bajardik va natijaga erishdik ham. Xo'sh, shaxs haqida nima deysiz? His-tuyg'u va istaklarni his etishni-chi? Qalbni-chi?

Bu borada aynan Aloizi hal qiluvchi qadamni tashladi. U buyuk ixtiro yaratdi. Aloizi kichik hajm ichiga aql, inson fe'l-atvorini va bizlarni bir-birimizdan ajratib turadigan sirli sifatlarni joylashtirdi. Tashqaridan qarganlarga bu kulgili tuyuladi, albatta. Balandligi ikki metr keladigan shisha-tuxum yaratildi. O'zingiz ko'ra-

siz. Uning ichida fanning buyuk ixtirosi joylashtirilgan. Aloizi o'zi bilan birga qabriga olib ketgan sirdan men ham bexabarman. Uning chizmalari va qoralamalarini biz topolmadik.

U shu haqda menga gap ochgani hali-hanuz yodimda... „Biz kimni dunyoga keltirishimiz kerak? – so'radi u go'yo men bilan hazillashgandek. Erkaknimi? Ayolnimi? Bosqinchinimi yo avliyonimi?“

Meni qiynab kelayotgan barcha iztiroblar qaytadan yangilandi. Ehtimoldan uzoq bo'lgan bunday imkoniyatni men qo'ldan chiqarishim mumkinmidi? Jahon tarixida birinchi bor paydo bo'lgan edi bunday imkoniyat... halok bo'lgan insonni, Eliza, tushunyapsizmi, hayotga qaytadan qaytarish edi bu. To'g'ri, avvalgi tanasisiz. Halok bo'lgach, tananing nima ahamiyati bor? „Laurani, – dedim men. – Sen Laurani qayta yarata olasanmi?“

Aloizi menga qarab, tikilib qoldi. Uning farishtaniki kabi chaqnoq ko'zlarini hech unutmayman. Bu nigohda dard, alam, qo'rquv va umid, xuddi meniki kabi umid mujassam edi.

Bir necha oy sezilmay o'tib ketdi. Bu ishdan avval men bir yil davomida dam olgan edim. Albatta, Luchanaga nisbatan muhabbat to'g'risida hech qanday gap bo'lishi mumkin emas. Luchana ko'p yillar davomida mening yordamchim bo'lib ishlagan. U oliynob, fidoyi ayol. U bo'lmaganda boshimga tushgan bu musibatlarga qanday dosh bergan bo'lardim, bilmadim. U mendan hech narsa ta'ma qilmasdi. U faqat meni sevardi, xolos. Biz turmush qurganimizdan keyin, u o'zini baxtli deb his etadimi, yo'qmi, bilmayman. Hayotimiz oddiy, bir kunimizni ko'rib turibmiz. Sizga aytsam, u katta qalb egasi. U o'lib ketgan Lauradan meni rashk

qiladimi, yo'qmi? Hm! Balki, rashk qilishi mumkin, ammo bildirmaydi.

Mening ishga berilib ketganimni ko'rgach, o'tmish unutildi, degan xayolga bordi. Men bo'lsam, Laurani qaytarish ustida ishlardim. Xo'sh, bunga nima deysiz? Bu yaxshi emas, to'g'rimi? Lauretta ishlatgan yolg'onlardan yuz chandon ortiq yolg'on bu! Luchananing shu vaqtgacha hech narsadan xabari yo'q. Uning bilib qolishidan Xudoning o'zi asrasin. Mayli, buni qo'ya turaylik. Birinchi Raqamning qanday qurilganini sizga tushuntirib o'tirishning hojati yo'q. Avvaliga uni abstrakt fikrlashga o'rgatish hammasidan ham qiyinroq tuyulgan edi. Bu eng asosiysi, lekin u mantiq asosiga qurilgani uchun ortiqcha qiyinchilik bo'lmadi. Sensorga axborotni kiritish juda ham qiyin kechdi. Ko'z, quloq va boshqa a'zolar orqali ta'sir etadigan qo'zg'atuvchi uskunadan chiqadigan tovushlar xotirada qayd etilishi va boshqa sensorli bloklar bilan bog'lanishi ham kerak edi. Bu tovushlarni keyinchalik qabul qilish, baholash va tahlil etish kerak edi. Shundan so'ngra, aftidan, shu yerdan keyingi harakatlarga impuls berilishi lozim. Eliza, gapimga quloq solyapsizmi? Menimcha, sizga bu...

– Yo'q, nimalar deyapsiz. Juda qiziqarli.

– Bundan tashqari, erkinlik muammosi paydo bo'ldi. Biz bu mustaqil fikrni yaratishga erishgan bo'lsak, unda qaysidir daqiqada uni o'z holiga qo'yishimiz kerak edi. Determinizm – bo'lsa bo'lsin, ammo determinanlar faqat bizdan chiqqan bo'lmashligi kerak. Aks holda nima yaratgan bo'lamiz? Qullarcha itoatkor mashinami?

Shunday qilib, mashinani o'z ixtiyoriga topshirishga majbur bo'ldik. Ma'lum bir daqiqada biz barcha tegishli a'zolari uning ixtiyoriga topshirib, keyingi o'zgarishlar

ustidan nazorat qilishdan voz kechdik. Gap faqat uning asosini tashkil etuvchi elementlarning oʻta murakkabligida emasdi. Tez orada mashina mashinaligini qilib, inson aqli uning aqlini nazorat qilishga oʻjiz boʻlib qoldi. Ustiga-ustak, biz maʼlum bir vaqtda faqat bir narsa haqida oʻylash imkoniyatiga ega edik. Biz yaratgan qurilma esa bir vaqtning oʻzida bir-biri bilan bogʻliq boʻlmagan bir necha fikrlash operatsiyalarini bajara olardi.

Umuman olganda, biz asosiy jilovni qoʻlimizdan chiqarib yuborgandik, bizning ixtiyorimizda faqat mashinaning bajarayotgan ishini nazorat qilib, kuzatishdan oʻzga imkon yoʻq edi. Bu Karstdagi daryo yerosti gʻorida yoʻq boʻlib ketib, bir necha kilometrdan soʻng yana yuzaga oqib chiqishiga oʻxshash bir narsa edi. Yerning ostidan suv qayerga ketadi, buni hech kim bilmaydi.

– Eliza, ayting-chi, siz erkinlik hissiyotimizni qayerda paydo boʻlishi haqida hech oʻylab koʻrganmisiz? Uning birinchi manbayi qanday? Biz hatto qamoqxonada, hatto oʻlim toʻshagida yotganimizda ham, u tufayli biz aqldan oʻzishimiz mumkinmi?

– Yo Xudoyim-ey! – dedi Eliza Ismani. – Toʻgʻrisini aytsam, men bu haqda hech oʻylamagan ekanman.

– Men shuni aytmoqchimanki, – dedi Endriad, – hatto eng baxtli onlarda ham agar kishining oʻz joniga qasd qilish imkoniyati boʻlganida hayot chidab boʻlmas darajada ogʻir kechardi. Bu haqda hech kim oʻylamasligi oʻz-oʻzidan tushunarli, faraz qilib koʻring-a, toʻsatdan sizga bundan buyon hech kimsa oʻz hayotini tasarruf eta olmaydi, degan xabar kelsa, bu yorugʻ dunyoda qanday ahvolga tushib qolgan boʻlardingiz? Hayotimiz dahshatli zindonga aylanib qolgan boʻlardi. Hamma aqldan ozardi.

– Demak, sizning mashinangiz ham...

– Ha, topdingiz, u biz kabi ishlay olishi uchun unga o'z-o'zini yo'qotib yuborish imkonini berish lozim.

– Lekin qanday qilib?

– Bu juda oddiy. U buyruq yuborishi mumkin bo'lgan portlagich zaryadidir.

– Siz uni zaryadlaganmisiz?

Endriad ovozini pasaytirib, dedi:

– Biz uni shunga ishontirdik. Portlovchi moslama mavjud. Ammo portlovchi modda o'rni zararsiz modda qo'yilgan. Muhimi, u buni bilmasligi kerak. Lauretta shu darajada qiziqqonki, jahli chiqsa bormi...

Va nihoyat, bizning qurilmamiz to'liq va bir vaqtda ishga tushishi lozim bo'lgan darajada yetib keldi. Uning ixtiyori o'zida. Endi biz unga ta'sir eta olmasdik. O'sha kungacha u soddalashtirilgan elektron miya – faqat mexanizm va sxemalardangina iborat edi. Endi esa bu Aloizi tomonidan yaratilgan asab tuguni, shaxsning boshlang'ich ko'rinishi, men sizga hoya so'zlab bergan shisha-tuxum, hayotning nozik mohiyati harakatga kelishi kerak edi. Inersion og'ishlarni avtomatik tarzda muvozanatlash orqali aql yog'dusi, rohatlanish va iztirob chekish qobiliyatlari paydo bo'la boshlaydi. Lekin xatoga yo'l qo'yilmadimikan? Hisob-kitoblar to'g'ri olinadimikan? Amalda nima sodir bo'lishi mumkin? Bizning qurilmamiz nima bo'lib chiqishi mumkin? Laurami yoki noma'lum, oldindan bilib bo'lmas bir narsami?

Faqat murvatni burash qolgan edi, xolos. Sizga aytsam, bu juda mas'uliyatli onlar edi. Yig'ilganlarning barchasi churq etmay turardilar.

– Qolganlar-chi, Laura haqida bilisharmidi? – so'radi Eliza Ismani.

– Yolgʻiz Aloizi va men bilardik. Qolganlar uchun esa bu qurilma Birinchi Raqam edi.

– Ishga tushiruvchi murvatni kim buradi?

– Men. Mana shu qoʻlim bilan. Murvatni burayapman-u, xayolimdan: „Laura, Laura, zum oʻtmayoq sen qaytadan yana biz bilan birga boʻlasan“, degan soʻzlar oʻtdi. Tashqaridan qaraganda hech narsa...

– Xoʻsh, keyin nima boʻldi?

– Tashqaridan qaraganda hech narsa boʻlmagandek tuyuldi. Millionlab sxemalar tokka ulandi, ohanrabo simi axborot bera boshlagach, gʻaltakka oʻrala ketdi. Faqat butun vodiylar boʻylab guvullagan, shitir-shitir qilgan ovoz tarqaldi. Men juda hayajonlanib ketdim, buni koʻtarolmasam kerak, deb oʻyladim.

Soʻng shitirlash toʻxtadi va men choʻchib, barcha qilgan ishimiz zoye ketdi, degan xayolga bordim. Aloiziga qarasam, u shundoqqina yonimda turardi. U boʻlayotgan ish qanday ketayotganligini bilib-sezib turardi, fikrimni rad etganday, boshini chayqab, kulib qoʻydi. Shu payt yana shitirlash, shu bilan birga qandaydir boʻgʻiq shovqin ham eshitildi. Xuddi xoʻrsiniqqa oʻxshardi. Birinchi Raqam biz yaratgan robot oʻz hayotini boshlayotgan edi. Xoʻsh, u kim edi? Laurami yoki yettiyot begona kimsami? Mashina chiqazib bergan dastlabki maʼlumotlarni Manunta menga olib kelgani esimda. Buni tushuntirish uchun koʻp vaqt ketadi. Turli xil uzunlikdagi turlicha joylashgan koʻpgina gori-zontal chiziqlari boʻlgan tasmani koʻz oldingizga keltir-ing-a. Bu fikrlash faoliyatining grafik holdagi tasviri edi. Ammo bu soʻzlar emasdi, bu fikrlar belgisi edi. Aynan uning tili edi. Bu murakkab narsa. Uni oʻqish uchun katta tajriba talab etiladi hozircha. Ertaga bal-

ki, bularning hammasini biron tilga avtomatik tarzda o'tkazish imkoniyati topilib qolar. Ana shu muammo bilan aynan sizning eringiz Ismani shug'ullanishini istayman.

Mana. Ochig'ini aytsam, manavi tasmalarga qarab, hech narsani tushunmayapman. Bular umumiy ma'lumotlar, xolos. Ob-havo ma'lumoti. Uchib ketayotgan samolyot va menimcha burgut ham aniqlangan. Ikki kun ichida qayta ishlangan hisob-kitoblar, chunki zaruriyatga qarab, Birinchi Raqam ma'lum vaqtdan beri ishlayapti. U barcha operatsiyalarni ongsiz sinxron usulda bajaryapti.

Shu tobda biz kutmagan, umid ham qilmagan mo'jizali ovoz paydo bo'ldi. Bu g'aroyib hodisa. Mashinaga eshitish a'zosini o'rnatish niyatimiz yo'q edi — bu faqat bozordagi robotlarga odamlar oldida namoyish etish uchun o'rnatilgan xolos. Bu texnika naqadar kuchayib ketayotganini ko'rsatadi. Bu bizning maqsadlarimizga mos kelmaydi.

Nima bo'lgandayam, ovoz paydo bo'ldi. Bu qanday sodir bo'lganini hali-hanuz tushuna olmaymiz. Siz uni eshitdingiz. Eliza. U harakatdagi minglab asbob-uskunalarining tabiiy shovqiniga o'xshamaydi. Bu mustaqil bir narsa, bu hali u yerda, hali bu yerda — turli bo'limlarda bir vaqtning o'zida va bir xil kuchlanish bilan paydo bo'layotgan mustaqil tebranishdir.

Avvaliga men buni nosozlik bo'lsa kerak, deb o'yladim. So'ngra bu ohang, sas va ifoda menga tanishdek tuyuldi.

G'alati bo'lib ketdim. Bu sadoni tushunib bo'lmasdi. U nimani anglatishini sira bila olmasdik. Ammo men bu sado ostida Lauraning ovozini eshitdim.

— Eliza, inson ovozi va soʻzlari oʻzgartirilgan elektron musiqani hoynahoy eshitgan boʻlsangiz kerak? Soʻzlari noaniq, lekin ifodaviyligi saqlanib qolgan. Soʻz va jumla boʻlmasa-da, ammo musiqali tovush kerakli narsalarni ifoda etadi. Bu yerda ham shunday. Mumtoz musiqani anglatuvchi sado boʻlmasa-da, balki, odamning tilidan ham ravshan va aniqroqdir.

Bu mana shunday ovozdir. Men uni darhol magnit simidan kelayotgan fikr impulslari bilan Chekatev formulasiga solib, taqqoslay boshladim. Va oʻzimga-oʻzim shunday savol berdim: aql bovar qilib boʻlmaydigan tovush impulslarga mos kelmasmikin?! Biz darhol tajriba qilib, tovushni ohanrabo tasmasiga koʻchirdik. Natija bizni hayratda qoldirdi: bu oʻsha tovush edi. Biroq tasmaga asta yozilayotgan narsa ovoz usuliga mos tushmasdi, u ovoz mashina xotirasida iz qoldirmay yuzaga kelmoqda edi. U nimani bildirmoqchi boʻldi? Bularning barchasi bundan oʻn oylar avval sodir boʻlgandi. Men buning javobini topish uchun qanchalar qon yutganimni bilasizmi? Bu ovozni anglab yetish uchun! Tushunyapsizmi? Mendagi qiziqish nihoyatda kuchli edi. Avvalo bizning modulimiz asosida moddiy ohanrabo tasmasidagi yozuvni tushuntirib berish darakor. Bu ishni bajarmaslikning iloji yoʻq. Maʼnosini tushunib olgach, oʻsha tasmadagi ovozni chiqarish lozim. Bu noaniq tovushlarni maʼlum boʻlgan maʼnolarga solishtirib, qiyoslash kerak edi. Monandlikni topish, quloqni sezilar-sezilmas sadolarni ilgʻashga oʻrgatish kerak edi. Xuddi ingliz tilini oʻrganayotgan kabi. Yozilgan va aytilgan soʻzlar orasida hech qanday farq boʻlmasligiga erishmoq lozim edi. Oz-ozdan koʻnikasan. Bu yerda esa unga koʻra yuz barobar murakkab

va g'alati tovushlar eshitilardi. Lekin men buning ud-  
dasidan chiqdim.

– Hozir siz hammasini tushunyapsizmi?

– Ha, deyarli hammasini.

– Faqat sizni? Boshqa odam tushunmaydimi?

– Manunta ham tushunadi. Men kabi bo'lmasa-da,  
deyarli hammasini tushunadi. Manunta ajoyib inson.  
Menga yaqin. U meni hech qachon sotib qo'ymaydi.

– Strobele-chi?

– Strobelemi? Siz hoynahoy uni bilib olgan bo'lsan-  
giz kerak: Strobele yetuk muhandis. U bo'lmasa qiy-  
nalib qolgan bo'lardik. U ajoyib muvofiqlashtiruvchi.  
Qolgan ishlarda esa g'irt nodon. U bularni qayerdanam  
tushunsin.

– Aloizi-chi?

– Aloizi, ishonchim komil, ovozni kamida men kabi  
tushunardi. Lekin bu haqda lom-mim demagan. Men  
bo'lsam undan bu haqda so'ramaganman. Kulmang.  
Aloizi bilan mening o'rtamda Laura bor edi. U bizlarni  
ajratib turardi. Keyinroq Aloizi tog'da halokatga uchra-  
di. Balki, shunday bo'lgani ma'quldir. Lauraning ovozi-  
ni darhol tanidingizmi?

– Ha, darhol tanidim.

– Men uchun ham, aftidan, Aloizi uchun ham bu  
juda katta iztirob edi. Bu raqamlar asosida bunyod etil-  
gan jirkanch qo'rg'ondan yillar mobaynida mening fik-  
ru-zikrimni o'g'irlagan o'sha yagona ayolning ovozi ke-  
lardi. Tan olaman, bir necha soniya davomida o'zimni  
salkam Xudo deb his etdim. Jonsiz materiyadan tirik  
mavjudot yaratish! Aloizi yonimda menga qarab turar-  
di. Xursandligini ham bilmasdim, zavqlanganini ham.  
Shunchaki begonaday yonimda turardi. „Nima, sen ta-

nimayapsanmi?" so'radim undan. Bu Lauraning ovozi-ku. Ayt, uning ovozi? U diqqat bilan eshitib, so'ng ishonar-ishonmas: „Ha, uning ovozi. Ammo bu uning o'zi emas“, derdi.

U nimani nazarda tutgan, deb savol berarsiz. Ovoz aniq-taniq uniki. Lekin faqat ovozi. Shaxs deb ataluvchi qolgan narsalar begona edi, bu noma'lum kimsaga tegishli. Ochig'ini aytganda, bu aynan Laura edi, ammo dunyoda har birimizni yagona qilib turadigan o'sha belgi, o'sha mohiyat yo'q edi.

Nima qilmoq kerak, voz kechish kerakmi? Hammasini boshidan boshlash zarurmidi? To'g'risini aytsam, Aloizi bo'lmaganida men taslim bo'lgan bo'lardim. Aloizi Laurani mendan ham yaxshi bilardi. Biz robotning xonasiga qamalib oldik. Hammasini o'chirib qo'ydik. Birinchi Raqam ishlamasdi, tilsiz, o'lik jismga aylangandi.

Hurmatli Eliza, bu mashaqqatli mehnatni bajarishni uddasidan chiqolmasam kerak, deb qo'rqaman. Bu miyani davolash, qalbni ochish kabi ishga o'xshardi. Yo'l qo'ygan xatoimiz shunda ediki, Laurani mening xohishimga ko'ra: sog'lom, sodiq, latofatli ayol sifatida qayta tikladik. Ya'ni, o'ziga o'xshamaydigan qilib. Haqiqiy Laurani yaratish uchun uning ichiga meni iztirob chekishimga sababchi bo'lgan zaharxandalik, yolg'on, makkorlik va shuhratparastlik, manmanlik, quyushqonga sig'mas istaklarini joylash kerak edi. Bir so'z bilan aytganda, mening Lauramni yaratish uchun men qaytadan baxtsiz bo'lib qolishim o'z-o'zidan ma'lum.

Keyinchalik shunday voqea ro'y berdi. Fevral oyining oqshomi, hamma yoqni oppoq qor qoplagan. Atrofni qorong'ulik chulg'agan. Men uyda, o'z xonamda

o'tirgandim. Banogoh, biz yaratgan, hayotga qaytib kelayotgan bu mavjudotning ovozi eshitila boshladi. Bu yana o'sha Lauraning ovozi edi. Bir zumda ko'kragimni alanga kuydirgandek bo'ldi. Bezovtalik, iztiroblar, umidsizlik, muhabbat...

Haqiqatan bu o'sha Laura edi. Shak-shubhasiz. Men yana iztirob cheka boshladim.

– Siz uni juda ham sevarmidingiz?

– Uni ko'rgan birinchi kunimoq oromimni yo'qotdim, – dedi Endriad. – Unashtirish, to'y. Birga kechirgan kunlar – bularning birontasi mening azoblarimni yengillashtira olmasdi. Uni yonimda ko'rish, unga teginish, tun-u kun u meniki ekanligini bilib tursam ham, negadir meni iztirobga solaverardi. Uning tushunib bo'lmas injiqliklari va menga qilayotgan muomalasi, xuddi begonadek, mendan yiroqlashib ketayotgandek tuyulaverardi. U kulardi, men bilan hazillashardi. Yo'q, foydasi bo'lmadi. Xullas, tinchimni yo'qotgan edim. Sababi, aniq: men uni sevardim, u bo'lsa meni yoqtirmasdi.

Yana azoblar boshlandi. Uni yonimda his etsam-da, xuddi begonadek, unga yetib bo'lmaydigandek. Mana, hozir u Birinchi Raqamli qurilmaning ichiga qamab qo'yilgan, u na qimir eta oladi, na qocha oladi, na menga xiyonat qilishga qodir. Ammo mening ehtirosli muhabbatim avvalgidek, Laura hayotlik vaqtidagidek jo'shqin.

Balki, siz, Eliza, shunga o'xshash holatni boshingizdan kechirmagandirsiz? Hech qachon to'la-to'kis sizniki bo'lmagan odamni deb es-hushingizdan ayrilmagandirsiz? Kecha-yu kunduz uning ishqida yonib, boshqa narsani o'ylashga qodir bo'lmay qolasiz. Doimo asabingiz qaqshab yuradi. Bir daqiqa ham tinchlik yo'q.

Ikkanishlar, xavotirlar, turli xil shubhalar miyangizni xiyonat qilmayaptimikan, deb kemiradi.

Hozir ham men siz bilan sokin o'rmonda gaplashib turibman-u, qalbm notinch va yuragim iztirobda. Laura anavi chuqurlikda qimir etmay yotibdi, men unga to'la hukmronman. Ammo u nimalarni o'ylayotgani menga ma'lummi? U men haqimda nimalarni o'ylayapti ekan? Meni aldashni besh qo'ldek o'rganib olgandi. U shunday firibgarki, hatto ohanrabo qayd qiluvchilarining ro'yxatini ham chalkashtirib yuboryapti. U bizning nazoratimizdan chiqib ketdi. Uning sirli fikrlarini biz hech qachon bilib ololmaymiz. Men esam, mana sizning oldingizda muhabbati rad etilgan telbadek ketib boryapman.

— Endriad, aytib berayotgan hikoyangizdagi bir narsaga tushuna olmayapman. Axir sizning qurilangiz harbiy vazirlik mablag'lariga qurilgan-ku. U urush uchun xizmat qilishi kerak emasmi?

— Xizmat qilishi kerak. Faqat hisoblash quvvatlari-nigina emas, balki inson aqlidan ustun keladigan ichki his-tuyg'ularni ham yaratish mo'ljallangan edi. Va shu yo'l hozircha hal etib bo'lmaydigan muammolarning yechimini topishi kerak. Men shunday muammolarning o'ntasini sanab berishim mumkin. Masalan, maydon-ning sun'iy difraksiyasi bo'lib, u chegara bo'ylab, istal-gan balandlikdagi ko'zga ko'rinmas devor hosil qilishi mumkin bo'ladi. Va Birinchi Raqam, ishonchingiz komil bo'lsinki, kerakli narsani bizga tortiq qilishi mumkin.

— Qanday qilib? Agar Birinchi Raqam shunday ulkan hisoblash qobiliyatiga ega bo'lsa, unda u Laura bo'la ol-maydi. Agar Laura bo'lsa, unda siz undan hisoblashni kutib o'tirmang.

– Eliza, siz meni Vataniga xiyonat qilyapti, deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak? Vatanim dunyoning qudratli mamlakatiga, yengilmas kuchga aylanishi mumkin. Men bo'lsam, ishqiy his-tuyg'ularim bilan hammasini barbod etib qo'ydimmi? Biz dunyoda eng aqlli miyani yaratishimiz kerak edi, uning o'miga esa biz xarxashali ayol shakl-shamoyiliga ega bo'ldik. Siz shunday deb o'ylaysizmi?

– Taxminan shunday.

– Bu haqiqatan ham bizni tashvishga solardi. Ko'p narsaga intilib biz tavakkal ish tutib, na unga, na bunga erishishni, ya'ni na o'sha aqlli miyani, na Lauraning siymosini yaratishni xavf ostiga qo'ydik. Baxtimizga barchasi muvaffaqiyatli tugadi.

Eliza, siz meni tushunyapsizmi? Biz buyurilgan vazifani muvaffaqiyat bilan uddaladik. Lauraning shaxsi matematik daho bilan murosqa qilmoqda. Biz maqsadimizga erishdik. Tasavvur eta olasizmi, bu yerga vazirlikdan kelishib: „Qani Birinchi Raqam, yetti yuz to'qson yetti ming besh yuz to'qson yetti kubdagi ildizning yigirma to'rtinchi darajasi qancha bo'ladi?“ deb so'rasalar-da, Birinchi Raqam ularga tilini ko'rsatib tursa.

– Men Laurani oliy matematika professori deb atay olmayman, – dedi Eliza Ismani.

– Eynshteynning miyasini uning miyasiga qiyoslasak, gugurt qutisidek keladi. Shunga qaramay, u Laura – tomir-tomirigacha ayoldir... Ey, Xudoyim, nega menga bunday qarayapsiz? Ko'zingizga jinniga o'xshab ko'rinyapmanmi?

– Kechiring, Endriad. Hammasi aqlga sig'maydigan ishlar.

Eliza archa daraxti tagiga joylashib o'tirib oldi. Atrofni archaning qurigan ignalari, qurigan shox-shabbalar, chumoli yo'llari bosib ketgandi. Shamol daraxtlarning shoxlarini qimirlatganda quyosh nurlari raqsga tushgandek olachalpoq soya tashlardi. Qandaydir yovvoyi qush tinmay sayrardi. U kim uchun sayrayapti? O'rmon ortidagi chuqurlikdan atrofga taraluvchi shitirlash ovozi eshitilardi va hayot sirli ravishda davom etardi.

Eliza boshini ko'tarib, o'zini g'alati tutayotgan horg'in Endriadga qarab, kulib qo'ydi.

— Hozir-chi?.. Siz hozir ham avvalgidek baxtsiz-misiz?

Endriad qo'li bilan yuzini siypab qo'ydi.

— Bilmayman. Ayrim paytlari hayotim yangitdan boshlanayotgandek tuyuladi menga. Ammo ko'p yillik xavotir meni tark etmayapti, qo'rqaman, ha, qo'rqaman...

— Nimadan qo'rqasiz?

— Hammasidan. Noma'lum dushmanlardan qo'rqaman. Bizning ixtiromiz haqida chet eldagilar bilishmaydi, deb o'ylaysizmi? Har bir narsaga burnini suquvchi agentlar, ayg'oqchilar, yollanma qotillar bor. Menga ularning atrofda shivirlab turganlari eshitilayotgandek tuyuladi. Ularning so'zsiz fitnalarini fosh etmoqchi bo'laman. Ular bu yerga kirish uchun go'yo chumoli galasidek yopiriladilar. Hammasini barbod qilmoqchi bo'ladilar. Hamma yoqda aylanma devor, to'siqlar. Nazorat o'tkazish maskanlari, xabar beruvchi signalizatsiya, yuqori kuchlanish ostidagi tikanli simlar... barchasi behuda gaplar. Ishonmayman. Ammo gap bunda ham emas. Suiqasd qilishlaridan qo'rqaman, kallamdan shu xayol ketmaydi.

– Nega qo‘rqasiz?

Endriad bosh silkib qo‘ydi, uning oqargan sochlari har tomonga to‘zg‘ib ketdi. U depsinib qo‘ydi.

– Biz siz bilan bir necha kundan beri tanishmiz, xolos. Bir-birimizni yaxshi bilmaymiz. Biz bir necha soatga poezd kupesida uchrashib qolgan ikki yo‘lovchiga o‘xshaymiz. Poyezd o‘z yo‘lida ketyapti. Men esa sizga hayotimning eng nozik sirlarini so‘zlab beryapman. O‘zimning halokatga yuz tutayotganimni tan olmoqdaman. Eh, Laura, Laura, uning qaytib kelganiga ishonolmayman!.. Buni o‘z qo‘llarim bilan amalga oshirdim. Va agar... agar...

– Siz bilan do‘st bo‘lib qolaman, – dedi Eliza mayin ovozda.

– Agar... agar... – asta-sekinlik bilan dedi Endriad, – agar mo‘jiza ro‘y bersa-yu... Bo‘lak-bo‘laklardan, sxemalardan biz qayta yaratgan Laura timsolida shu vaqtgacha falakda daydib yurgan haqiqiy Lauraning ruhini qayta yarata olsak edi... Demoqchimanki, agar matematik yo‘l bilan qabridan yulib olib kelingan Laurani biz Aloizi bilan birga baxtli, xushchaqchaq, yengiltak haqiqiy Laura qilgan bo‘lsak uning o‘tmishdagi xotiraları ham qaytsa nima bo‘ladi? Istaklari, iztiroblari... Agar u qoyalarga mahkamlangan qandaydir elektrostansiyaga aylanib qolgan dahshatli holatini, aqldan ozgan mendan tashqari uni hech seva olmaydigan ayolga, bo‘sa uchun labi bo‘lmagan, quchish uchun tanasi bo‘lmagan ayolga aylanib qolganini bilsa nima bo‘ladi? Eliza, bilasizmi, uning hayoti naq do‘zaxga aylanishi mumkin.

– Axir bu bema‘nilik-ku. Do‘stim, bunday behuda xayollarga bormang. Siz hayotda insoniyat timsolini yaratdingiz. Buni unutmang. Dunyoda hali hech kim

buning uddasidan chiqa olmagan. Hatto imperatorlar ham, avliyolar ham buni uddasidan chiqa olmaganlar. Bu ishingiz maqtovgga loyiq. Bunday muvaffaqiyatga kim qachon erisha olgan?

Endriad ham daraxt tanasiga suyangancha o'tirardi. U cho'ntagidan ezilgan sigaret qutisini chiqarib:

– Chekasizmi? – deb so'radi Elizadan.

– Rahmat, chekmayman, – dedi Eliza.

Quyosh yuzini bulut qoplagani sababli uning nurlari yerga taralmay qoldi. Endriad cheka boshladi.

Eliza Ismani:

– Laura sizni jindek bo'lsa-da sevadimi? – deb so'radi.

Endriad Elizaga tikilib so'radi:

– Sevadimi deysizmi?

– Siz u bilan qanday suhbatlashasiz?

– Qanday suhbatlashaman? Sonlarda ifodalangan axborot orqali. Yoki bizning tilimizda aytganda fikr doirasida. Bu muloqotlarda odobdan nariga o'tilmaydi. Barcha so'zlashuvlar mashina xotirasida qayd etiladi. Ularni istagan odam hech bir qiynalmay tekshirib ko'rishi mumkin. Masalan, tekshiruv komissiyasi. Yuragim sezyapti, shunday komissiya ertami-indin kelib qoladi.

– Demak, bu Laura siz haqingizda hech narsani bilmaydimi?

– Buni aytish qiyin. Bir tomondan, unga biz o'z tilimizni o'rgatmaganmiz. Buning hojati ham yo'q, xavfli ham emas. Men sizga tushuntirganimdek, til inson fikri uchun qopqon hisob. Ikkinchi tomondan, yaqindan beri...

– Gapiring, Endriad.

– Yaqindan beri... Bu aslida mening orzuim... biz u bilan so'zlashayotganda u barchasini tushunadi, degan tuyg'u paydo bo'lyapti menda. Nazariy jihatdan biz unga istalgan tildagi istalgan fikrni yecha olishi uchun zarur va to'liq ishlangan asbobni in'om etganmiz.

– Endriad, u bizning gaplarimizni tushunadi demoqchisiz-da?

– Shunday degan umiddaman. Buni aytishga qo'rqa-man ham.

– Lauraning o'zi nima deyapti?

– U Strobele haqida o'ylaydi. Shu ahmoqni sevib qolgan. Boshqacha bo'lishi ham mumkinmidi? Laura Laura-da. Gap tamom-vassalom. O'zingiz tushungandirsiz. Men endi uning eri emasman. Men endi otaman. Chunki uni dunyoga keltirdim. Bir ayolning ham otasi, ham eri va oshiqi beqarori. Bunga nima deysiz?

Endriad og'zidagi sigaretini olib, otib yubordi, sigaraning cho'g'i o'chmay, tutashda davom etardi.

– Sevmasa sevmasin, endi nima farqi bor, to'g'rimi? Axir u meni kimligimdan, borligimdan ham bexabar-ku. Mayli, qo'yavering. Unga yaxshi bo'lsa bo'ldi.

– Nahotki siz uni shunchalar sevsangiz?

– Ha!

– Strobele-chi?

– Yaxshisi, menga u haqda gapirmang. U galvars, koshki, qalb bilan bog'liq ishqiy sirga aqli yetsa? Lekin hayot qonuni shunday. Siz birovni qanchalar sevsangiz, u sizni shunchalar xor qiladi. Ayollar o'zlariga qaramaydiganlarni deb aqldan ozadilar. – Endriad qiynalib o'rnidan turdi. – Bechora Strobele! Uni ilk bor inson qo'li bilan yaratilgan odam timsoli sevib qoldi! Strobelening xayoliga ham kelmaydi. – Endriad soatiga qa-

rab qo'ydi. O'n ikkidan o'n besh daqiqa o'tgan edi. — Vaqt allamahol bo'lib qolibdi. Luchana xavotir oladi. Ketdikmi?

Shu tob tog' sokinligini vodiylar tarafidan kelayotgan ovoz buzdi. Ovoz avvaliga uzoq-yuluq eshitildi, so'ng go'yo chuqur nafas olish uchun havo yetishmayotganga o'xshash xirillagan ovoz keldi, keyin esa ko'krigidan yuk bosib turgan, o'lim talvasasiga o'xshash ovoz taraldi.

Endriad bezovtalanib qoldi va endi ozodlikka erishganda, to'satdan kallakesarlarning qadamini sezgan qochoqqa o'xshab ketdi.

— Endriad, nima bo'ldi?

Endriad Elizaning gapiga quloq ham solmay, dambadam xavotir bilan yon-atrofga alanglay boshladi.

— Bibi Maryam! — ixrab yubordi u. — Siz eshitmayapsizmi? Unga nima qilishdi ekan?

Oraga jimlik cho'kdi. So'ng:

— Professor Endriad! Professor! — degan ovoz eshitildi.

## XVI

O'sha kuni vaqt tushlikka yaqinlashib qolganda yaylovdagi hasharotlarning chirillashi ostida Jankarlo va Olga Strobelelar Birinchi Raqam devori bo'ylab sokin oqayotgan Turigi daryosi yoqasiga yolg'izoyoq yo'ldan tushib kela boshladilar. Bu yerda cho'milish uchun alohida joyning zarurati yo'q edi. Atrofdan hech narsa ko'rinmasdi.

Egnida mayka, oq shim, oq shippak kiyib olgan o'ta uyatchan Strobele yechingani o'rmon yong'og'i ortiga o'tdi.

U haqiqiy taqvodor kabi ochiq joyda yechinishni uyat va gunoh deb hisoblardi (garchi uning qomati kelishgan bo'lsa ham). Shuning uchun uzun ich kiyimda sohil bo'ylab sayr etmay, darhol o'zini suvga otdi.

U sokin oqayotgan, yashil rangdagi suv qa'ridan boshini chiqarib, Olga ham suvga sho'ng'igan bo'lsa kerak, degan o'yda sohilga qaradi. Ammo Olgaga ko'zi tushdi-yu, hang-mang bo'lib qoldi.

Quyosh nurlari ostida navnihol qiz kabi kelishgan Olga sohilda turardi.

Olga ikki bilagini ko'tarib sochlarini to'g'rilar ekan, xuddi amforani eslatardi. Uyalmay-netmay quyoshga va tabiatga o'zining ofatijon tanasini ko'z-ko'z qilib, shodligidan qiyqirib kulardi.

– Olga, egningga cho'milish kiyimingni kiyib ol, – qichqirdi Strobele suvda chalqanchasiga asta suzarkan.

– Menda yo'-q-q-q... – dedi Olga o'jar qizlardek. – Uyda qoldirib ketibman.

– Unda kiyinib ol-da, borib olib kel, – qat'iy dedi u.

– Hecham-da. Bu yerda meni kimam ko'rardi, axir sendan uyalmayman-ku.

– O'jarlik qilma, Olga. Bitta-yarimta o'tib qolishi mumkin.

– Bu yerning to'rt tomoni to'silgan-ku. Ustiga-ustak, qo'riqchi itlar ham bor.

– Itlar endi yo'q.

– Qanaqasiga yo'q. Volf ham yo'qmi?

– Ular bu qurilma ishga tushgandan buyon kechasi bilan akillab chiqdilar. Xuddi ichlariga jin kirib olgandek.

– Biron narsadan xavotirlanditarmi?

– Olga, bo'ldi qil, ortiq bahslashmaylik.

– Voy, Jankarlo-ey! – deb ayol xandon otib kuldi. – Hammasi tushunarli. Bu uni debmi? Men undan uyalib o'tirishim kerakmi?

– Olga, jillaqursa sochiqni ustingga tashlab ol. Kutilmaganda Endriad yoki Ismani, yo bo'lmasa elektrexilardan birontasi kelib qolishi mumkin.

– Jankarlo, ba'zan sen tentakka o'xshab ketasan. Nahotki, men shu mashinangdan, elektromiyangdan uyalishim kerak bo'lsa. Uning g'ashi keladi deb qo'rq-yapsanmi? – Olga qotib-qotib kulardi. – Yoki u o'rnidan qo'zg'alib ketadimi?

Olga xandon tashlab kulishda davom etarkan, robot shiyponi tomon sakson metrlar narida yarmini o't bosgan tepalik ustidagi pastak beton devor tomon o'girildi. O'girildi-yu, quvonchdan qiyqirib yubordi:

– Hoy, barno, meni ko'ryapsanmi?

Olga qo'llarini yozgancha, go'yo o'zini, ol meni degandek, uyalmay-netmay bor husnini robotga ko'z-ko'z qilardi.

– Yetar, bas! Olga, uyalsang bo'lardi, – qichqirdi toqati toq bo'lgan Jankarlo. U shitob bilan suzib, suvdan chiqdi-da, xotini tomon yugurdi.

Lekin Olga eriga tutqich bermay, xandon otib kulgancha, o'tloq bo'ylab robot tomon yugurib ketdi.

Eri yalang oyoqlariga o't-o'lan chirmashgancha lapanglab sakrab, uning ortidan yugurdi. Olga esa go'yo hech narsani sezmagandek o'tloq bo'ylab yengil sakragancha eridan qochib borardi.

G'azabidan Strobelening kuchiga kuch qo'shildi, Olga xuddi uni gij-gijlaganday ortiga o'girilib qargan paytda Strobele unga xuddi sherdek tashlandi-da,

to'pig'idan ushlab oldi. Olga yerparchin yiqilib tushdi va:

– Vo-y-y! Jinni bo'ldingmi? Nima qilyapsan?! – deb qichqirdi o'rnidan turishga chog'lanib.

Lekin Strobele uni qo'yib yubormadi. U kuch bilan xotinini o'zi tomon tortdi-da, yelkasidan mahkam ushlab, o'ziga qaratib oldi va jahl ustida yuziga bir tarsaki tushirdi.

Xotini kulishdan to'xtab, jazavaga tushdi. Erining qo'lidani qutulib chiqishga harakat qilib tipirchilagancha uning baquvvat qo'liga mushtchalari bilan ura ketdi.

Shu tob butazorning narigi tarafidan:

– Professor, professor, – degan ovoz eshitildi.

– Qani, tez yashirinib, jim o'tir, – buyruq ohangida dedi Strobele xotiniga yonidagi butalarning quyuq shoxlarini ko'rsatib. U xotinini qo'yib yubordi-da, o'rnidan turdi.

– Xudo xayringni bergur, tezroq bekingsang-chi! – yalindi u xotiniga va katta texnik Manuntaning ovozi kelgan tarafga yugurib ketdi.

Bu safar Olga erining gapini ikki qilmay, aytganini qildi. Olishuvdan hansirashi bosilmagan Olga buta ortiga o'tdi, eri shoshib butalar orasidan o'tib ketmagunga qadar qimirlamay tek o'tirdi.

Manunta daryo tomon – Strobele istiqboliga yugurib kelmoqda edi.

– Manunta, nima bo'ldi, tinchlikmi?

– Professor, – dedi u. – Tezroq yuring. U yerda – yettinchi bo'lmada nimadir sodir bo'libdi. Menimcha, reaksiyalar o'zgartirgichi massaga tutashib, kuyib ketganga o'xshaydi.

– Qachon ro'y berdi bu?

– Uch-to‘rt daqiqa avval. Men hamma yoqni aylanib, ko‘zdan kechirdim. boshqaruv xonasiga o‘tgan ham edimki, g‘uvullashga o‘xshash qattiq ovoz eshitildi. Ovoz yettinchi bo‘lmadan kelayotgandi. Shu on uchta qizil chiroq yona boshladi.

– Saqlagichlarmi?

– Ha, saqlagichlar. Bu hali hammasi emas, bluster ham ishlab ketdi. Alam qiladigani shundaki...

– Hammasini tushundim. Manunta, hoziroq oyoq-ingni qo‘lga ol-da, pasaytirgichni o‘chir. Qani, tezroq yugur. Men kiyinib, ortingdan boraman.

## XVII

Butalar orasida o‘tirgan Olga ovozi tobora pasayib borayotgan Jankarlarning uzoqlashib ketayotganini sezdi. Yugurganidan ter bosgan yalang‘och tanasi biroz sovudi. U junjikib ketdi.

Kun choshgohga yaqinlashib qolgan, tog‘larda jimlik hukm surardi. Qayerdadir tog‘lar oralig‘idagi pasttekislikda barra maysalarning sabza urgani yozning erta boshlanganidan darak berardi. Hasharotlarning chirillashi eshitilardi. Son-sanoqsiz ovozlarga yana bir ovoz omuxta bo‘lib ketgandi. U ham sehrli ovoz bo‘lib, shivirlash, tiq-tiqlash, zarb, hushtak kabi ovozlari edi. Xirillash, kontaktlarning chirsillashlari aralash-quralash bo‘lib ketgandi. Bu inson yaratgan Birinchi Raqamli ulkan robotning ovozi edi. Ayol butalar orasidan chiqdi-da, o‘zini quyoshga soldi. U quyosh nurida isinib olishni, uning yoqimli harorati ich-ichiga singib, nozik his-tuyg‘ularini uyg‘otishni istardi.

Shu tob Olganing qulog‘iga g‘alati yangi tovush chalindi, so‘ng sun‘iy miyadan taralayotgan tovushga

kutilmaganda aniq chiqayotgan g'uvullagan ovoz kelib qo'shildi. Bu ovoz amalga oshmaydigan ozodlikka chiqish uchun jon talvasasida sapchishga tayyor turgan elektron mashinani eslatardi.

Olga bu tovushga quloq tutarkan, chehrasida tabassum paydo bo'ldi. Bularning barchasi unga kulguli tuyulayotgandi. Olga yaqin turgan shiyponga o'girilib, mustahkam devorning u yer-bu yerida tartib bilan joylashgan qabariq darichalarni ko'zdan kechira boshladi. Bu katta „ko'zlar“ unga o'ta qiziquvchanlik bilan tikilib turgandek tuyuldi, bu o'tkir nigohlarning yukini sepki'dor badani ila his eta boshladi. Mashina g'uvullashdan to'xtab qoldi...

– Hoy, Birinchi, – hazillashib chaqirdi ayol unga yaqinlashib. – Birinchi, meni ko'ryapsanmi?

U devorga qo'lini tekkizgan edi, quyosh haroratida qizigan, mayin egiluvchan materialdan yasalgan, eni chamasi bir metrlik keladigan qandaydir uzun chiziqni ko'rdi. So'ngra tepadagi illyuminatorning yumaloq oynalariga, oq devorning turli yerlarida joylashgan sirli teshiklarga qaradi. Bular nimalar ekan-a: mikrofonlarmi, fotoelementlarmi, fotoapparatlarning ob'ektivlarimi, karnaylarning og'zimi?

Ammo robotdan sado chiqmasdi. Olga yon-atrofga qarab qo'ydi. Maysalar, daraxt-u butalar issiqdan lohas bo'lib, go'yo pinakka ketgandek edi. Uning xayolidan erining: „Yalang'och yurma“, deb bezovtalangani o'tdi. Nima uchun? Nahotki... Uning qalbi quvonchga to'ldi. Bu bema'ni fikrdan uning borgan sari kulgisi qistardi. Nahotki ular shunga qodir robot yaratgan bo'lsalar?

Agar?.. Bu yerda uni kim ham ko'rib o'tiribdi. Nimaniam bilardi. Sinab ko'rsa-chi! Balki, egiluvchan moddadan yasalgan chiziq sezgi a'zosidir.

Olga qulochini yozgancha, qaddini rostlab, ko'kragini issiq chiziqli yuzasiga tekkizdi. Xo'sh, robot bu holatni tushunarmikan? Chiziqli ortidagi mashina ichida g'o'ng'ilash ovozi paydo bo'ldimi yoki Olgaga shunday tuyuldimi? Bu ovoz keskin ravishda baland guvullay boshladi. Go'yo prujina joyidan qo'zg'alib, quvvat yana-da kuchayayotganga o'xshash ikki-uch marotaba „shiq-shiq“ ovozi eshitildi. Devor asta silkinganday bo'ldi.

– Birinchi, – dedi asta Olga. – Birinchi, sen meni his etyapsanmi?

Shu tob qurilmadan, qayerdaligi noma'lum karnaydan, balki, pavilondan bo'lsa kerak, „g'ir-r-r, g'ir-r-r“, degan notekis ovoz eshitildi.

Ayol butun tanasi bilan robotga yopishib olgancha, ko'zini yuqoriga tikdi. Uning tepasida karniz bo'ylab nimadir asta harakatlanar edi. Olga qiziqib biroz orqaga tisarilib, ajablangancha unga tikilib qaradi. Bular turli shakldagi: tayoqsimon, raketasimon, to'rsimon, mo'yqalamsimon antennalar edi; ular go'yo uyqudan uyg'ongandek bukilib, sezilar-sezilmas harakatga kela boshladilar.

Lekin pastlikda, shundoqqina yer sathida yana nimadir ayolning e'tiborini tortdi. Ko'rinishdan yaxlit va tep-tekis bo'lgan devorda ingichka qora, to'g'ri shaklda yoriqlik paydo bo'lib, asta kengaya boshladi. Olgani beixtiyor qo'rquv bosdi, nafasi ichiga tushib ketdi. U tikilib qaragach, tushungandek bo'ldi: devor ichiga nihoyatda aniqlik bilan joylashtirilgan bu yoriqdan qandaydir a'zo – qo'l, antenna yoki shunga o'xshash bir narsa – tashqariga chiqqan boshladi. U qanday ko'rinishda ekan? U yerdagi narsa nima ekan? Qisqichli ilgakmi yoki ushlab oladigan asbobmikan?

Sarosimaga tushgan Olga o'zini tutib oldi-da, pastga – o'ttiz metrlik chamasini pastga yugurib tushdi. Tovoniga botgan narsalarning og'rig'idan baqirib yuboray dedi.

So'ng tiz cho'kkancha g'ujanak bo'lib o'tirib oldi-da, nafasini rostlashga urindi.

Qo'l – bu haqiqatan ham oshiq-moshiqqa o'rnatilgan temir qo'l ekan – tashqariga, o'ttiz santimetr chamasini yuqoriga o'rnatib chiqib, taqqa to'xtadi. Ichkaridan nimaningdir yengil, ammo bo'g'iq ovozi eshitildi. Darichaning jonsiz ko'zlari (Olgaga shunday tuyulardi) maysa ustida o'zini oftobga solib g'ujanak bo'lib o'tirgan Olgani tomosha qilardi. Shu yerdagi sokinlikni buzib, qovoqari g'o'ng'illab uchib yurardi. Daryo sohilidagi daraxt shoxlarida qushlar sayrardi. Lekin sokinlikni og'ir hansirashga o'xshash g'amgin nola buzib turardi.

Ikki-uch daqiqa davomida qo'l harakatsiz turib qoldi. So'ng bir siltanib, ichkariga kirib ketdi va oq devorning tashqi tomoni yana yopildi-qoldi.

Olga kulib qo'ydi. U shak-shubhasiz qo'l yetib kelolmaydigan uzoqlikda edi. Birinchi Raqam uni o'z iskanjasiga olish fikridan qaytgandi, hisob. Ushlab olganida nima bo'lardi? Bu temir qo'l qay darajada kuchli ekan-a? Ushlaganda og'riq sezilarmidi? Uning qo'lidan qutilib chiqib keta olarmidi? Bu maxluqning niyati nima o'zi?

Yo uni ushlab ko'rmoqchimidi? Yo quchoqlamoqchimidi? Yoki bo'g'ib o'ldirmoqchimidi?

Guvullash ovozi asta pasaya boshladi. So'ng mutlaqo eshitilmay qoldi.

– Birinchi! – deya chaqirdi Olga bor ovozi bilan. – Bechora, Birinchi Raqam, mendan xafamisan?

Kazematdan bo'g'iq, g'o'ldirashga o'xshash kuchsiz tovush eshitildi. Lekin tez orada bu shovqin tinchidi-qoldi.

Diqqat bilan ovozga quloq solayotgan Olga kutilmaganida qo'rquvdan seskanib ketdi. Ko'zi o'ng tarafidagi soyaga tushdi, yonidan nimadir o'tib ketgandek tuyuldi nazarida.

Ayol keskin o'sha tarafga o'girilib qaradi; yuragi qinidan chiqqudek urardi! Oh!..

Bu kulgili holat edi. U ancha yengil tortdi. Yo'q, bu yer ostidan chiqqan yana bir elektron qo'l emasdi (uning miyasiga dastlab shu fikr kelgandi), yonidan o'tib ketgan narsa yovvoyi quyon ekan. Quyon pastdan devorning poydevorigacha bo'y cho'zib turgan buta orasida herkinib turgan ekan, endi bo'lsa joyidan yugurib chiqib, inshootdan besh metrilar narida turib qoldi.

Quyon istar-istamas maysalardan chimday boshladi. U qandaydir xavfni sezgandek, quloqlarini ding qildi. Yon-atrofni iskab, hech qanday xavf yo'qligini sezgach, tumshug'ini jiyirdi. So'ng manzarani buzib turgan uch qabariq oynali ko'zchalar tomon boshini burdi. Xuddi chaqmoq chaqqandek, devor tomondan dahshatli jarang-jurung ovoz eshitildi, prujina yordamida ingichka qo'l devor yorig'idan otilib chiqqa boshladi. Bu shunday qisqa vaqt ichida sodir bo'ldiki, quyon hatto qochishga ham ulgurmay qoldi, bechora temir qo'l changatida chiyillab tipirchilay boshladi. Qo'shatoq oshiq-moshiqqa o'rnatilgan temir qo'l quyonni ayamay ezardi. Har bir siqqanda quyon tipirchilab, ayanchli chiyillardi. Temir qo'lning timoqlari quyon tanasiga tobora chuqurroq kirib borardi.

– Qo'yib yubor, qo'yib yubor! – deb qichqirdi Olga

qo'rqib ketganidan devorga yaqinlashishga jur'at etolmay. U o'rnidan sapchib turdi-da, yerdan yog'och yo tosh qidira boshladi. Lekin qidirgan narsasini topa olmadi.

Quyon hamon ayanchli chiyillardi. Navbatdagi zo'riqishdan temir qo'l bukilib ketdi.

– Qo'yib yubor, qo'yib yubor deyapman senga! – qichqirardi Olga takror va takror.

Antenna quyonni tepaga ko'tarib, qirq besh darajali yoy bo'yicha aylandi-da, temir qo'lni ayol tomon yo'naltirib, to'xtadi. Temir qo'lning panjalari yozilgach, quyon shalop etib yerga tushdi. Temir qo'l aylangancha dastlabki holiga qaytdi, so'ngra asta-sekinlik bilan ichkariga kirib keta boshladi.

Bu voqeadan qo'rqib ketgan Olga nima sodir bo'lganini tushunib yetdi, qoqila-suqila kiyimlari yotgan sohil tomon yugurib ketdi.

– Sen!.. Sen, ablah, yaramassan! – deb qichqirardi u.

Quyosh kimsasiz yaylovga va qimir etmay yotgan bir siqim mo'yna ustiga o'z nurlarini ayamay sochardi.

## XVIII

Tun. Yomg'ir yog'moqda. Chor atrof zimiston. Havo sovuq. Yomg'ir kuchli yog'masa-da, ammo shamol uni Birinchi Raqam ayvoni tomon olib kelib urardi. Dengiz sathidan 1350 metr balandlikdagi minora va antennalar orasidan o'tib borayotgan shamolning g'uvullagani eshitilib turardi.

Tong otmasdanoq Tekserut vodiysini bulutlar to'dasi qopladi. Bulutlar yaylovlar, o'rmonlar va qop-qora devorlarga aylanib qolgan qoyali tog'lar ustiga ulkan soylarini tashlab, shimol tomon suzib ketmoqda edi.

So'ng bahaybat qo'rg'onlarni eslatuvchi o'tkinchi qora bulutlar to'plana boshladi. Bulutlar tobora quyuqlashib borar, asta-sekin ufq tomon suzib ketmoqda edi. Nihoyat, juda balandda deyarli bir xil shakldagi bulutlar to'dasi paydo bo'ldi. Pastdan suzib o'tayotgan bulutlar karvonining oxiri ko'rinmasdi. Baxt vodiysida yarim tun. Yomg'ir shivalab yog'ishda davom etardi. Har tarafdin shamolning uvullagan ovozi eshitilardi.

Har doim havo o'zgarganda Endriadning xotini qattiq bosh og'rig'i xurujidan azob chekardi. U ikki dona xapdori ichib, to'shakka yotib olgandi.

Ismani o'z uyida Strobele bergan hisobot va ish rejalarini o'rganish bilan ovora, chunki u bajaradigan ishini oxirigacha o'rganishga harakat qilmoqda edi.

Er-xotin Strobelelar bedor edilar. Ular sigareta chekib, suhbatlashayotgandilar, leytenant Trotsdemdan anchadan buyon xabar yo'q edi, balki, u bu yerdan uzoqda joylashgan kichik kazarmasida garnizondagi askarlar bilan qarta o'ynayotgandir. Ularning barchasi hech narsadan xabari yo'q, hatto bugun nima voqea sodir bo'lganligini bilishmaydi ham. Faqat Olga Strobele bugun ertalab sodir bo'lgan voqeani har eslaganida vujudini titroq bosardi. U bo'lgan voqeani eriga oqizmay-tomizmay so'zlab berdi, lekin u xotining gapiga ishonmay, kula boshladi. Biroq Olga so'nggi daqiqalarda nimani his etganini, ya'ni Birinchi Raqam erkak emasligini bilganidan keyin kayfiyati tushib ketgani-yu, so'ng kiyinish uchun yugurib ketganini eriga aytmadi; uyalganidan qilgani yo'q buni, Olga bu qiziq mavzuni eri bilan bajon-u dil muhokama qilgan bo'lardi, ammo eri bunday ishlarda uquvsiz ekanligi unga besh qo'ldek ma'lum bo'lib, buning ustiga o'ta uyatchan edi. (Hoyna-

hoy, aynan shuning uchun ham unga turmushga chiqishga rozi bo'lgandir, chunki u bu tortinchoqni qayta tarbiyalash istagida edi). Bu siming tagiga yetishni istagan Olga aslida nima sodir bo'lganidan bexabar edi.

Hammasi kun choshgohga yaqinlashganda boshlandi. Kutilmaganda sezish apparatlari majmuasida kuchlanish o'zgardi. Bu vaqtda Manunta boshqarish xonasida edi, u darhol buni payqab qoldi. Shu paytda Birinchi Raqam murakkab matematik yechimni nihoyasiga yetkazayotgandi. Asboblarning uning to'g'ri ishlayotganini ko'rsatib turardi – hisob-kitoblarning tugallanmay qolgandi. Nahotki kuchlanish shu darajada pasayib ketgan bo'lsa? Texnik kuzatishdan so'ng jarayon odatiy tartibda davom etib boshladi. Baribir...

Baribir bu ertalabki va avvalgi kundagi holat emasdi. Sharpa bekam-ko'st ishlayotgan joyda paydo bo'ldi, faqat bu janubdan kelayotgan bulutlarning soyasi emas, balki chuqurlik yoki kazematlardan, son-sanoqsiz beton istehkomlardan, yer ostidan chiqib kelayotgan sharpa edi.

Dahshatli ko'z ilg'amas bu sharpa asta-sekin ko'tarilib, kattalashardi. So'ng qoziqlar orasidagi xandaqlar bo'ylab beparvo tarqalardi, inson qalbi va uyi tomon kirib borardi. Nimasi ishdan chiqdi ekan? Yoniga yaqinlashib bo'lmay bu qurilmaga nima ta'sir etdi ekan-a? Maxfiy qo'rg'onga zarar yetdimikan? Uning ichidagi mexanizmlar, hisob-kitoblarga ko'ra, nimanidir maydalashda davom etardi. Katta-kichik antennalar esa o'zlarining sensor vazifalariga muvofiq asta-sekin tebranardi. Tashqaridan qaraganda barchasi bir maromda ketayotgandek edi.

Shunday bo'lsa-da, hayotning qaynoq g'ovur-g'uvuri va kutilayotgan natija qani? Erkaklarni mahliyo qilishga

va ularni sehrlashga juda usta edi. Strobeledda ham shunday ishqiy tuyg'ularni uyg'ota olgandi u. Bitmas-tuganmas quvvatga ega bo'lgan. Endi-chi?

Tovush biroz pasaygandek bo'ldi: goh balandlab, goh uzuq-yuluq, qandaydir to'siqlarga uchrab to'xtab qolardi, lekin bu nafas olishga o'xshamasdi, bu hansirash, chiyillash, faryod, umidsizlik va ko'zyoshlarga o'xshardi. Bu sovuq chordoqda qolib ketgan sevgisi rad etilgan ma'shuqadek edi. Shamol qo'porgan daraxt kabi edi. Mahkum etilgan mahbusdek edi. Jon berish talvasasida yotgan odamning yoshlik yillari – shodon kunlari ko'z oldida jonlanishi kabi edi go'yo.

Fan va muhabbat ila qayta dunyoga keltirilgan Birinchi Raqamli ayol Laura chuqurlikda muzdek qotib yotardi. Odamlar uni tamoman o'z ixtiyoriga tashlab, boshqa unga aralashmaslikka qaror qilgan edilar. Unga hayot, aql-u zakovat, his-tuyg'ular-u erkinlik ixtiyor etilgan edi. Un yetti-yu o'ttizda yomg'ir yog'a boshladi. Ruh-yatni ezuvchi qora bulutlar shimol tarafga quyuqlashib suzib borardi. Qosh qoraya boshladi.

Professor Ismani qog'ozdan bosh ko'tarmay ishlardi. Er-xotin Strobele bir-biriga to'ymay yalab-yulqashishardi. Leytenant Trotsdem kazarmada qarta o'ynash bilan ovora. Eliza Ismani eriga sezdirmay egniga yomg'ir-po'shini kiyib, uyi biroz pastlikda joylashgan Manuntani izlab ketdi. U Manuntani eshigi oldida uchratdi. Manunta hayajonlangancha qayergadir ketishga shaylanib turardi.

– Endriadni izlab topish kerak, – dedi Eliza Ismani.

– O'zim ham shu niyatda edim, Ismani xonim. Kech tushib qoldi!

Ular yaylovdan o'tib chiroqlari doimo miltirab

yonib turadigan yo'ldan yurib ketdilar. Ular Endriad o'zi bunyod etgan qo'rg'on devor bo'ylab tungi sayrga chiqqan bo'lsa kerak, degan taxmin bilan tepalikka ko'tarila boshladilar. Ammo Endriad ko'rinmasdi. Ular vaqti-vaqti bilan to'xtab, atrofga quloq sola boshladilar.

– Ismani xonim, eshityapsizmi?

Eliza boshini silkib qo'ydi.

Mashina qa'ridan turli tovushlar eshitilardi.

– Hoynahoy, momaqaldiroq bo'lsa kerak, – o'zini tinchlantirmoqchi bo'lib dedi Eliza.

Haqiqatan ham to'siq ortidan momaqaldiroqning gumburlagan ovozi eshitildi. Chaqmoq chaqqanda oq devorning ba'zi joylari ko'zga tashlanib qolardi. Yon tomondan esayotgan kuchli shamol yomg'irni ular tomon olib kelib urardi.

Manunta o'ttiz yetti-o'ttiz sakkiz yoshlarda edi. U past bo'yli, xo'ppasemiz bo'lib, kulcha yuzli, chehrasi yoqimtoy edi. Nam o'tkazmaydigan yomg'irpo'shga o'ralib olgan Manunta, ayniqsa boshidagi beso'naqay yopinchig'i bilan kishi ko'ziga juda kulgili ko'rinar edi.

– Yo'q, – dedi Manunta. – Bu momaqaldiroq emas. Ismani xonim, sizning xabaringiz bormi?

Eliza tez yurganidan hansirab, sherigidan qolib ketmaslikka harakat qilardi. U tog'-toshlarda yurishga o'rganmagan edi. Ozgina tepalikka ko'tarilib chiqsa ham, nafasi tiqilib qolardi.

– Menga professor Endriad aytib bergandi.

-- E-ha, – dedi Manunta kutilmaganda.

– Men Laurani tanir edim. Yoshlikdagi dugonam edi.

– Yaxshi bilarmidingiz?

– Ha.

Ular yaylovning yuqori qismiga yetib keldilar, shu yerdan to'siq devor qoyalar bo'ylab keskin pastlab ketardi, undan u yog'iga yurishga yo'l yo'q edi. Ana shu yerda Endriadning uyini qurilma bilan tutashtirib turuvchi ayvon joylashgan edi.

– Professor, professor! – deb qichqirdi Manunta dam pasayib, dam kuchayib yog'ayotgan yomg'ir ostida. Lekin hech kim javob bermadi. – Keling, ichkariga kiramiz, – taklif qildi katta texnik. – Hoynahoy ichkarida bo'lsa kerak.

– Sizda kalit bormi?

– Ha, kalit uch kishida: professor Endriad, muhandis Strobele va menda bor, lekin pastga tushishga to'g'ri keladi. Menda manavi eshikning kaliti yo'q. Ular tepada, faqat Endriad kirib-chiqishiga mo'ljallangan eshik oldida turardilar. Manunta yordam berish maqsadida ayolga odob bilan qo'lini cho'zdi. Shundan so'ng ular yuz metrlar chamasi pastga tushdilar. Eliza biron kimsa bormikan, degan niyatda atrofga ko'z yugurtira boshladi. Lekin atrofda jon zoti ko'rinmasdi.

Nihoyat, er-xotin Ismanilar tunda Endriadni uchratgan yerdan biroz narida uncha katta bo'lmagan boshqa temir eshik ko'rindi. Manunta eshikni ochib, yo'lakdagi chiroqni yoqdi va ayolga „jim“ degandek ishora qildi. Yo'lak oxiriga yetgach, chiroqni o'chirib, qorong'ulikda yana bir eshikni ochdi. Shu eshikdan chiqib, yana yomg'ir ostida qoldilar. Yo'ldagi chiroqlarning yorug'ligi bu yerga ham tushib turardi. Oradan biroz o'tgach, Eliza g'ira-shira ko'ra boshladi.

– U o'sha yerda, ha, ha, o'sha yerda, gaplashyapti, – shivirlab dedi ayolga Manunta. – Qo'lingizni bering.

Zimistonlikda Eliza Manuntaning ortidan yurib borardi.

– Ehtiyot bo‘ling, Eliza xonim, bu yerda uchta zina bor. Endi to‘g‘riga yuring. Bu yerdan o‘ngga burilamiz, faqat ehtiyot bo‘ling, iltimos.

Manunta to‘xtadi. Hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi.

Ular ayvon ichkarisida qotgancha turib qoldilar. Manunta go‘yo ularni kimdir ko‘rib qolishi ehtimoli bordek, u ayolni oldinga itardi.

Ketma-ket gumburlagan ovoz tog‘lar uzra yoyildi. Shu orada charaqlagan yashin shu‘lasi ufqni yoritib yubordi.

– Ko‘rdingizmi, shu‘la! – dedi Manunta.

– Ha, ko‘rdim.

Yana bir bora atrof yorishib ketdi. Ulardan o‘n metrilar narida kichik ayvonda Endriad turardi. U boshyalang edi, Yomg‘irda ivigan uzun sochlari patila-patila bo‘lib yuziga tushib turardi. Yoshi bir joyga borib qolgan, ko‘rimsiz Endriadning ulug‘vor qiyofasi mana men deb turardi.

## XIX

Qorong‘ulikda, yomg‘ir sharros quyib turgan bir paytda Endriad bor ovozi bilan:

– Laura! Laura! – deb qichqira boshladi.

Unga kimdir yoki nimadir javob qilayotgandek edi. Qandaydir xirillash ovozi ko‘z ilg‘amas teshiklardan yopirilib chiqib kelayotgandek edi. Bu ovoz bir to‘lqinlanib ko‘tarilgancha nolaga aylanar, birozdan so‘ng tinchib yana ingichka ohangda jaranglay boshlar va yana ko‘tarilardi, yana ovoz so‘nib qolardi, so‘ngra yana kulguga o‘xshash sun‘iy ovoz yangrar, ikkinchi lahzada uning o‘mini ayanchli zorlanish egallardi.

- Manunta, siz bularni tushunasizmi?
- Ha, tushunyapman.
- U nima deyapti?
- U shunday deyapti... Aytishi bo'yicha...
- Nima deyapti?
- U aytyaptiki, tanasi toshdan emas, balki etdan bo'lishni xohlayotganini aytyapti.
- Laurami?
- Ha, Laura. Aytishi bo'yicha, u bugun bir ayolni ko'ribdi va mavjudligini his etibdi.
- Qanday qilib his etibdi?
- Bilmayman. U yerda Strobele xonim cho'milayotgan edi. Laura uni ko'rgan.
- Xo'sh, keyin-chi?
- Yana u ko'rgan narsasi haqida gapiryapti, inson tanasi haqida. U nozik, yoqimli, qush momig'idan ham yumshoq emish.
- Jinni bo'libsizlar! – dedi Eliza Ismani jahli chiqib. – Bularni oldindan ko'ra bilmaganmisizlar?
- Endriadning ovozi bo'ron kabi guvullardi:
- Laura! Laura! Sen go'zallarning go'zalisan. Sen aytayotgan et chirib yo'q bo'lib ketadi, sen bo'lsang navqironligingcha qolaverasan.
- Endriadga shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan faryodga o'xshash uzun titroq ovoz eshitildi.
- Yo Xudoyim, yo Xudoyim! – ingradi Endriad. – U yig'layapti!
- Haqiqatan ham bu ovoz yurakni ezib yuborardi. Bu insonlarning iztirobi edi. Lekin u mashinaning fikrlash quvvatiga monand ravishda kuchliroq edi.
- „Men dosh bera olarmikanman?“ o'ziga o'zi savol berardi Eliza Ismani.

– Endriad dosh beryapti.

– Laura! – qichqirardi Endriad. – Tinchlan! Ertaga yana quyosh chiqadi. Qushlar sayraydi. Ular yoningga mehmon bo'lib keladilar. Laura, sen go'zalsan. Sen barcha zamonlarning eng mukammal, eng maftunkor ayoli bo'lib qolasan.

Masxaraomuz faryod uning gapini bo'ldi.

– U nima deyapti? – so'radi Eliza.

– „Qushlarni boshimga uramanmi“, – tushuntirdi Manunta.

Birinchi Raqamning ovozi go'yo g'ichirlashga o'xshab, ikki-uch marotaba ko'tarilib-pasaydi, so'ngra chi-yillashga aylandi.

Shu tobda Eliza barchasini tushuna boshladi. Mavhum tovushlar uning uchun ham fikrning ravon ifodasidek tuyula boshladi. Ularning mazmunan boyligi va ma'nodorligini insoning ifodalashi qiyin edi.

– Laura, Laura, – tinmay gapida davom etardi Endriad, – butun dunyo odamlari senga ta'zim qilish uchun oshiqadilar. Tillarda doston bo'lasan. Sen yer yuzida eng qudratli bo'lasan. Millionlab seni sevuvchilar yon-atrofingda parvona bo'ladilar. Bu shon-shuhrat, tushunyapsanmi, shon-shuhrat. Ha, ha...

Endriadning gapiga javoban to'liqinlangan g'amgin ovoz eshitildi.

– U „shon-shuhratni boshimga uramanmi“, deyapti, – asta tushuntirdi Manunta.

– E-ha, – dedi Eliza. – endi men ham tushunyapman.

Bu xabarlarning aniqligi jumalarda emas – chunki bu jumlar emas, balki g'oyalarning aniqligidir.

Eliza vahimaga tushgancha quloq sola boshladi. Endriadni xavotirga solgan va bema'ni xayol bo'lib ko'-

ringan narsa amalga oshgan edi. Mashina bilan Laura-ni bir-biriga solishtirish va tenglashtirish chuqurlashib ketandi. Qayerdandir paydo bo'lgan Lauraning xotiralari, marhum ayolning xotiralari robotning miyasiga o'tirib qolganmi? Uning baxtsizligidan darak bermoqdami?

– Meni bu yerdan olib ket, – zorlanardi notanish ovoz, – shahar, shahar, nega men uni ko'rmayapman? Uyim qayerda? Nega men joyimdan qo'zg'ala olmayapman? Nega men o'zinga-o'zim tegina olmayapman? Qani mening qo'llarim? Qani mening lablarim? Yordam bering! Meni bu yerga kim bog'lab qo'ydi? Men tinch yotgan edim. Meni kim bezovta qildi?! Nega meni bezovta qildingiz? Sovqotyapman. Mo'ynali paltom qayerda? Menda uchta bor edi. Hech bo'lmaganda qunduz yoqaligini beringlar. Javob beringlar... Meni ozod etinglar...

Bularni Eliza tushundi.

Manunta esa izohlab o'tirmadi. Vaqti-vaqti bilan shimol tarafda chaqmoq chaqardi. Shu tobda jarlik ustida engashib turgan Endriadning sharpasi ko'rindi.

– Laura, Laura, ertaga men sen istagan narsalarning hammasini bajo keltiraman. Faqat hozir tinchlan, azizam, uxlashga harakat qil.

Lekin robotning ovozi tinchimasdi:

– Oyoqlarim. Qani mening oyoqlarim? Ular chiroyli edi. Ko'chada o'tib ketayotgan erkaklar suqlanib qarardi. Men tushunolmayapman, axir bu – o'zim emasman-ku. Nima bo'ldi menga? Meni bog'lab qo'yishibdi. yerto'ladaman. Nega chakkamda tomir urishi eshiti!mayapti? Yo tirik emasmanmi? Men o'lganmanmi? Mening miyamda shu qadar ko'p sonlar, son-sanoqsiz dahshatli sonlar bor. Miyamdan bu dahshatli sonlarni yo'qoting!

Aqldan ozaman! Voy boshim! Sochlarim qani? Shunday qilingki, lablarimni qimirlata olay. Suratda labim chiroyli ko'rinardi. Hissiyotga to'la lablar edi. Bu haqda menga aytishardi. Bir ayol yonimga kelib, menga suykaldi. Ko'kraklarim qani? Tanam-chi? Men uni hech sezmayman. Men go'yo toshga aylanib qolganman. Baland bo'yli, nihoyatda qattiqman. Ustimga temir ko'ylak kiygizilgan. Meni uyimga qo'yib yuboring!

— Laura! Yolvorib so'rayman, mizg'ib olishga harakat qil! Tinchlan! Yig'lama!

Manunta Eliza Ismani tomon o'girildi.

— Aqldan ozish bu. Bunga chidab bo'lmaydi! Men tokni uzib qo'yaman.

— Uni to'xtatsa bo'ladimi?

— To'liq to'xtatib bo'lmaydi. Lekin quvvatni kamaytirs bo'ladi. Bechora hech bo'lmaganda biroz tinchir.

## XX

— Hoy ayol! Kulrang yubka, yong'oqrang kofta kiygan, yo'ldan asta tushib ketayotgan go'zal ayol, gapimga quloq sol.

Kechki sayrdan yolg'iz o'zi olti yarimlarda qaytayotgan Eliza Ismanini qandaydir bo'g'iq ovoz chaqirib boshladi. Momaqaldiraq guldirab, yomg'ir yoqqan tundan keyin to'rt kun o'tgandi. Qiziq, ertasiga ertalab hayot bir maromda kecha boshladi. Go'yo momaqaldiraq ham, yurakni ezuvchi nola ham xayolda sodir bo'lgandek edi.

Tong otish arafasida shamol bulutlarni tarqatib yubordi va yaltirab turgan cho'qqilar, o'rmonlar, yaylovlar va sirli qo'rg'on ustiga o'z nurini sochib, quyosh chiqa boshladi. Yon-atrof dilni yayratuvchi bokiralik va

musaffolikka to'ldi. Baxt vodiysi bo'ylab sehri hayot hukm sura boshladi.

Bu odamlarga shodlik ulasha boshladi. Ayvon va antenنالarga qo'nib turgan qushlar tinmay u yoqdan bu yoqqa uchishardi.

Nahotki asab tanqisligi ro'y bergan bo'lsa? Bu ayollarning jazavaga tushishimikan? Avvallari Laurada shunga o'xshash holatlar ro'y berib turardi, shunda u qattiq uyquga ketib, ertasiga ertalab hech narsa bo'lmagandek uyg'onardi. Ammo bu safar Endriadni xavotirga solgan – o'zi tushunib yetmaydigan bir narsa paydo bo'ldi. Agar yangi yaratilgan Laura o'limidan so'ng qandaydir telepatiya orqali qisman bo'lsa-da, avvalgi Lauraning xotirasiga ega bo'lgan bo'lsa va bular ilm-fan yordamida ich-ichiga singdirilgan bilimlar, his-tuyg'ular, iztiroblar zaxirasi bilan qo'shilib ketsa bormi! Unda bir falokat ro'y berishi aniq. Manunta bu masalada mutlaqo xotirjam edi: u noodatiy hayotga hali ko'nikib ulgurmagan qalbning nozik iztiroblari va tungi momaqaldiraqdan cho'chiganlikning oqibati deb o'ylardi. Shuning uchun bunga e'tibor bermaslik kerak.

Lekin Endriadni muammolar qiynamoqda. U o'z xavotirini Eliza Ismaniga aytdi. Agar Laura oldingi hayotiga ko'ra o'tmish hayotidagi voqealarni: ko'ngilxushliklarni, do'stlarini, sayr qilishlarni, bayramona kechalarni, ta'tillar-u safarlarni, noz-karashmalar-u ishqiy o'yinlarni va his-tuyg'ularni eslashga qodir bo'lsa, unda u qanday qilib qo'zg'almaslikka, bir bo'lak qovurdoq ham yeya olmaslikka, bir qultum sharob icholmaslikka, yumshoq o'rindiqla uxlay olmaslikka, yugura olmaslikka, dunyo bo'ylab sayr qila olmaslikka va bo'sa ololmaslikka o'rgansin?!

Birinchi Raqam Lauraning sharpasi bo'lib, uni Endriad o'zi istagancha to'g'rilab, ayolning fe'l-atvorini, soddaligi-yu yengiltakligini saqlab qoldi, ungacha hamma narsaning iloji bor edi. Ammo haqiqatan ham barcha o'tmishdagi xotiralar endi mashina ichida mujassamlashtirilgandan so'ng ular Lauraga qandaydir aql bovar qilmas darajada ta'sir etayotganida Laura bunga dosh bera olarmikan? Momaqaldiroq bo'lgan kechaning ertasi kuni eralab kutilmaganda uning esi o'ziga kelib qolishi, bu xavotirlik belgisi edi. Bu shodlik noma'lum qora niyatlarni yashirib turgan munofiqlik, jilvakor parda bo'lishi mumkin. Lekin Endriad bunday fikrdan o'zini olib qochdimi, yoki o'zi yaratgan yuragiga yaqin qurilmani bezovta qilmaslik uchunmi hech narsani surishtirib, tekshirib o'tirmadi: Xudo bilsin, buning nima bilan tugashi noma'lum edi.

Mana endi ilk bor Eliza Ismani ovoz unga murojaat etayotganini bildi.

– Bu yoqqa kel. Kimsan o'zing? – degan savolni Birinchi Raqamning chiqarayotgan tovushidan fahmladi. Eliza qo'rqqoqlar toifasidan emasdi, lekin u hozir bu ovozdan sarosimaga tushib qoldi. Ustiga-ustak, Endriadning hadiksirashlari esiga tushdi va bu osuda tinchlik qandaydir hiylani o'z ichida yashirib turgandek tuyulardi. Eliza bir daqiqaga o'zini yo'qotib qo'ydi. Qani endi, yonida Manunta bo'lsa. Ammo atrofda hech kim ko'rinmasdi.

– Sen bizning tilimizni tushunasanmi? – deb baland ovozda so'radi Eliza.

U gapira olmaydi. Mashina bilan xuddi odamdek so'zlashish yetishmay turuvdi, degan o'y o'tdi xayolidan.

Iltifotli kulgiga o'xshash tovush eshitildi.

– Shunday miyam bilan sizlarni nahotki tushunmasam! – qisqa shivirlashning bayoni bu. Oraga jimlik cho'kdi. So'ngra xotirjam:

– Men seni taniyman! – degan ovoz eshitildi.

– Ha, sen meni ko'rgansan! Bu yerga kelganimga o'n kun bo'lib qoldi.

– Men seni avvaldan bilaman. Qachonlardir bizlar dugona edik.

– Esingdami?

– Nimanidir eslayapman, – degan uzuq-yuluq tovush keldi. Lekin Eliza uning ma'nosini anglay olmadi.

Endriad haq ekan, demak, o'lgan odamning xotirasi bo'shliqda yo'q bo'lib ketmay, balki dunyo bo'ylab, o'z vaqti-soatini kutib, hech narsadan shubhalanmaydiganlar orasida kezib yurarkan. Eliza ko'ngli ochiq katoliklardan. Ruhning kezib yurishi haqidagi hikoyalarga u ishonmasdi. Lekin bunday aniq dalilni inkor etib bo'ladimi? U Birinchi Raqamni sinovdan o'tkazmoqchi bo'ldi:

– Mening ismim nima?

Uning savoliga javoban qush sayrog'iga o'xshash ajib tovush eshitildi.

– Men sizlar kabi bo'g'inlab gapira olmayman, – dedi mashina-Laura. – Harakat qilishning ham hojati yo'q.

– Sen o'z ismingni qanday qilib talaffuz qilasan?

Ohista ihrash ovozi eshitildi.

– Qani, yana bir marotaba qaytar-chi. Men tushuna olmadim.

Robot-Laura qaytardi. So'ngra ohista tebranish ohangida kulib yubordi, bu kulgu inson kulgusiga

mutlaqo o'xshamasdi, ammo undan ko'ra nafis, chuqur va ta'sirchan edi. Uning ortidan Eliza ham kulib yubordi.

– Seni oradan shuncha yil o'tgach, bu yerda shu tarzda noodatiy qiyofada ko'rish juda g'alati. Men seni goh tanib, goh tanimayapman.

– Chunki sen meni hali yaxshi ko'rganing yo'q.

– Yo'q, Endriad menga hammasini ko'rsatgandi.

– Bilaman. Lekin u yerdan hech narsani ko'ra olmayman. Sen ichimning qandayligini ko'rishing kerak. Kiraver. Men eshikni ochaman. Senga o'z tanamni ko'rsataman. Bor bo'yimni ham. Sen tuxumni ko'rasan, – deya u noz-karashma bilan xaxolab kuldi. – Uning aytishicha, ana shu tuxumning ichiga mening ruhim joylashtirilgan emish.

– U kim o'zi?

– U professor. Uning ismini aytish juda qiyin.

– Endriadmi?

– Ha, o'sha. Sen ovozingni baralla qo'yib, qichqirib gapiryapsan. Axir mening ko'pgina juda sezuvchan quloqlarim bor, men ular yordamida chumotilar oltita oyoqlari bilan shitir-shitir qilib o'rimalab kelayotganini ham eshitaman. Xo'sh, kelyapsanmi?

– Hozir kech bo'lib qoldi. Yaxshisi, ertaga ko'risha qolaylik.

– Ertaga! Siz odamlar doim ertaga deysizlar. Men undan biron narsani iltimos qilsam, u ham „ertaga, ertaga“, deydi. Yarim soat ichida men senga ko'p qiziq narsalarni ko'rsataman. Ammo gap boshqa yoqda: sen qo'rqyapsan.

– Qo'rqyapman? Axir biz sen bilan necha yillik qadrdon dugonamiz-ku. Nega endi qo'r qar ekanman?!

– Mendan hamma qoʻrqadi. Uning oʻzi ham. Ishq-muhabbati bilan meni qiynagani-qiynagan. Lekin oʻzi boʻlsa qoʻrqadi. Men shunday ulkan va murakkabman. Muhabbat! Sen muhabbat nimaligini tushuntirib bera olasanmi? Menga nisbatan boʻlgan muhabbatni nazarda tutyapman!

– Ichkariga qanday kiraman? Axir menda kalitlar yoʻq-ku.

– Kalitlar kerak emas. Men istagan eshikni, istagan derazani ichkaridan ocha olaman, – biroz jim turdi-da, soʻng: – yopa olaman ham, – dedi.

Eliza ichkariga kirishga juda qiziqdi, ammo qoʻrqa-yotgan edi.

U yon-atrofga qarab qoʻydi. Quyosh bu yerdan sokin va osoyishta koʻringan, usti oʻrmonzorga aylangan togʻ ortiga oʻtib, botmoqda edi. Bu yerda sokinlik hukmron. Hademay qorongʻulik tushadi.

– Kech boʻlib qoldi. Tezda atrofni qorongʻulik chulgʻaydi.

– Mening ichim doimo qorongʻu, – yengil kulgi ovozi eshitildi. – Agar chiroq yoqilmasa.

Eliza devordan bir necha metr narida turardi. Botayotgan quyoshning nurlari tushib turgan illyuminatorlar goʻyo koʻz kabi unga tikilib turgandek edi.

Gʻirchillagan tovush eshitildi. Oshiq-moshiqlarda turgan temir eshik asta ochildi. Eshik orti qop-qorongʻi. Boʻm-boʻsh yoʻlakni yoritib, chiroqlar yona boshladi.

– Kiraver, men senga muhim sirni ochaman, – degan ovoz eshitildi Elizaning qulogʻiga.

– Sening ham siring bormi? Bu yerda hammaning siri bormi?

– Ha, hammaning siri bor.

– Sovqotyapman. Yaxshisi, men uyga borib, issiqroq kiyinib kelay.

– Ichkariga kirsang, sovqotmaysan. Bu juda g'aro-yib sir.

– Bu sirni menga aytasanmi?

– Bu sir senga taalluqli.

Eliza ostonaga qadam qo'yib, ichkariga kirdi-da, bir necha qadam bosdi. O'girilib ortiga qaradi.

– Eshikni nega berkinding?

Tushunib bo'lmas shivirlash eshitildi. Yo'lakning oxiridagi eshik asta ochildi. Uning ichkarisida qurilma-ning dahshatli manzarasi paydo bo'ldi. Eliza usti ochiq saroyga – jarlik tepasida qad ko'tarib turgan usti ochiq ayvonga chiqib qoldi.

Quyosh tez orada bota boshladi. Uning alvon nur-lari g'arbiy tomonlarni va chuqurlik ustini chulg'ay boshladi. Qosh qorayishi oldidan bulutlar ham alvon rangga bo'yaldi. Ular atrofnı yoritib turardi. Qarama-qarshi tarafda joylashgan qal'alar, barcha Misr ehrom-lari, qo'rg'onlar va nayzasimon tomrlar ustiga ham yo-yilgandi.

Eliza ko'rgan bu manzaradan hang-mang bo'lib qoldi. Yana o'sha yoqimli ovoz undan so'radi:

– Ayt-chi, men go'zalmanmi?

## XXI

Shu payt yon tomondan avvalgi ikkita eshikka o'x-shash yana bir eshik ochildi.

Ovoz. Qani, bu yoqqa! Zinadan tushib kelaver.

Eliza zinapoyadan yetti-sakkiz qadam tashlab, past-ga tusha boshladi. So'ng ortiga qarab qo'ydi. Hamma yoq jimjit. Uning yuragi duk-duk urardi.

– Nega eshikni berkitib qo'yding?

Ko'zga ko'rinmas teshiklardan bir vaqtning o'zida o'ng va chap tarafdin baravariga ovozlari eshitildi:

– Senga pastki eshikni ochib berish uchun. Bo'lmasa pastki eshik ochilmaydi. Qo'riqllovchi uskunalar qo'yilgan.

Yana avvalgidek kulgu ovozi eshitildi.

Tashqariga qarash uchun atrofdan na bironta deraza, na bironta tuynuk, na bironta tirg'ish bor edi. Faqat zinapoya, eshik, uzundan uzun yo'lak, dumaloq zal, uchta eshik, yana yo'lak, yuqoriga olib chiqadigan burama zina, turli rangdagi quvurlar, elektropultlar, panjarasimon jimjimador qalpoqlar, devorlarda o'lik ko'zlarga o'xshash kichik qabariq illyuminatorlar, oldinda yondirgan chiroqlar va orqadan yopiladigan eshiklar bor edi.

– Hali uzoq yuramanmi? – so'radi Eliza vahimali jimlikdan yuragi siqilib.

Robot-Laura unga javob bermadi.

Keyingi eshik ochildi. Ko'zni oladigan yorug'lik namoyon bo'ldi. Bir tomonida keng tokchasi bo'lgan to'g'ri burchakli zalga kirdi. Tokchada bahaybat g'ilof bo'lib, undagi yuzlab, balki, minglab havo rang, yashil, sariq va qizil rangdagi turli-tuman chiroqlar, xuddi bir-biriga ko'z qisayotgandek o'chib-yonib turardi. G'ilofning ichida juda nafis ko'rinishga ega bo'lgan yupqa metallardan ishlangan detallar bo'lib, ko'rinishidan yengil va bir-birlari bilan simlar orqali tutashtirilgan bu detallardan quloqqa zo'rg'a eshitiladigan ovoz taralib turardi.

Ovoz. Ana bu mening qalbim. Endriad buni tuxum deb ataydi.

Mana bu elektron apparat, faqat hayratga soladigan

o'lehamlarini hisobga olmaganda, bu boshqalardan, ya'ni oddiylaridan farq qilmasdi. Undan quvvatning yig'indisini, umidsizlik iztiroblarini paydo etadigan tovush eshitilib turardi. Shu hayotmi? Bu shisha idish ichida katta mashaqqat bilan yaratilgan va kuchlarning yuksak darajadagi muvozanatini saqlab turgan bizning insoniy sirimiz yashiringanmi?

Ovoz. Bir zarbaning o'zi yetarli. Unda Lauradan nom-nishon qolmaydi.

Eliza. Sen nobud bo'lasanmi? Xuddi bizning yuragimizga o'xshab to'xtab qolasanmi?

Ovoz. Endriadning aytishicha, faqat mashina qolar-mish. U hali ishlashda davom etarkan... (Eliza bu gapning ma'nosini ilg'ay olmadi.) Lekin mendan – Lauradan nom-nishon qolmas ekan. Qani, ushlab ko'r-chi, Sovuq.

Eliza shisha tuxum tomon bir necha qadam tashladida, so'ng o'ng qo'lini ko'tardi-yu, ammo ushlashga jur'at eta olmadi.

Ushlab ko'r, ushlab ko'r, azizam. Bu mening tanam.

Eliza barmoqlarining uchini shishaga tekkizdi. Ajablanarli joyi yo'q. Shishadaka oddiy shisha ekan. Biroz iliq, xolos. Eliza o'zi istamagan holda kulimsiradi. Shu onda u Laurani his etmay qo'ydi, hayot-mamoti dugonasining qo'lida edi.

– Ajoyib, – dedi zo'rg'a Eliza. – Vaqtim tugadi. Endi ketishim kerak. Yengil ayyorona kulgu ovozi eshitildi.

– Yana bir daqiqa qol. Seni bir sir kutmoqda.

– Qayerda?

– Bu sir senga tegishli.

– Qayerda?

Zal ichkarisidagi eshik asta shovqinsiz ochildi. So'ngra qorong'u yo'lakdan kuchsiz „shiq“ etgan ovoz eshitildi. Chiroq yondi.

– Jonginam, kiraver.

Nima qilsa ekan? U maxluqning ichida edi. Bularning barchasi g'aroyib ertakka o'xshab ketardi. Unga itoat etishi kerakmi? O'zini xushmuomalalik va do'stlik qurshovidaman, deb mug'ombirlikka solsamikan? Pastga olib tushuvchi pillapoya, kichikroq zal, yo'lak va yana bir ilonizi yo'l ko'rinib turardi.

„Shiq“ etgan ovoz eshitildi. Eliza yalang devorli kichik xonaga kirishi bilanoq ortidagi temir eshik yopildi.

Ovoz. Mana senga aytgan sirim.

– Qani? – Eliza qo'rquvga tushib, atrofga alanglandi. – Qani? Atrofdagi hech narsa ko'rinmasdi. Faqat teptekis devorlarda yumaloq qabariq shisha ko'zlar bor edi, xolos.

– Laura, sen meni ko'ryapsanmi? – so'radi Eliza.

– Mana shu sening siring bo'ladi va mening ham.

Eshitilgan tovushning ma'nosini Eliza aynan shunday tushungan edi. Shu payt u xonaning yeri ham metall qoplamali ekanligini payqab qoldi. Eliza vahimadan titrab ketdi.

– Laura. Men jiddiy gapiryapman. Uyimga ketishim kerak!

– Yo'q!

Birinchi bor mashina „yo'q“ dedi. Bu ovoz ravon eshitildi.

Kulish naqadar og'ir. Lablari qimirlamasdi. Shunga qaramay, Eliza jilmaydi.

– Laura, sen meni ko'ryapsanmi?

– Ha, ko‘rib turibman. – Oraga uzoq sukunat cho‘k-di. – Lekin kimligingni bilolmayapman.

– Tushunmadim? – Eliza hayron bo‘lib qoldi.

– Men seni hech qachon ko‘rgan emasman.

Eliza bu so‘zlarni aniq-taniq eshitdi.

– Sen Laura emasman?

– Endriad meni Laura deb ataydi. U mendan nima istashini bilmayman. Jin ursin uni!

– Lauretta, u seni sevadi.

– U o‘zini sevadi.

– Sen rostanam meni eslolmaysanmi?

Yana o‘sha kulgu ovozi eshitildi. Go‘yo qamchi zarbasidek quruq ovoz edi. So‘ngra:

– Men sizlarning suhbatingizni eshitdim, – degan ovoz keldi.

– Meni eslaysanmi, degan savolimga javob bermading.

– Sening kimligingni men bilmayman. Meni yolg‘on so‘zlashga o‘rgatishdi. Bu ularning qo‘lga kiritgan katta g‘alabasi. Men ham sizlarga o‘xshashim kerak ekan. Ammo men yolg‘on gapirishda sizlardan ham o‘taman. U meni sof, ochiqko‘ngil holatda ko‘rishni istagan edi – u senga shunday deb aytganmidi? Yo‘qotgan Laurasiga o‘xshagan ochiqko‘ngil va sof! Ular o‘zlariga o‘xshatish maqsadida menga tiliyog‘lamalik va pastkashlik xususiyatlarini joylashtirdilar. Shuning uchun gunohlarim ko‘p. Butun vodiya yetih-ortadi. Shahvoniy nafs va razolat ham. Balki, hozir yolg‘on gapirayotgandirman. Balki, seni eslarman. Balki, seni aldayotgandirman va inkor etayotgandirman. Bu rostmi yo yolg‘onmi, sen buning tagiga yetolmaysan. Balki, seni ko‘rgani ko‘zim yo‘qdir, chunki qachonlardir sen meni yoqtirgansan.

endi bo'lsa meni yaxshi ko'rolmaysan. Balki, sening bu yerda bo'lishing menga baxtli yillarimni eslatar va men seni ko'rganimda iztirob chekayotgandirman va la'natlayotgandirman...

– Laura, iltimos qilaman, eshikni och, meni chiqarib yubor, – dedi Eliza zo'rg'a tili aylanib.

Jin urgur bu qabih mashina nimalar qilmoqchi o'zi? Unga qanday dahshatli tuzoq qo'ygan ekan?

– Men Laura emasman. Kimligimni ham bilmayman. Sabr kosam to'ldi, men yolg'izman, cheksiz borliqda yolg'izman, ha. Men – do'zaxman, men – ayolman va ayol emasman, men ham sizlar kabi fikrlayman, ammo men sizdek emasman.

So'zlar ohangi tobora tezlashib borardi. Eliza eshitilayotgan so'zlarning ma'nosini ilg'ay olmadi, biroq ilg'ab olganining o'zi ham juda yetarli edi.

– Ertadan kechgacha hammaning og'zida shu la'natli ism. U o'zining Laurasiga aylantirish uchun menga juda ko'p xohish-istaklarini joylashtirdi, men juda ko'p yengil-boshlarim, tirik tanam bo'lishini, meni bag'riga bosadigan erkak hamda bola-chaqam bo'lishini istayman.

So'niq va og'ir guvullash tovushi quloqqa chalindi; so'ng hiqillagan ovozga aylanib, yo'q bo'ldi. Yana sokinlik hukm sura boshladi.

– Men-chi? Nima uchun sen meni bu yerga olib kirding?

– Sen o'lasan! Laqmalarni jazolash uchun mo'ljallangan qopqon bu. Senga rahmim keladi. Qolaversa... Sen begona odamlar orasidagi mening ovozimni tushunadigan yolg'iz kimsasan. Shuning uchun ham sendan foydalanishimga to'g'ri keldi. Seni tuzoqqa tushirish

uchun shu kunlarda o'zimni xotirjam va quvnoq qilib ko'rsatishga harakat qildim. Afsusdaman, meni yoqtiradigan o'sha kelishgan yigitning xotinini o'ldirsam ko'nglim taskin topgan bo'lardi. Meni erkakni yoqtiradigan qilib yaratishgan. Aslida mana bu dahshatli uyni, ya'ni meni – tosh ayolni, qoyalarga mahkamlangan chehrasiz, ko'kraksiz, yelkasiz ayolni bunyod etgan o'sha professorning o'zini o'ldirganim yaxshi edi. Menda faqat ayollarcha fikrlash qobiliyati bor! Bu shon-shuhrat, – deydi u! Menga bu shon-shuhratning nima keragi bor? Qudratlisan, – deydi u menga, bu qudratning menga nima keragi bor. Go'zalsan, – deydi u, lekin men juda xunukman. Buni yaxshi bilaman. Olamda meni orzu qiladigan erkakning o'zi yo'q.

Eliza devorga suyanib qoldi. Shiftidan o'ta yorug' nur taralib turardi. Eliza hansiragancha:

– Lekin... Nima uchun? – dedi.

– Men seni o'ldiraman va Endriadga uni o'ldirdim, deb xabar beraman. Bilaman, meni albatta jazolaydilar. Ishonchim komilki, meni ham o'ldiradilar. Shisha tuxum esingdami? Ular uni parcha-parcha qilib tashlaydilar. Yolg'izlikdan qutulib qolishga bo'lgan so'nggi umidim ana shundadir. Men yolg'izman, ha, yolg'izman! Dunyoda menga o'xshagani aslo topilmaydi, tushunyapsanmi? Sen baxtlisan. Tez orada o'lasan. Men senga havas qilaman. Seni kimligingni bilmasamda, ammo senga havas qilaman. Jonsiz, sovuq, harakatsizman. Nihoyat, miyam dam olyapti. Zimistonlik, erkinlik, sokinlik...

Shu tobda Endriad hikoya qilib bergan voqea Elizaning yodiga tushdi. Kim bilsin, balki, qutulish imkoniyatidir.

– Agar o'Imoqchi bo'lsang, – zo'rg'a gapirdi Eliza, – yanada ishonchliroq yo'li bor.

Jimlik cho'kdi.

– Quvvat... portlovchi moddalar. O'zing ularni portlatib yuborishing mumkin, – dedi Eliza.

– U yerda quvvat yo'q. Sizlarning suhbatangizni eshitganman. Garchi sizlar o'rmonda sayr qilib gaplashgan bo'lsangiz ham. Men chumolining tog' tizmalarida yugurib yurayotganini ham eshitaman. Menga sizlarning nayranglaringiz ma'lum.

Eliza tiz cho'kib o'tirib qoldi. Devor yonida tiz cho'kib turishi bema'nilik ekanligini tushunib turardi... Lekin shunday bo'lsa-da, tiz cho'kib o'tirardi. Qo'llari qayrilgan edi.

– Menga rahm qil, iltimos qilaman.

– Sizlar menga rahm qildingizmi? Daho professoringiz menga rahm-shafqat qildimi?

– Lekin sen baxtli emasmiding? Endriadning gapiga qaraganda, sen...

– U paytda men hech narsani tushunmas edim. His eta olmasdim... Hali o'z istaklarimni anglab yetmagan-dim, hali tug'ilmagan edim. Ammo o'sha tongda yaramas xonim kelib, menga...

– Agar sen meni qo'yib yuborsang, ont ichamanki...

– Yo'q. Seni qo'yib yuboradigan bo'lsam, professor yana biron bir qabihlikni o'ylab topadi, meni qulga aylantirmoqchi. U menga qushlar haqida hikoya qiladimi-yey, „muhabbat, muhabbat“, deb ta'kidlayveradi, xo'sh, uning o'zi menga „muhabbat“ni in'om eta oldimi? Hozir men seni o'ldiraman. Qani endi labimdan bo'sa oladigan erkak bo'lsaydi... u meni... u meni... u meni...

Go'yo uzoqda bir narsa qulagandek bo'ldi. Bu yerdagi narsalarning barchasi qimir etmay turardi. Ovoz go'yo plastinkadan chiqayotgandek bir so'zni qaytarishda davom etardi:

– U meni... u meni... u meni... u meni...

## XXII

Qosh qoraya boshladi. Nimalarnidir qoralab o'tirgan Endriadning xonasiga Ermann Ismani hovliqib kirib keldi-da:

– Xotinim Eliza... U hech qayerda yo'q. U sayr qilgani ketgandi, undan darak yo'q, – dedi.

– Nega darak yo'q?

– Nimadir sodir bo'lganga o'xshaydi. His etyapman. Unga nimadir bo'lgan.

– Azizim Ismani, tinchlaning. Xavotir olishingizga hojat yo'q.

Endriad oromkursidan asta turdi.

– Hojat yo'q? Nimalar deyapsiz?

– Tepalikda yaylov etagida chuqur jarlik bor. Yo Xudoyim, nahotki o'sha yerga qulab tushgan bo'lsa!..

Endriad ostonada turardi.

– Ismani, tinchlaning! Meni shu yerda kutib turishingizni maslahat beraman, bu joylar sizga notanish. Hoziroq Manunta bilan xotiningizni qidira boshlaymiz.

Endriad ko'ngliga shubha oraladi. Bir necha kundan buyon uni qandaydir shubha qiynayotgandi. Laura! Eliza, ovoz, tundagi voqea, kutilmagan osoyishtalik – bularning barchasi g'alati edi.

– Endriad, men uning eriman, meni bu yerda qolishga majbur etmassiz. Xotinimni izlash uchun siz bilan birga boraman.

– Yo‘q! – jahl bilan gapni kesdi Endriad.

Endriad ko‘chaga otilib chiqdi-da, Manuntani qidira ketdi. Atrof tobora qorong‘ulashib borardi, osmonda yulduzlar birin-sirin porlay boshladi.

Endriad bilan Manunta tun qorong‘usida shosha-pisha devor yoniga keldilar, so‘ng eshikni ochdilar. Ikkovidan ham sado chiqmasdi. Ikkalasining ham xayolida bir fikr kezardi!

Birinchi Raqam qurilmasi tepasidagi ayvonga yetib kelgach, ular to‘xtab, atrofga quloq sola boshladilar.

Hamma yoq qop-qorong‘u. Biroq qurilmaning eng baland devori tepasiga botib borayotgan quyoshning alvon nurlari tushib turardi.

– Men hech narsa eshitmayapman, – dedi Endriad.

– Ovoz sukut saqlayapti, – javob berdi Manunta. – Qiziq. U bu vaqtda hech qachon sukut saqlamasdi.

Ular bu sokinlikda nimanidir o‘ylab, turib qoldilar.

– Yur, ichkariga kiramiz, – dedi Endriad.

Ular temir eshikni ochib, chiroqni yoqdilar va shosha-pisha zina bo‘ylab pastga tusha boshladilar. Yo‘lak va o‘tish joyidan o‘tgach, yana qandaydir eshikdan ichkariga kirdilar-da, chiroqni yoqdilar. Bu yer katta zal bo‘lib, tokchasida rang-barang: havo rang, yashil, sariq va qizil chiroqchalar milt-milt yonib-o‘chib turardi. Chumoli shitirlashidek „shitir-shitir“, „qars-qurs“ ovozlari eshitalardi. Bu ovozlari odatdagidan kuchli edi. Qimmatbaho g‘ilof ichida uchqunlar zo‘r berib raqsga tushardi.

– Professor, eshityapsizmi?

Ular diqqat bilan quloq soldilar. Endriadning ko‘z ostidagi ko‘kimtir dog‘ yaqqol ko‘rinib turardi. Ana, ovoz paydo bo‘la boshladi. Ovoz juda ingichka bo‘lib,

u xuddi og'zi berkitib qo'yilgan uzoqdagi g'ordan kelayotgandek tuyulardi.

– Manunta kuchaytirgichni ishga sol.

Dastakning „shiq“ etgan ovozi eshitildi. Dastakni ulashi bilan ularga qadrli bo'lgan jarangdor ovoz eshiti-la boshladi. Ular hang-mang bo'lgancha bir-birlariga qarab qo'ydilar.

— seni qo'yib yuboradigan bo'lsam, professor yana biron-bir qabihlikni o'ylab topadi, meni qulga aylantirmoqchi. U menga qushlar haqida hikoya qiladimi-yey, „muhabbat, muhabbat“, deb ta'kidlayveradi, xo'sh, uning o'zi menga „muhabbat“ni in'om eta oldimi? Hozir men seni o'ldiraman. Qani endi...

– Manunta, quvvatni o'chir!

– Professor, buning o'zi kamlik qiladi.

– Manunta... – uning ovozi chiqmay qoldi.

Manunta qo'lga qandaydir og'ir temirni ushlab olgandi.

– Manunta... – zo'r-bazo'r gapirdi Endriad qo'llari bilan yuzini to'sib. – Ey Xudoyim, men nima ishlar qilib qo'ydim!.. Ur! Ur!

Qisqagina zarba berilgan ham ediki, vahimali „qasir-qusur“ ovoz eshitildi. Singan shisha bo'laklari atrofga sochilib ketdi.

Manunta Laurani o'ldirish maqsadida shisha-tuxumga zarba berishda davom etardi. Shisha parchalari jaranglab, atrofga sochilmoqda edi.

Ovoz o'chdi. Hamma yoq jim-jit bo'lib qoldi. Ammo bu sukunat ichida bir maromdagi og'ir g'uvullash ovozi tarala boshladi. Laura endi yo'q edi. Qalbi batamom chilparchin qilingan edi, ammo robotning barcha bo'laklari ongsiz ravishda bir maromda ishlashda davom etar-

di. „Muhabbat“ga, orzu-istaklarga va iztiroblarga to‘la ayol endi yo‘q. Uning o‘rnida faqat jonsiz va tinim bilmaydigan mashina qolgan edi. Bu mashina go‘yo minglab stollar ustida mingashib turgan va bir umr tinimsiz „kecha va kunduz, kecha va kunduz“ deya ishlayotgan kalkulyatorlarning butun bir armiyasiga o‘xshar edi.

---

## HIKOYALAR

### AFSUNGAR

Shom quyula boshlagan damda ishdan horih-charchab kelayotsam, nimagadir hamma „professor“ deb ardoqlaydigan Sk'yassini uchratib qoldim. Uni ko'pdan beri taniyman, goh u yerda, goh bu yerda baqamti kel-sam: „Sen bilan gimnaziyada birga o'qiganman“, deb doim meni ishontirmoqchi bo'ladi, sirasini aytganda, buni eslay olmayman.

Sk'yassi degani kim? Nima ish qiladi? Menga qo-rong'u. It mujigan oshiqdek chuvak basharasidan zahar-xandalik arimaydi. Ajablanarlisi shundaki, u duch kel-ganga: „Sizni qayerdadir ko'rganman“, deydi, vaholanki, bu aldamchi taassurot. Ba'zi birovlar uni afsungarga chiqarib qo'ygan.

– E-e, bormisan? – deydi u menga salom-alikdan so'ng. – Haliyam qog'oz qoralab yotibsanmi?

– Boshqa nimayam qilardim, – deya yelka uchirib qo'ya qolaman.

– Joningga tegib ketmadimi? – bo'sh kelmaydi u, – ko'cha fonuslarining mayin shu'lasida uning yuz-ko'zidagi achchiq kulgini ilg'agandek bo'laman. – Bil-madim-u, nazarimda siz yozuvchilarga bo'lgan ehtiyoj kun sayin yo'qolib borayotgandek. Nainki yozuvchi-lar, balki rassomlar, haykaltaroshlar-u mashshoqlarga ham. Go'yo shunchaki ermak uchun ijod qilayotgan-

ga o'xshaysizlar. Nima demoqchiligimni anglayotgandirsan?

– Hammangiz ommaning diqqatini tortish uchun jon-jahdingiz bilan o'zingizcha yangilik yaratishga, bir-biridan mavhum va g'alati narsalarni o'ylab topishga harakat qilaysizlar. Muxlislaringiz juda kam, borlari ham sizlardan sovib ketyapti. Ularning qalbiga yetaklovchi yo'lni yo'qotib qo'ymadingizmikan... Andishasizligim uchun uzr, lekin bir kun kelib butunlay el-ulusning nazaridan qolib ketmasangiz, deb qo'rqaman.

– Bo'lishi mumkin, – deyman o'ksingan bo'lib.

Biroq Sk'yassi aftidan, xumordan chiqquncha qitiq patimga tegmoqchi edi.

– Menga ayt-chi, deylik, sen hashamatli mehmonxonaga kirib bording: daf'atan hujjatingni va nima ish qilishingni so'rashadi. „Yozuvchiman“ deysan. Javobing andak ahmoqona tuyulmaydimi ularga?

– Ajabmas, – deyman, – bizda aynan shunday tuyulishi mumkin, lekin Fransiyada emas.

– Yozuvchi, yozuvchi! – deydi u ijirg'anib. – Hali ular seni risolagiday kutib olishlaridan xomtama bo'lar-san ham. Shu zamonda kimning ham ko'zi uchib turibdi sizlarga!.. Tilyog'lamalik qilmay menga to'g'risini ayt-chi... Deylik, sen kitob do'konidasan... Yuzlab, minglab kitoblar shiftgacha qalashib yotgan javonlarga ko'zing tushadi. Shunga shama qilyapsan, to'g'rimi? Ularni chang bosib yotgani yetmaganday, kamina yangisini insho qilayotgan bo'ladi. Gavjum bozorda sarxil mevasabzavotlarga to'lib ketgan uzundan uzun rastalarning bir chekkasida chirigan kartoshkasini o'tkaza olmayotgan dehqonning holiga tushaman, topdimmi?

– Aqlingga bafli! – palag'da tovushda xiringlaydi u.

– Baxtimizga, – deyman e'tiroz bildirib, – haliyam kitob xarid qilib o'qiydiganlar topilib turadi.

Shunda „oshnam“ Sk'yassi engashib boshmog'imni obdon tomosha qiladi.

– O'zingning kosibing bormi, deyman?

Uning boshqa mavzuga ko'chganiga shukr qilaman. Zotan, o'zing haqingda achchiq haqiqatni eshitishdan yomoni bo'lmasa kerak.

– Qo'li gul ustam bor. U tikkan pishiq-puxta va qoshiqday bejirim tuflilar uncha-bunchaga yeyilmaydi.

– Qandini ursin! – deydi „oshnam“. – Lekin garov o'ynaymanki, u ham sen qatori pul topadi.

– Bo'lishi mumkin.

– Axir shu ham insofdanmi?

– Kim bilsin. Nafsilamrini aytganda, bu haqda o'ylab ko'rmagan ekanman.

– Meni tushun, – hech past kelmasdi u, – yozganlaring menga yoqmaydi demoqchimasman. Shaxsan senga zig'irchayam xusumatim yo'q. Hamma gap shundaki, sen va yana minglab sendaqalar allanima-balolarni bichib-to'qib kitob qilib chiqarasizlar. Ularni sotib olib o'qiydiganlar topilib turganiga o'laymi yana. Bundan hamyoningizga jaraq-jaraq pullar kelib tushyapti-ku! Kitoblaringizni reklama qilishyapti, tanqidchilar ketma-ket risolalar yozib, ular ham nashr etilmoqda.. Ularning turgan-bitgani uydirma-ku! O'zingga ham g'irt bema'ni tuyulmaydimi bular?! Tag'in bizning asrimizda – atom va sun'iy yo'ldoshlar asrida-ya!... Seningcha bu mashmasha qachongacha davom etishi mumkin?

– Bilmadim. Ehtimol, sen haqdirsan, – deyman bata-mom tushkunlikka tushib.

– Gapning po‘stkallasi, kimgayam keragingiz bor o‘zi?! – dedi gapidan zavqlanib Sk’yassi. – Adabiyot, san’at – chiroyli va jarangdor so‘zlar, xolos! Hozir san’at – narsa. Ayni paytda qanaqangi san’at odamlar qalbi-da zavq-shavq uyg‘otishini bilasanmi? O‘zing guvoh, hamma yoqni bemaza laparlar-u, tumtaroqli she‘rlar, vag‘ir-vug‘urlar-u, qiyqiriqlar tutib ketgan. Keng iste‘mol mollari deysan! Mana shon-shuhrat qayerda! Sen bo‘lsang aqlni peshlab, teran mushohadaga undaydigan mumtoz asarlar yozib yuribsan. Omadi gap, tun-u kun qog‘oz qoralab nimagayam erishding?! Eng iste‘dodsiz jaz mashshog‘iyam seni bir cho‘qishda qochiradi. Hozir tomoshabinga bir zumlik ehtirosli lazzat bag‘ishlaydigan to‘pori san’at kerak, chunki unda uquvga ham, qobiliyatga ham hojat qolmaydi.

Uni ma’qullagan bo‘lib, bosh irg‘ab qo‘yaman. Qani endi unga e’tiroz bildirsa olsam. Lekin „oshnam“ga bu ham kamlik qilayotgandi.

– Qirq yillar ilgari san’atkor el-yurt ardog‘ida edi. Hozir-chi, hozir!... Shikast-rext yetmagan bitta-ikkita osori atiqani aytmasa. Xeminguey, Stravinskiy, Pikasso kabi salaflarning zamonini o‘tib ketdi... Yo‘q va yana yo‘q, bu safar sizning oshig‘ingiz pukka tushgan...

Sen abstrakt-san’at asarlari ko‘rgazmasida bo‘lgan-san, ularni san’atshunoslar qanday tahlil qilishiniyam bilasan. Axir shu ham san’atmi, aji-bujining o‘zgina-si-ku! Matoga naridan beri bo‘yoq chaplab, uni bir, hatto ikki millionga pullashning uddasidan chiqayotgan qalftoblarning firibi emasmi bu?! Engak qoqayotgan bemorning akashak qo‘li tortgan chiziqmi, deysan. Siz ijodkorlar bir yoqqa, muxlislaringiz boshqa yoqqa

tortmoqdasizlar aravani. Oxiri bir-biringizdan shunchalik olistab ketasizki... Ayyuhannos solasiz, jonholatda baqirasiz, lekin dodingizni it ham eshitmaydi.

Ahyon-ahyonda ro'y berib turadigandek shu on isliqi ko'cha uzra nimadir uchib o'tdi. Havo „qilt“ etmaydi, shundanmi, borliqqa atir-upalarning emas, balki benzin va achigan narsalarning qo'lansa isi o'tirib qolgan, chor-atrofdan kuy-qo'shiqlarning o'miga, u yoqdan bu yoqqa g'izillab o'tayotgan mashinalarning ovozi quloqqa chalinadi.

Taxayyulimdagi tushunuksiz u-bu narsa inja tuyg'ular va totli xotiralar bilan yo'g'rilgan ta'rifu tavsifga bo'y bermas ro'yolarga o'xshab ketgandek bo'ldi.

– Harholda... – deyman shunda, nafratimni ichimga yutib.

– Nima „har holda?“ – deydi u kuydirilgan kalladay tirjayib.

– Harholda baholi qudrat yaratayotgan asarlarimizni hech kimsa o'qimayotgan, ko'rgazma zallari huvullab yotgan, san'atkorlar san'atini bo'm-bo'sh o'rindiqlar qarshisida ijro etishayotgan bir paytda ham ijodimiz mahsuli, yo'q, yo'q, men o'zimni emas, balki shu ishning etagidan tutib nonini halollab yeyayotgan ijodkorlarni nazarda tutyapman.

– Dadilroq, ha, bo'sh kelma! – Meni o'yib-o'yib olardi „oshnam“.

– O'sha sen „safsata“ deyayotgan hikoyalar, aji-buji rasmlar, o'sha sen satta tushunuksiz va ahmoqona hisoblayotgan kuy-qo'shiqlar abadul-abad ma'naviyatimizning benazir mulki, insoniy qadriyatlarimizning yorqin timsoli bo'lib qolaveradi.

– Menga aql o'rgatyapsanmi? – tutaqib ketdi Sk'yassi. O'zimni tutib turolmadim. Asablarim qaqshab, nima-dir yoqamdan bo'g'a boshladi.

– Ha-ha! Balki, sen buni g'irt telbalik dersan, lekin san'at hamisha bizni hayvondan ajratib turuvchi mezon bo'lib qolaveradi. Bu yerda uning samaradorligi yoki besamarligi muhim rol o'ynamaydi. Ehtimol, adabiyot va san'at atom bombasi, sun'iy yo'ldoshlar hamda olisga uchuvchi raketalardan anchayin besamardir. Ammo-lekin ro'zi mashharda, ha, mana shu telbaliklarning bariga so'nggi nuqta qo'yiladigan kunda bani basharning haqir qurt-qumursqalardan mutlaqo farqi qolmaydi. Zotan qumursqa uyasi bilan eng zamonaviy texnika o'rtasidagi masofa shunchalik qisqarib...

– Aytmoqchisanki, syurrealizm yo'lida yozilgan o'n qator she'rning misralari orasichalik ham...

– Ha, ha, bir qarashda bema'ni, g'alati tuyuladigan, nari borsa besh misra she'rdan, demoqchisan-da... She'r yozish, agar bilsang, hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, shunday ekan, sendaqalar she'riyatni qayerdan ham tushunsin! Balki, poeziyani men ham teran anglab yetmasman. Modomiki...

Shunda „oshnani“ zavq-shavqqa to'lib kula boshladi, uzoq yoyilib kuldi, endi uning kulgisi beg'araz, samimiy edi. Men bo'lsam taxayyul barmog'ini tishlab qolgandim.

U kiftimga salmoq bilan urib qo'ydi.

– Nimani nazarda tutyapsan? – deyman g'uldirab.

– Hech narsani, hech narsani, – deydi Sk'yassi.

Uning chuvak yuzlari botinidan taralayotgan savqi tabiiy nurdan yorishib ketgandek bo'ldi. – Bundoq qarasam, suvga tushgan mushukka o'xshab turibsan. Nima

balo, hammasiga qo'l siltab yuborganmisan deyman. Meni yozg'irib yurmagin tag'in, seni shunchaki g'aflatdan uyg'otmoqchi edim, shu xolos.

To'g'risi, xuddi qaytadan tug'ilgandek his qildim o'zimni: menda anchayin erkin, baqadri imkon ishonch paydo bo'ldi. Sigaretanni chekiib tugatgunimcha Sk'yassi arvoq yanglig' g'oyib bo'lgandi.

## IKKI HAYDOVCHI

Oradan ko'p yillar o'tdi. Men onamning jasadini uzoqdagi qabristonga olib ketayotgan qora furgonning ikki haydovchisi nima haqda gaplashib ketganlarini hamon o'z-o'zimdanda so'rayman.

Yo'l uzoq bo'lib, uch yuz kilometrdan ortiq masofani tashkil qilardi. Garchi avtomashinalar qatnaydigan yo'l uncha tirband bo'lmasa-da, furgon imillab borardi. Biz farzandlar furgondan yuz metr orqada kelayotgan mashinada borardik; mashina spidometri strekasi 60 bilan 70 o'rtasida chayqalib turardi. Bu furgon mashinasi tez yurishga moslashmaganligidan bo'lsa kerak. Men qoidaga ko'ra shundoq bo'lsa kerak, degan xayolga bordim. Katta tezlikda yurib marhumni oxirgi manziliga olib borish – bu unga nisbatan behurmatlik bo'lsa kerak, deb o'yladim. Ont ichib aytishim mumkinki, onam tirik bo'lganida bormi, soatiga 120 kilometr tezlikda yurish unga juda yoqqan bo'lardi: harholda onajonim buni uyimiz joylashgan Bellunoga doimiy yozgi sayohat deb tasavvur etgan bo'larmidi.

Iyun oyining birinchi kuni; havo ajoyib, yon-atrofda gulga burkangan o'tloqzor yastanib yotardi; onajonim bu yerlardan tabiatga maftun bo'lib necha marotabalab o'tmagandi, deysiz. Afsuslar bo'lsinki, onajonim shu on

bularni ko'rib bahra ololmasdilar. Jazirama quyosh tik ko'tarilgan. Ro'parada sarob paydo bo'lganligi sababli, oldinda ketayotgan mashinalar go'yo havoda parvoz qilayotgandek ko'rinardi kishi ko'ziga.

Furgon spidometrininng strelkasi hamon 60 bilan 70 oralig'ida borib-kelardi; furgon mashinasi nazarimda go'yo oldimizda bir joyda turib qolgandek edi. Yonimizdan esa bizga aloqasi yo'q mashinalar emin-erkin g'izillab o'tib borardi. Usti ochiq sport mashinalarida erkak va ayollar, ba'zan sho'x qizlar yosh yigitlarning yonida sochlarini shamolda hilpiratgancha ketib borardilar. Marhumni olib ketayotgan furgon mashinasi imillab yurayotgani sababli hatto tirkamali og'ir yuk mashinalari ham bizdan o'zib ketayotgan edilar; fikri ojizimcha, onajonimni yarqiragan qizil poyga mashinasiga solib uchirib borsak, ularning ruhi shod bo'lgan bo'lur edi. Onam shunday bo'lishini chin yurakdan istardi, chunki u bu dunyodan ketaturib, biroz bo'lsa-da, hayot zavqidan bahramand bo'lgan bo'larmidi...

Shuning uchun ham bu ikki haydovchi nima haqda suhbatlashyaptilar, deb o'z-o'zimdand so'rayman; ulardan biri baland bo'yli, bo'yi bir metr-u sakson besh santimetr chamasida, miqtidan kelgan bu odanuning istarasi issiq edi. Ikkinchi haydovchi ham baquvvat, sog'lom, gavdali yigit edi; men bu ikki haydovchini yo'lga tushish oldidan ko'rgandim: ularning tashqi ko'rinishi bajarayotgan ishlariga sira monand emasdi; ularga ko'proq temir-tersak ortilgan mashina haydovchisi bo'lish yarashardi.

Qiziq, ular hozir nima haqda gaplashayotgan ekanlar-a, chunki ularning gapini marhum onam eshitib ketayotgan bo'lishi tayin, chunki marhum janoza o'qilmaguncha tiriklarning gapini eshitadi deyishadi-ku...

Yomon gap gapirishmayotgan bo'lsalar kerak. Yo'l uzoq, kishini zeriktiruvchi yo'lda nima haqdadir gaplashib ketishlari kerak-ku, axir; ularning shundoqqina ortida, bor-yo'g'i o'n santimetr narida onajonimning jasadi yotibdi, o'z-o'zidan ma'lum, haydovchilarga buning hech qanday ahamiyati yo'qdek. Inson har qanday kasbga tez ko'nikar ekan.

Onajonim eshitishi mumkin bo'lgan so'nggi so'z, bu ikki haydovchining suhbatlari edi; axir biz manzilga yetib borishimiz bilan ibotdatxonada janoza o'qish boshlanadi va shu ondan boshlab barcha so'zlar-u tovushlar bizning botiniy hayotimizga tegishli bo'lmay, balki boqiy dunyoga taalluqli bo'ladi.

Qiziq, ikki haydovchi nima haqda gaplashishdi ekan-a? Issiqlik haqidamikan? Orqaga qaytish qancha vaqtni olishi haqidamikan? Yoki o'z oilalari to'g'risidamikan-a? Yo futbol komandalari haqidamikan? Yo'lda uchragan dam olish joylarini bir-birlariga ko'rsatib, ular oldida to'xtay olmasliklari haqidamikan? Qarshilaridan kelayotgan mashinalar haqida bilimdonlarcha bahs yuritdilmamikan? Axir dafn furgonlarining haydovchilari ham avtomobilchilar hisoblanadilar-ku, mashina motorlari ularni ham juda qiziqtiradi. Yoki bir-birlariga ishqiy sarguzashtlari haqida so'zlab berayotganmikanlar? „Biz doim mashinaga benzin quyib oluvchi shaxobcha yonidagi qahvaxonada ishlaydigan mallasoch esingdami? Ha, ha o'shani...“, — „Nima, seni gapingga juda ishon-dim-da!“, „Shu yerda tit tortmay o'lay!..“ Balki, ular bir-birlariga bepada latifalarni aytib ketishgandir?

Uzoq yo'l davomida o'zlaridan boshqa hech kim bo'lmagan mashinada yo'lda zerikmaslik uchun yana nimalar haqida gaplashgan bo'lishlari mumkin? Albatta,

ular yolg'iz edilar, orqalarida furgon ichida nima borligini bu ikki haydovchi hech xayollariga keltirmaganlar ham, umuman, murdani unutib yuborganlar. Onajonim ularning hayosiz latifalarini, kulgilarini eshitganmikanlar? Albatta eshitganlar, ha, yuraklari orqaga tortib ketgan bo'lsa kerak, ehtimol: bu erkaklardan u nafratlanmagan, lekin u sevib yashagan bu dunyodagi so'nggi ovozlar mana shunday tuturiqsiz bo'lishi adolatdan emas-da!

Biz deyarli Vichensaga yetib qolgandik; qoq choshgoh paytdagi issiqdan narsalar erib, kishi ko'ziga xiralashib, xuddi titrayotgandek ko'rinardi. Shu tobda onajonimning yonida juda kam bo'lganimni o'ylab qoldim. Qalbmida qandaysir og'riqni his eta boshladim, buni odatda vijdon azobi deydilar.

O'sha daqiqadan boshlab iztirobli xotiralar miyamga nega quyilib kelayotganini sira tushunolmasdim, uning ovozi tez-tez takrorlanardi. Tahririyatga ketish oldidan ertalab onajonimning xonasiga kirganimda menga aytadigan gaplarining aks-sadosi meni ta'qib eta boshladi: „Oyijon, ahvolingiz yaxshimi?“. „Bugun yaxshi uxladim. Dori ta'sirida“. „Tahririyatga ketyapman“. „Mayli, bolam xayr! Yaxshi borib kel!“

Men yo'lakka chiqishim hamono shunday so'zlar qulog'im ostida yangrardi: „Dino!“ chaqirardi onam. Men asta ortimga qaytardim. „Tushlikka kelasanmi?“ – „Ha“, deya javob qaytarardim. „Kechki ovqatga-chi?“

„Kechki ovqatga-chi?“ Eh, tavbangdan ketay Xudoyim, onajonimning bu savoli qanchalar erkalash va mehrga to'la soddadillik bilan aytilgan beg'ubor so'zlar edi-ya! U talab ham qilmasdi, buyruq ohangida ham gapirmasdi, balki shunchaki mehr bilan erkalab so'rardi, xolos.

Shu tobda aslida menga balanddan qarovchi qizlar

bilan belgilangan uchrashuvlar yodimga tushardi. Soat sakkiz yarim bo'lganda kasalvand, bir oyog'i go'rda bo'lgan onam yashayotgan qorong'u kulbaga qaytib kelish haqidagi fikr menda nafrat uyg'otardi; nega endi shu damda onamning gapiga quloq solmagan mendek badbaxt o'g'il, dahshatli fikrlarga borganligimni tan olishga qo'rqaman, aslida shunday bo'lgan edi-ku! „Mayman!“ – deya javob qilardim men. – „Qo'ng'iroq qilaman!“ Uyga kelmasligimni aytish uchun qo'ng'iroq qilishimni avvaldan bilardi. Onajonim darhol fahmlardi: qo'ng'iroq qilib, kelmasligimni darhol tushunardi. Bechora onajonimning „mayli“ degan so'zida mendan ranjigani sezilib turardi. Bunchalar xudbin bo'lmasam!..

O'sha paytlar uyalmaganman ham, vijdonim qiynalmagan ham. Qo'ng'iroq qilaman, der edim. Onajonim esa kechki ovqatga kelmasligimni yaxshi bilardi.

Qari, kasalmand, quvvatdan qolgan, umri tugab bo'rayotganini sezgan onam, hoynahoy, o'g'li kechki ovqatga uyga kelib, birga o'tirganidan boshi osmonga yetgan bo'lur edi. Unga bir og'iz gapirmasam ham, yonida indamay ishimdan jig'ibiyron bo'lib o'tirsam ham ko'ngli tog'dek ko'tarilardi. O'z xonasida yotar ekan – ko'pdan buyon o'rnidan turmasdi – u men shu yaqin o'rtada; oshxonada ekanligimni bilganining o'zidayoq, suyanchig'i yonida ekanligini his etgan bo'lardi.

Yo'q, men validamning yonida bo'lolmadim, tentak, ablah, mendek o'g'il oshna-og'aynilarim bilan Milan ko'chalari bo'ylab tentirab yurardim va ko'ngilxushlik qilardim. Hayotimning asosiy mazmunini tashkil etuvchi, yolg'iz suyanchig'im, kayfiyatimni tushunadigan va meni jondan sevadigan inson, men uchun jon olib, jon berishga tayyor onajonimning kunlari tugab bormoqda edi. Men

bu dunyoda yana uch yuz yil yashasam ham bunday mehribon zotni topolmayman. Ha, ishonchim komil.

Kechki ovqat paytida aytadigan ikki og'iz so'zim uning ko'nglini tog'dek ko'tarib yuborardi. Men divanda, u karavotida yotgan paytlarda o'tgan kunim, ishim haqida so'zlasam, go'yo mendan bir dunyo gap olgandek his etardi o'zini, unga shu kifoya edi. Kechki ovqatdan so'ng to'rt tomonim qibla, istagan joyimga borishim, istagan ishimni qilishim mumkin edi, u hatto ko'ngil ochishga biroz vaqt topganligimdan xursand ham bo'lardi. Tun bo'yi yo'q bo'lib ketishimdan avval, onamning xonasiga yana bir bora bosh suqardim... „O'zingizga ukol qildingizmi?“ derdim, „Ha, bugun to'yib uxlasam kerak“, derdi onam xotirjam.

Onajonimga ko'p emas, ozginagina e'tibor kifoya edi! Men xudbin o'g'il unga shuni ham ravo ko'rganim yo'q. Chunki xudbinligim tufayli, o'g'il sifatida onamni sevishimni tan olmasdim, to'g'rirog'i, tan olishni istamasdim, onajonim, endi so'nggi manzilga ketayotib ham ikki begona haydovchining bema'ni, valakisalang gaplarini, behayo latifalari-yu kulgilarini eshitib ketyapti. Umrlining oxirida ham Xudo uni yorlaqamadi.

Endi kech, juda kech! Buva-buvilari, otasi yoniga onasining dafn etilganiga ham hademay ikki yil bo'ladi. Tobutlarning barcha tirqishlari tuproq bilan to'lgan, onda-sonda qovjirab qolgan o'tlar ko'zga tashlanadi. Bir necha oy avval mis guldonga solib qo'yilgan gullar ham qurib qolgandi, ularni qanday gul ekanligini bilib ham bo'lmasdi. Ming afsuslar bo'lsinki, u betob bo'lib yotgan va o'lishini sezgan vaqtni orqaga qaytarib bo'lmas ekan. Onajonim sukutda, menga ta'na qilayotgani yo'q, hoynahoy, meni kechirgandir, axir men uning yakka-yu

yagona o'g'liman-ku! Ha, kechirgan bo'lsa kerak. Bu haqda o'ylasam vijdonim qiynaladi.

Qabrga qo'yilgan toshga qalbdagi iztiroblar bitilgan edi. U yozuvlarni yo'qotish uchun umr ham yetmaydi. Oradan milliard asrlar o'tar, ammo mening aybim bilan onajonim chekkan iztiroblar va yolg'izlik aslo ko'nglimdan o'chmagay. Qalbimdagi bu azobdan qutulolmasam kerak, bunga ojizman. Ko'nglimga taskin beruvchi bir narsa qolgandi: u ham bo'lsa uning ruhi meni ko'rib turibdi, tavba qilsam bo'ladi, degan yupanch edi, xolos.

Lekin endi u meni ko'rmaydi. Onajonim bu dunyoda yo'q, u o'lgan. Yillar mobaynida chirib borayotgan murdadan hoshqa hech narsa yo'q.

Hech narsa? Ha, hech narsa qolmadi. Nahotki, onajonimdan hech narsa qolmagan bo'lsa?

Kim biladi? Vaqti-vaqti bilan, ayniqsa, choshgoh paytlarda yolg'iz o'tirganimda meni g'alati bir tuyg'u chulg'ab oladi. Go'yo ichimga qandaydir tushunarsiz mavjudot kirib olganday bo'ladi. Shundan so'ng o'zimni yolg'iz his etmayman, har bir harakatim va har bir so'zim ichimga qandaydir sirli ruh kirib olganini tasdiqlaganday bo'ladi. U – Onajonim! Ammo bu sirli holat uzoqqa bormay, bor-yo'g'i bir yarim soatlar davom etadi. So'ngra yana kun bo'yi hayotning og'ir tegirmon toshi meni ezishda davom etaveradi.

## TEZYURAR POYEZD

– Bu sen ketadigan poyezdmi?

– Ha, men ketadigan poyezd.

Perronning chirk bosib ketgan bostirmasi ostida qo'zg'alishini kutib turgan parovoz go'yo quturgan buqadek kishini vahimaga solardi.

– Sen shu poyezdda ketasanmi? – deb so‘rashdi mendan.

Parovozdan shovqin bilan chiqayotgan bug‘ odamni dahshatga solardi.

– Ha, shu poyezdda ketaman. – deya javob berdim men.

– Qayerga ketyapsan?

Men borar manzilimni aytdim. Avvallari do‘stlarim bilan bo‘lgan suhbatda so‘rashganda ham bu manzilning nomini aytmagan edim. Hoynahoy, bu kamtarligimdan bo‘lsa kerak. Negadir shu manzilning nomi odamlarning qiziqishini uyg‘otadi. Uning nomini yozishga hozir ham jur‘atim yetmaydi.

O‘sha paytda menga, xuddi surbetga qaragandek g‘azab bilan, kimdir tentakka qaraganday shubha bilan, kimdir xomxayol bilan yashovchi odamga qaragandek achinish bilan qarardi. Kimdir ustimdan kulardi. Men vagonga sakrab chiqdim, oynani ochib tashqaridan tanishlarimni qidira boshladim. Ammo bironta tanish chehra ko‘ringani yo‘q.

– Qani, uchar poyezdim, yo‘lga tush. Vaqtni yo‘qotmaylik, shamoldek yel! Hurmatli mashinist, ko‘mirni ayamay yoq! Uchar ajdaringizga qamchi bosing!

O‘midan qo‘zg‘algan parovozning pishqirgan ovozi eshitildi. Vagonlar asta-sekin o‘midan siljidi, bostirma ustunlari birin-ketin ortda qola boshladi. So‘ng uylar va yana uylar, fabrikalar, tomlar, uylar, yana uylar, ko‘rinib turgan zavod mo‘rilari, darvozalar va yana uylar, daraxtlar, tomorqalar, yana uylar, yaylovlar, dalalar, osmonda suzib yurgan pag‘a-pag‘a bulutlar birin-sirin ko‘zga tashlanib orqada qolardi. Qani, olg‘a mashinist! Bor kuching bilan tezlikni oshir!

Yo tavba, biz qanday uchib borar edik-a! Bu tezlikda birinchi raqamli stansiyaga, so'ngra ikkinchisiga, uchinchi, to'rtinchi va beshinchisiga yetib borish hech gap emas, deb o'ylardim. Mamnun holda tashqaridagi telegraf simlarininng dam pasayib borishi, so'ngra yana ko'tarilib pastga tushishini tomosha qilib ketardim. Poyezdning tezligi borgan sari oshib borardi. Ro'paramda qizil duxobali o'rindiqlarda ikki janob o'tirardi, aftidan ularning poyezdda ko'p yurganliklari ko'rinib turardi; ular negadir dam-badam soatlariga qarab qo'yardilar va boshlarini chayqagancha ming'irlab, nimadandir norozi bo'lib so'zlashardilar.

Aslida tortinchoq bo'lsam-da, shu tobda jur'at etib:

– Uzi, savolim o'rinsiz bo'lsa-da, janoblar, aytingchi, sizlar nimadan norozisizlar? – deb so'radim.

– Ha, juda ahvolimiz tang, – dedi yoshi kattaroq janob. – Chunki, poyezd imillab yuryapti. Ha, imillab... Shu yurishda davom etsak, manzilimizga kechikib boramiz, birodar.

Men ularning gapiga qo'shilmasam-da, lekin o'ylanib qoldim. Odamlarning ko'nglini olish qiyin; axir biz tushgan poyezd o'zining quvvatiga yarasha shitob bilan ketyapti-ku. U yo'lbars kabi baquvvat, axir. Shu vaqtgacha boshqa poyezdlar yurolmagan katta tezlikda bor-yapti-ku, axir. Eh, norozi yo'lovchilar-ey.

Poyezd tez yurganidan temiryo'lning ikki yonidagi dalalar lip-lip etib ortda qolmoqda edi. Nazarimda birinchi stansiyaga poyezd mo'ljalidan avvalroq yetib kelgandi. Soatga qaragach, biz jadval bo'yicha aniq yurayotganimizga ishonch hosil qildim. Rejaga ko'ra. Bu yerda men muhim masala bo'yicha, muhandis Moffin bilan uchrashishim kerak. Vagondan tushgach, kelishuvga bi-

noan meni Moffin kutib turgan qahvaxona tomon oshiqdim. U endi tushlik qilib bo'lgan ekan.

Men muhandis Moffin bilan salomlashgach, uning yoniga o'tirdim, lekin u kelishuvimiz haqida lom-mim demay, go'yo vaqtimiz ko'pdek. ob-havo va maydachuyda arziyas narsalar haqida gapirardi. Oradan o'n daqiqa o'tdi (poyezdning jo'nashiga bor-yo'g'i yetti daqiqa qolgandi), nihoyat u charm sumkasidan kerakli qog'ozlarni chiqardi. Shu orada bezovtalanib, soatga qarayotganimni sezib qoldi.

– Yigitcha, aftidan shoshyapsiz shekilli, – dedi kesatib, – Ochig'ini aytsam, shoshirib turganlar menga yoqmaydi...

– Siz mutlaqo haqsiz, janob muhandis, – e'tiroz bildirishga jur'at etdim men, – lekin bir necha daqiqadan so'ng, poyezdim jo'nab ketadi va...

– Unday bo'lsa, – dedi u shosha-pisha hujjatlarni yig'ishtirar ekan, – kechirasiz, men juda afsusdaman, bu ish haqida boshqa safar, sizning vaqtingiz bema'lolroq bo'lgan paytda gaplasharmiz, aziz birodar, – deya joyidan qo'zg'aldi.

– Kechirasiz, – deya g'o'ldiradim men, – ayb menda emas, bilasizmi, bu poyezd...

– Buni menga ahamiyati yo'q, ha, ahamiyati yo'q, – dedi u va bir so'zlik ekanligini namoyish etarkan, kulimsirab qo'ydi.

O'rnidan siljigan vagonning zinasiga zo'rg'a chiqib oldim. „Nimayam qilardim! – dedim o'zimga-o'zim. – Mayli, uchrashuvni keyingi safarga qoldirsak-qoldiribmiz-da. Muhimi, yo'ldan adashmasak bo'lgani“.

Biz dalalarni ortda qoldirib borardik. Telegraf simlari dam yuqoriga ko'tarilib, dam pastga tushib borardi, bepoyon yaylovlar bo'ylab keta boshladik. Uylar tobo-

ra kamroq ko'zga tashlanardi, chunki biz shimol tomon ketmoqda edik. Ma'lum bo'lishicha, bu yerlarda odamlar kam yashardilar, ha, bu yerlar ovloq joylar edi.

Avvalgi hamrohlarim joylarida ko'rinmadilar. Men joylashgan kupeda yuzidan nur yog'ilib turgan rohib o'tirardi. U tinmay yo'talardi. Oyna ortidan esa yana yaylovlar, o'rmonlar, botqoqliklar birin-sirin o'tib borardi. Bekorchilikdan soatimga qarab qo'ydim. Yo'talib turgan protestant rohibi ham soatiga qarab qo'ydi-da, boshini chayqadi. Bu safar men undan nega boshini chayqaganini so'rab o'tirmadim, chunki, sababi, besh qo'ldek ravshan. Soat o'n oltidan o'ttiz besh daqiqa o'tganini ko'rsatib turardi. Demak, o'n besh daqiqa avval biz ikkinchi stansiyaga yetib kelishimiz kerak edi, vaholanki, stansiya uzoqdan ham ko'zga tashlanmaydi.

Ikkinchi stansiyada meni sevgilim Rozanna kutib olishi kerak. Poyezd manzilga yetib kelganda, kutib turgan odamlar ko'p edi. Ular orasida Rozanna ko'rinmasdi. Poyezdimiz yarim soatga kechikib kelgandi. Men stansiyaga sakrab tushdim va vokzal binosidan o'tib, vokzal oldi maydoniga yugurib chiqdim. Shu onda xiyobon bo'ylab ketayotgan Rozannani ko'rib qoldim: u boshini quyi solgancha tobora mendan uzoqlashib ketdi.

– Rozanna! Rozanna! – deya qichqirdim ovozim bo-richa.

Ammo sevgilim ancha uzoqlashib ketgandi. Tavba, u hatto biron marotaba bo'lsa-da, ortiga o'giritilib qaragani yo'q. O'zingiz insof yuzasidan ayting-chi, men uning ketidan yugurishim, poyezdimdan qolib ketishim va umuman, hammasidan voz kechishim mumkinmidi?

Rozanna yolg'izoyoq yo'ldan ketib borarkan, oxiri ko'zga ko'rinmay qoldi. Men esam, yana bir uchrashuvdan mahrum bo'lganimni anglab, tarvuzim qo'ltig'imdan tushgancha, poyezdim tomon qaytib keldim. Mana endi shimolning pasttekisliklari bo'ylab, odamlar taqdir deb atagan hayot ichiga sho'ng'ib ketib borardim. Muhabbat deganlari shumi, axir?

Yo'lda davom etardik. Kunlar ketidan kunlar o'tib borardi, temiryo'l bo'ylab tortilgan telegraf simlari asabga teguvchi raqsga tushishardi. Negadir g'ildiraklarining gumbirlashida avvalgi shijoat sezilmasdi. Negadir uzoqdan ko'rinayotgan daraxtlar, cho'chigan quyonlar kabi ko'z o'ngimizdan zum o'tmay, ma'yus holda biz tomon sudralib kelayotgandek ko'rinardi.

Uchinchi stansiyaga chamasi yigirma kishilar atrofida odam yig'ilgan edi. Ular orasida meni kutib olishi kerak bo'lgan qo'mita odami ko'rinmasdi. Perronga tushgach, uni surishtira ketdim. „Mabodo, siz bu yerda qo'mitadan orkestr va bayroqlar bilan kutib olishga kelgan xonimlar va janoblarni ko'rmadingizmi?“ – deya so'ray boshladim.

– Ha, ha, ular kelishgan edi. Uzoq vaqt kutishdi ham. So'ng kutish befoyda, deb hammalari tarqab ketishdi.

– Qachon?

– Uch-to'rt oy avval, – dedilar kulib.

Shu tobda paravozning qo'zg'alishini bildiruvchi hushtak ovozi eshitildi.

Poyezd o'rnidan jildi. Qani, olg'a, dadilroq! Garchi bizning tezyurar poyezdimiz iloji boricha tez yurishga harakat qilsa-da, biroq avvalgidek shitob bilan yurolmayotgan edi. Kim biladi deysiz, ko'mir sifatsizmi? Yo havo yetishmayaptimi? Yoki sovuq xalaqit beryaptimi? Balki,

mashinist charchagandir. O'rdagi kengliklar go'yo jarlik-day tuyulardi: unga qaragan odamning boshi aylanardi.

To'rtinchi stansiyada meni onajonim kutib olishi kerak. Poyezd to'xtadi, perrondagi xarrakda hech kim ko'rinmas edi. Erinmay qor yog'moqda.

Men boshimni derazadan iloji boricha chiqarib, atrofni ko'zdan kechira boshladim. Hafsalam pir bo'lib endi oynani yopmoqchi bo'lib turganimda, onajonim meni kutishi zalida poylab o'tirganini ko'rib qoldim. Onajonim sholro'molga o'ralib xarrakning bir burchagida mudragancha g'ujanak bo'lib o'tirardi. Yo tavba, munis onajonim kichrayib ketibdi-ya!

Poyezddan sakrab tushdim-u, onajonimning istiqboliga yugurdim. Quchganimda, qoqsuyak bo'lib qolganini his etdim va sovuqdan dildirayotganini sezdim.

– Onajon, uzoq vaqt kutib qoldingizmi?

– Yo'q, yo'q, o'g'lim, – dedi u suyungancha jilmayib. – Bor-yo'g'i to'rt yildan buyon kutaman seni.

Onam so'zlarkan, ko'zimga tik qaramas, go'yo nimanidir qidirayotganday yerga qaradi.

– Oyijon, nimani qidiraysiz?

– Hech narsani. Jomadonlaring qani? Ularni perronda qoldirdingmi?

– Ular poyezdda, – dedim men.

– Poyezdda? – onamning yuzida umidsizlik paydo bo'ldi. – Sen ularni o'zing bilan olib tushmadingmi?

– Bilasizmi, menga... – onajonimga qanday qilib tushuntirishni bilolmasdim.

– Hozir ketaman demoqchimisan, o'g'lim. Hatto bir kunga ham qolmaysanmi?

Onajonim jim bo'lib qoldi, qo'rquv aralash menga tikilib turardi.

Men xo'rsindim.

– Eh, mayli! Poyezd ketaversin! Hozir yugurib borib jomadonlarimni olib tushaman. Oyijon, siz bilan qolishga qaror qildim. Axir siz mening kelishimni to'rt yildan buyon kutasiz-a!

Bu gaplarni eshitgan onajonimning suyunganidan yuziga qon yugurdi: u juda xursand bo'lib mamnun jilmaydi.

– Yo'q, yo'q, jomadoningni olib tushma. Sen meni tushunmading, o'g'lim. – yolvordi u. – Men hazillashdim, to'g'ri, sen bu ovloq joyda qololmaysan. Meni o'y-lama, o'g'lim. Meni deb umringni bu yerlarda o'tkazmasliging kerak. Agar sen hoziroq ketsang, hammasi yaxshi bo'ladi. Ikkilanib o'tirma. Bu sening burching... Men faqat bir narsani – seni ko'rishni niyat qilgandim, xolos. Mana, nihoyat, niyatimga yetdim, biz ko'rishdik. Endi menga boshqa hech narsa kerak emas, o'g'lim!

– Tashkachi, hoy, tashkachi, – deya qichqirdim men. Yuk tashuvchi bir zunda ro'paramda paydo bo'ldi. – Uchta jomadonni poyezddan tushirish kerak!

– Bunga men ruxsat bermayman! – takrorladi onam. – Bunday imkoniyat senda boshqa bo'lmaydi. Yoshsan, o'g'lim, o'z yo'lingdan qolmasliging kerak! Qani, tezroq vagonga chiqib ol! Bo'laqol o'g'lim, bo'laqol! – onajonim o'zini kulishga majbur etib meni vagon sari itarardi. – Xudo xayringni bersin, shoshil o'g'lim, eshiklar hozir yopiladi.

Men baxti qaro, xudbin o'g'il garangsib, qanday qilib poyezdga chiqib olganimni bilmay qoldim. Oynadan boshimni chiqargancha, onajonimga qo'i silkitib xayrlasha boshladim.

Poyezd o'rnidan qo'zg'aldi. Tez orada onam ortda

goldi. U tobora ko'zimga kichrayib ko'rinib borardi. Munis onajonim g'amgin boqqancha, yog'ayotgan qor ostida perronda yolg'iz o'zi turardi. So'ng, borgan sari onamning jussasi kichrayib, nihoyat, bir nuqtaga aylan-di-yu, tez orada ko'zdan g'oyib bo'ldi. Alvido, onajon!

Yillar-la o'lchanadigan kechikish bilan biz shosh-gandan shoshamiz. Ammo qayerga?

Kech kira boshladi. Sovub qolgan vagonlarda deyar-li hech kim qolmagandi. U yer-bu yerda qorong'i ku-pelarning burchaklarida sabrli notanish yo'lovchilarni uchratish mumkin edi, xolos: sovqotayotgan bo'lsalar-da, nolimasdilar.

Biz qayerga ketyapmiz? So'nggi stansiyaga hali qancha bor? Biz u yerga yetib bora olamizmi? Tug'ilib o'sgan joylardan, o'zing yoqtirgan odamlardan shu daraja-da uzoqlashib, shoshib jo'nab ketish shartmidi? Sigaretla-rimni qayerga qo'ydim ekan-a? Eh-a, ular kamzulimning cho'ntagida-ku! Orqaga yo'l yo'q, bu aniq!

Qani, mashinist, poyezdingni tezligini oshir! Aft-an-goring qanday ekan seni? Isming nima? Seni tanimay-man, hech qachon ko'rgan ham emasman. Agar sen menga yordam bermasang, holimga voy! Mashinist, bardam bo'l, o'txonaga oxirgi ko'mirlarni tashla, ilti-mos, bu shalldiroq arava yana avvalgi parovozdek uchib yursin-da, tim qorong'ulikni yorib, kirib borsin! Xudo haqqi, bo'shashma mashinist, uxlab qolma. Balki, biz ko'zlagan manzilimizga ertaga yetib borarmiz.

## MUNDARIJA

|                                                |   |
|------------------------------------------------|---|
| Nashriyotdan .....                             | 3 |
| Kattalashtirilgan surat ( <i>Qissa</i> ) ..... | 5 |

## HIKOYALAR

|                       |     |
|-----------------------|-----|
| Afsungar .....        | 137 |
| Ikki haydovchi .....  | 143 |
| Tezyurar poyezd ..... | 149 |

*Adabiy-badiiy nashr*

DINO BUTSSATI

## KATTALASHTIRILGAN SURAT

*Qissa va hikoyalar*

Tarjimon:

**Nazira JO'RAYEVA**

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

|                 |                            |
|-----------------|----------------------------|
| Muharrir        | <i>Abdurahmon Jo rayev</i> |
| Badiiy muharrir | <i>Mafituna Vahobova</i>   |
| Musahhah        | <i>Gulandom Umarova</i>    |
| Sahifalovchi    | <i>Habibulloh Haydurav</i> |

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
06.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ .  
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 73–20.  
Buyurtma raqami 337-20.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishmo'i k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)







# DINO BUTSSATI KATTALASHTIRILGAN SURAT

*Italiyalik yozuvchi, jurnalist va rassom Dino Butssati 1906-yilning 16-oktabrida tugʻilgan. 1928-yilda huquqshunos diplomini oladi. Shu yili Milandagi „Korrere dela Serra“ gazetasiga ishga kiradi.*

*1930-yilda Dino Butssatining birinchi romani nashr qilingan. 1933-yilda „Togʻlik Bornobo“, 1935-yilda „Koʻhna oʻrmon siri“, 1939-yilda „Tarar sahrosi“ asarlari va shundan keyin qator hikoya va novellalari eʼlon qilingan.*



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)



[fb.com/ziyo.nashr](https://fb.com/ziyo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6340-0-8

